


50000



WORDS

IN A MONTH

Yangi innovatsion assotsatsiyali lug'at

- 
- 1 soat/150-320ta so`z yodlash texnikasi;
 - 15 daqiqada 80.000ta passiv so`z boyligi;
 - Mnemonika mashqlari;
 - Superxotira;
 - 1,5 – 2 soatda barcha noto`g`ri fe`llar.

Yangi innovasion lug`at haqida

Qo`lingizda siz hozirda jahon bo`yicha yagona innovasion lug`atni ushlab turibsiz. Ushbu lug`at o`z turlari ichida juda ham noyob hisoblanib, sizni lug`at masalasidagi barcha muammolaringiz hal etib beradi. Ingliz tilini o`rganuvchi inson 90% vaqtini yangi so`zlarni yodlashga sarflaydi. Ayni shu 90%lik muammoingiz endilikda ushbu lug`at orqali butunlay hal bo`ladi, sababi endilikda siz atiga 1 oy ichida 5000ta so`z yodlab olish imkoniyatiga egasiz.

Statistika ma`lumotlariga ko`ra, til o`rganuvchisi yiliga 1200-1500ta so`z yodlar ekan. Bu degani, 3-4 yil ichida 5000-6000ta so`z yodlab, Advanced darajasiga chiqar ekan. Endilikda, ushbu muammoni butunlay hal qildik. Siz atiga 1 oy ichida 5000ta so`z yodlab, Advanced darajasiga chiqib olishingiz mumkin. Ayniqsa, IELTS hamda CEFR imtihonlariga tayyorgarlik ko`rayotgan talabalarga juda ham katta yordam beradi.

Lug`at yodlash texnikasi (1 soatda 150-320ta so`z)

Lug`at. Hisob-kitoblarga ko`ra til o`rganuvchi **90%** vaqtini asosan yangi so`zlarni yodlashga ketkazar ekan. Demak, asosiy muammo – bu yangi so`zlarni yodlash. Endi ushbu muammoni qanday yechsa bo`ladi?

Hech kim hech qachon so`zlarni yodlashga hech qanday e`tibor qaratmagan. Barcha o`qituvchilar so`zlarni shunchaki berib yuborishadida, ularni yodlab kel deyishadi, tamom. Lekin qanday yodlashni o`rgatishmaydi! Mana muammo nimada!

Biz odatda so`zlarni qanday yodlaymiz? Standard uslub quyidagicha: uchta kolonka tuzib olamiz: **Uzb/Eng/Transkripsiya** – shu uslubda ro`yxatni to`ldirib olamiz, so`ng bir tarafni yopib olib, ikkinchi tarafni qaytaramiz, ikkinchi tarafni yopib olib, birinchi tarafni qaytaramiz. Barcha so`zlarni shu uslubda yodlasa kerak, shunday emasmi?

Endi ushbu uslub orqali siz soatiga nechta so`z yodlay olasiz? Hisob-kitoblarga ko`ra, ushbu uslub orqali normal odam soatiga atiga **20-30ta so`z** yodlay olar ekan. Ammo Ebengaus teoremasiga ko`ra, bir hafta

o`tgach, ushbu yodlangan so`zlardan atiga **3-4tasi** esda qolgan bo`ladi. Qolganlari shunchaki yoddan chiqadi. Sababi, bu yerda hech qanday faol harakat kuzatilmaydi, shunchaki passiv yodlash jarayoni, xolos.

Bizning texnikamiz yordamida siz soatiga **150-320ta** so`z yodlay olasiz. Albatta, bu ko`nikma hosil qilingan holatda. Ya`ni bu uslub shunchaki bilim emas, ko`nikma. Odatda ushbu uslubdan foydalanishni boshlaganlar **500chi** so`zga kelganda, soatiga **120-180ta** yodlashni boshlaydi. Rekordini oshirishni istaganlar esa **1 soatda 320ta** so`zgacha olib bora oladi, lekin undan oshira olmaydi.

Shaxsan bizning rekordimiz, ya`ni ushbu uslubni asoschisi Ayubxon A`zamovning rekordi **1 soatda 400ta** so`z bo`lgan. Bu uslub suggestopediya uslubi orqali yodlangan. Bu uslub haqida sizga kechroq so`zlab beramiz. Lekin ushbu uslub hammada ham ishlayvermaydi, hozirda bu bo`yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Bunga sabab nima? Qanday qilib bu darajada yuqori tezlikda yodlash mumkin? Siri juda ham oddiy. Kurs boshida biz insonning o`ng tomon xotirasini ochamiz va uni rivojlantiramiz. Bizning miyamiz ikki bo`lingan: **chap qism hamda o`ng qism**. Chap taraf asosan Mantiqqa javob beradi, ya`ni raqamlar, matnlar; yozuvlarni yodlashga mo`ljallangan va u atiga **10% xotira** potensialiga ega. O`ng taraf bo`lsa, asosan emosiyalarga javob beradi. Bizda 5ta his-tuyg`u organi mavjud – bu ko`rish, eshitish, tam bilish, hid sezish va his etishdir. **O`ng qism 90% xotira** potensialiga ega hisoblanadi. Undan 80% potensial tasavvurga tegishli. Mana sizga savol: sizda o`qigan kitobingiz yaxshiroq esda qoladimi yoki tomosha qilgan filmingizmi? Albatta, ko`rgan filmingiz. Siz uni detal-detallarigacha hamda epizod-epizodlarigacha eslab qola olasiz. Sabab? Film tomosha qilganda sizda avtomatik tasavvur ishlaydi va u hech qachon esdan chiqmaydi. Yosh bolalarni xotirasini kuchli deyishadi. To`g`ri, sababi ular barcha ma`lumotlarni o`ng qism orqali, ya`ni tasavvur orqali qabul qilishadi, shu sabab hamma narsani eslab qola olishadi. Afsuski, maktabga chiqgach, ulardagi ushbu tabiat in`omi so`na boshlaydi. O`ng taraf deyarli boshqa ishlatilmaydi. Barcha ma`lumot chap taraf orqali qabul qilina boshlaydi.

Shu bois, biz chang bosib yotgan o`ng tarafni changlarini artib, yaxshilab tozalaymiz va unga zaryad beramiz. O`ng tarafni uyg`otish

uchun maxsus mashqlar mavjud. Bitta dars ichida **o`ng taraf normal holatga kela boshlaydi**. Ana shundan so`ng lug`at yodlash jarayoni ishga tushib ketadi.

Statistikaga murojaat qilamiz. Olimlarning hisob-kitoblariga ko`ra:

- **150ta so`z – Beginner darajasi**, ya`ni odatiy suhbatlar uchun yetarli hisoblanadi;
- **800ta so`z – Elementary darajasi**, ya`ni chet elga borib, bermalol sayohat qilib, u yerdagi insonlar bilan suhbatlashish uchun yetarli;
- **2000-3000ta so`z – Intermediate darajasi**, ya`ni talaba darajasi hisoblanadi. Ushbu darajada siz bermalol gaplashishni boshlaysiz, bermalol yoza olasiz, bermalol kitoblar o`qiydiz, bermalol filmlarni tomosha qilib, tushunishingiz mumkin. **IELTSDan 5,5 – 6 ball, CEFRdan B2** darajasini olishingiz mumkin;
- **5000-6000ta so`z boyligi – Advanced darajasi**, ya`ni o`qituvchi darajasi. Har qanday o`qituvchi ushbu darajada bo`lishi shart hamda 5000ta so`z bilishi shart. Ushbu darajada **IELTS 7,5 – 8 ball, CEFRdan C1** darajasini egallash mumkin;
- **10.000ta so`z – Proficiency darajasi**, ya`ni professorlar darajasi. Ushbu darajada siz bermalol ilmiy ishlar qila olasiz, dissertasiya yoza olasiz hamda ilmiy-texnik kitoblarni o`qishingiz mumkin. **IELTS 9 ball, CEFRdan C2** darajasini olishingiz mumkin.

Agar soatiga 300tadan so`z yodlashni boshlasangiz, atiga **20 soat ichida** siz bermalol **6000ta so`z** yodlab, **Advanced darajasini** egallashingiz mumkin.

Qolaversa, bizda **15 daqiqada 80.000ta so`z** yodlash texnikasi mavjud bo`lib, siz katta miqdorda passiv lug`at boyligiga ega bo`lishingiz mumkin.

Lug`at yodlash jarayoni 3 qismga bo`linadi: **So`zlarni tanlab olish, ularni eslab qolish, ularni mustahkamlash.**

Soʻzlarni tanlab olishingiz shart emas, eng muhim soʻzlarni biz siz uchun allaqachon tayyorlab qoʻyganmiz. Eslab qolish jarayoni ham hal, u yuqoridagi texnika orqali boʻladi. Mustahkamlash jarayoni esa eng muhimi. Sababi, soʻzlarni ishlata olish koʻnikmasi shu yerda paydo boʻladi. Ushbu jarayon Grammatika bilan birgalikda mustahkamlanadi.

Deylik, siz **5000ta** soʻz yodladingiz, lekin ularni barchasini ham qoʻllay olmaysiz. Ikki xil lugʻat turi mavjud, **passiv hamda aktiv**. 5000ta soʻzni siz tushunishingiz mumkin, lekin hammasini ham tarjimasini bilmaysiz. Undan 3000ta soʻzni siz tarjimasini bilasiz va uni tarjima qila olasiz. Undan 1500ta soʻzni siz qoʻllay olasiz. Ayni shu soʻzlar sizning aktiv lugʻatingiz hisoblanadi, qolgan **3500tasi** shunchaki **passiv** hisoblanadi. Shu bois, mustahkamlash jarayoni juda muhim, ayni shu jarayonda barcha soʻzlar aktivlashtiriladi. Yaʼni **5000ta aktiv lugʻat** boyligiga ega boʻlasiz.

Meta-taʼlim

Meta-taʼlim oʻtgan asrimizning 50 yillarida Yevropada paydo boʻlgan. Aslini olganda meta-taʼlim qadim davrlardan buyon mavjud, lekin u hozirgidek nom qozonmagandi. Meta-taʼlimni – taʼlim tizimidagi yangilik sifatida 50 yillarida tan olishdi.

Meta soʻzi lotin tilidan olinganda, oʻzbek tiliga tarjima qilinganda “yordamchi” degan maʼnoni anglatadi.

Ushbu soʻzning maʼnosidan tushunarli boʻlsa kerak, meta-taʼlim taʼlim ayni qaysidir turi bilan shugʻullanmaydi, yaʼni ushbu taʼlim turi shunchaki taʼlim jarayonini tezlashtirishga asoslangan.

Hozirda meta-taʼlim texnologiyalari dunyodagi barcha taʼlim texnologiyalari ichida 1 oʻrinni egallaydi. Meta-taʼlim hozirda Yevropaning eng rivojlangan davlatlarida (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va h.k.) hamda AQShda keng rivojlangan va rivojlanib bormoqda. Osiyo davlatlari esa bu sohada oqsab qolmoqda, faqatgina Janubiy Koreya, Xitoyning ayrim regionlari hamda Yaponiya davlatlariga ushbu yoʻnalish endi-endi kirib kelmoqda. Oʻrta Osiyoga hali meta-taʼlim

kirib kelmadi. Bu degani O`zbekistonda meta-ta`lim ilk bor Toshkent shahrida o`z qanotlarini yozishni boshladi.

Meta-ta`limning asosiy maqsadlari:

- 1) Ta`lim tizimini eskilik sarqitidan zamonaviy holatga olib chiqish;
- 2) Ta`lim samaradorligini oshirish;
- 3) **Ta`lim jarayonini tezlashtirish.**

Hozirda meta-texnologiyalari barcha fanlar, qolaversa barcha sohalar uchun ishlab chiqilgan. Bizda ilk bor meta-ta`lim inglis tilini o`rganish sohasidan boshlandi, ya`ni biz boshladik.

Buning sababi – hozirda chet tillarini o`rganish urf bo`ldi, qolaversa O`zbekiston jahon hamjamiyati ichida o`z obro`si hamda o`ziga yarasha hamkorlariga ega, shu bois hozirda chet tillarini biladigan mutahassislarga talab juda oshib ketdi.

Endi eng qizig`i, meta-texnologiyalari yordamida siz ta`lim jarayoningizni 30 baravariga oshirishingiz mumkin. Misol, siz repetitor yo biron o`quv markazida inglis tilini taxminan 1 yil ichida o`rganasiz. Ushbu texnologiyalar yordamida, siz atiga 2 oy ichida o`rganib olishingiz mumkin, qolaversa natijangiz 1yillik ta`limingizdan yuqori bo`ladi. Matematikani 3 hafta ichida o`rganish mumkin va h.k. Qolganlari hozircha sir!!!

Meta-ta`limning bo`limlari:

- 1) Tillar uchun maxsus texnologiyalar;
- 2) Mnemonika (superxotira)ga ega bo`lish sirlari;
- 3) Tez va sifatli o`qish san`ati (1 daqiqada – 700 – 800 ta so`zgacha olib boorish mumkin);
- 4) Ma`lumot bilan ishlash, tushunish va uni esda qoldirish texnologiyalari.

Meta-ta`limni tasavvuran tushunishingiz uchun, sizga bir metafora keltirib o`taman.

Tasavvur qiling, marafon barcha yuguryapti. Kimdir tez, kimdir ma`lum bir sabablarga ko`ra sekin. Marra aniq, hamma bor kuchi bilan marra sari

intilyapti. Siz bo`lsa mashinada ketyapsiz. Xo`sh, nima deb o`ylaysiz, kim birinchi bo`lib yetib boradi. Albatta siz. Chunki sizda texnika bor. Maxsus algoritm hamda texnologiyalar bilan va texnikasiz standart ravishda o`rganishning o`rtasidagi farq shunda. Texnologiyalar yordamida siz 95% ustunlikka ega bo`lasiz.

Axborotni qabul qilishda samaradorlikni oshirish

Samaradorlik masalasi hamisha bizni qiziqtirgan, shu bois bu masalaga atroflicha e`tibor qaratishingizni maslahat beraman. Ma`lum bir vaqt ichida misol siz 20% axborotga ega bo`lsangiz, biz o`sha vaqtda 80% axborotga ega bo`lishimiz mumkin, mana shuni samaradorlikni oshirish deyishadi.

Ammo bu galgi samaradorlikka oid ma`lumotlar yuk tashuvchilar, haydovchilar kabi kasb vakillari uchun emas. Ishi o`qish va axborot bilan ishlash bilan bog`liq bo`lgan insonlar uchun. O`quvchilar, ayniqsa bu sizga kerakli mavzu.

Maktablarda darslar 45 daqiqa davom etadi. Hech birimizga sir emaski, bu samaradorlikni hech ham oshirmaydi. Chunki so`nggi 15 daqiqa ichida miya hech qanday axborot qabul qilmaydi. Har yarim soatda miya samaradorligi pasayadi va u umuman axborot qabul qilmay qo`yadi.

Birinchi o`n daqiqa ichida esa miya xuddi shunday past samaradorlik bilan ishlaydi. Shu bois, malakali o`qituvchilar bu o`n daqiqa davomida bolalar bilan biroz suhbatlashishi, uyga vazifani tekshirishi kerak. Ana undan keyin yangi ma`lumotlarni qabul qilishga bolakayning miyasi tayyor bo`ladi.

Endi ta`lim jarayonida qanday qilib samaradorlikni oshirish mumkin? Bu masala juda oddiy. Har yarim soatda 5 daqiqa tanaffus qilasiz. So`ng yana yarim soat o`qiysiz, 5 daqiqa dam olasiz. Iloji bo`lsa 30 daqiqaga budilnik qo`yib qo`ying.

Endi mana shu tanaffuslar vaqtida nima qilish keragi, nima qilmaslik kerakligi haqida gaplashamiz.

Bilamiz-ki, ko`pimizning axborot bilan ishlash jarayonimiz asosan kompyuter oldida bo`ladi. Bu vaqtda qon aylanishi sekinlashadi. Shu bois, qo`l gimnastikasi yoki ko`z gimnastikasi bilan shug`ullanish maqsadga muvofiqdir.

Qo`l gimnastikasi e`tiborni chalg`itadi, miyani dam oldiradi va samaradorlikni oshiradi. Ko`z gimnastikasi esa ko`z nurini asrab qolishga zamin yaratadi.

Qo`l gimnastikasiga quyidagi mashqlar kiradi: Bosh barmoqni ishqalaymiz, ikkala qo`lnikini ham. Va shu yo`sunda barcha barmoqlarni ishqalab chiqamiz. Xalqimizda boshing og`risa bosh barmoqni ishqala degan gap bor. Chunki aytishlaricha miyaga yetib boruvchi tomirlar bosh barmoqdan boshlanarkan.

So`ng bosh barmoqni zo`r qilib ko`rsatamiz – chap qo`lda, o`ng qo`l bilan esa to`pponcha qilamiz (ko`rsatkich barmoq yordamida). So`ng tezda almashtiramiz, chap qo`l to`pponcha, o`ng qo`l zo`rni ko`rsatadi. Shu mashqni tez qilishni o`rganish kerak.

Kaflarni ishqalaymiz, ishqalaymiz, tez ishqalaymiz. So`ng yaxshilab qarsak chalib yuboramiz.


Ko`rsatkich va o`rta barmoqlar bilan to`pponcha yasang – bir qo`lingizda, ikkinchi qo`lingizda unga qarshi to`pponchani ya`ni nomsiz barmoq bilan, kichkina barmoqni qarating. So`ng tezda almashtirishni o`rganing. Bittadayoq bu o`xshamaydi, ammo yaxshigina samara beradi.

Ko`z gimnastikasi: ko`z qorachig`ini tepaga, pastga harakatlantiramiz, bu holatda bosh qimirlamasligi kerak, qosh ham. Qorachig` bilan doira yasaymiz, avval o`ng tomonga, so`ng chap tomonga. Bosh va qoshni qimirlatmagan holatda ko`z qorachig`i bilan u yon bu yonga qaraymiz.

Endi biroz quloqlarni ham massaj qilamiz. Faqat oxista massaj qiling, tag`in filnikidek uzun bo`lib ketmasin.

Xotira

Birinchi bo'lib miyani ishlash tempini oz-moz o'rganib chiqamiz. Miyyamiz ikki qismdan iborat.



Chap va o'ng. Chap qism asosan mantiqqa, o'ng qism emotsiyalarga javob beradi.

Chap qism matnli xotira hisoblanadi: turli xil so'zlar, matnlar, raqamlar, faktlar, analizlar va h.k.

O'ng qism emotsional xotira hisoblanadi: beshta his tuyg'u – ko'rish, eshitish, hid sezish, ta'm bilish va taktil xotira.

Chap qism 10% eslab qolish potensialiga ega. O'ng qism 90% ma'lumotni saqlab qolish potensialiga ega.

Chunki, bir o'ylab ko'ring, siz tasavvurlar orqali o'ylaysizmi yoki miyyangizda matnlar paydo bo'ladimi? Albatta tasavvurlar.

Tasavvur – 80% eslab qolish kuchiga ega. Qolgan his-tuyg'ular qolgan 10% bo'lishib oladi.

Nega yoshlikda bog`cha bolalarini xotirasi kuchli bo`ladi, deymiz? Chunki ular matnli xotiraga o`tishmagan, ular barcha axborot tasavvuran eslab qolishadi. Miyyani o`rtasi, ya`ni bog`lab turuvchi torgina yo`lakcha Corpus callosum deb nomlanadi. Miyyani ikki qismini bog`lash eng qiyin ish. Agar ikki qismdan foydalanib eslab qolish ko`nikmasiga ega bo`lsak, biz istagan ma`lumotimizni 100% eslab qolishimiz mumkin. Biz hozir aynan o`sha uxlab chang bosib yotgan xotirani tiriltirishimiz kerak.

Boshida qiyin bo`ladi albatta. Lekin har qanday inson uddalay oladi. Insonning o`ng qismini tiriltirish va xotirasini kuchaytirish uchun maxsus fan mavjud – Mnemonika fani. Bu sohani ko`pchilik biladi chamamda. Televizorlarda ikkita yigitlar chiqib o`z xotirasining kuchlarini ko`rsatadi, bu narsa hech kimga sir emas. Biz xotiramizni tiriltirish uchun 1 tagina mashqning o`zi yetarli.

Mnemonika tarixdan barchamizga ma`lum. O`z davrida Siseron mnemonika haqida ko`plab ishlarni yozib qoldirib ketgan. Qadimgi Yunonistonda Mnemonika Xudosi bo`lgan. U xotira mabudi bo`lgan va shu sabab bu fanni uning nomiga atashgan.


Endilikda sizga vazifa. Xotirangizni sinab ko`ramiz. Quyidagi 20ta so`zni yodlab, ketma-ket, bexato aytib ko`rishga harakat qiling.

1. **Banan;**
2. **Ruchka;**
3. **O`rmon;**
4. **Muzlatgich;**
5. **Gilam;**
6. **Oshpaz;**
7. **Osmon;**
8. **Yog`;**
9. **Mashina;**
10. **Stadion;**
11. **Bodring;**
12. **Ayiq;**
13. **Bulut;**
14. **Qulupnay;**
15. **Kompyuter;**
16. **Non;**

17. **Maktab;**
18. **Televizor;**
19. **Piyoz;**
20. **O`rdak.**

Ko`rib turibsiz, yodlab olish bilan bu ish juda qiyin. Ammo assosiasiyalar yordamida bularni yodlab olish juda oson. Shunchaki bitta so`zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish kerak.

Miyamiz kichik-kichik neyronchalardan tashkil topgan. Ma`lumot miyyaga kelishi bilan neyronlar biri-biriga sinaps ya`ni bog`lovchilar orqali biri-biriga ma`lumotni uzatadi. Mnemonika aynan shunga asoslangan. Ya`ni birinchi axborotni ikkinchisi bilan bog`lash.



Hozir sizga qanday bog`laganimni ko`rsatib beraman. Banan ruchkada xat yozyapti, so`ng ruchka katta qilib ruchkani rasmini chizdi. O`rmon ichi muzlatgichlarga to`la. Muzlatgichni ochyapmiz ichi muzlab qolgan gilamlarga to`la. Gilamlarni qoqib tashlanganda, u yerdan juda ko`p oshpazlar yog`ilishni boshladi. Va birdan oshpazlar osmonga uchib chiqib ketib qoldi. So`ng osmonda ovqat pishirishgandi, yog`lar yerga tushib, mashinalarni bosib qola boshladi. So`ng mashinalar qayerga qochishini bilmay, stadionga yopirilib kirib keta boshlashdi. O`sha paytda stadionda bodringlar ayiqlarga qarshi futbol o`ynashayotgandi. Birdan

ayiqarning ostidan bulutlar paydo bo`lib osmonga uchirib keta boshlashdi. Ayiqlar u yerda qulupnay topib olib, qulupnay yeya boshlashdi. Qulupnaylar kompyuter o`ynab o`tirishgandi. Kompyuter ichida bo`lsa katta nonni rasmi bor edi. Birdan o`sha nonlarni maktablarga tarqata boshlashdi. Maktablar televizorda ko`rsatila boshlandi. Televizorni ko`rganlar, televizorga piyozlar ota boshlashdi. Piyoz televizorga tegishi bilan ichidan o`rdaklar otilib chiqa boshlashdi.

Ma`lumotlarni ulashni o`rgandik. Endi mustaqil ravishda o`zingiz shug`ullanib ko`rishingiz lozim. Demak, yana amaliyot. Men sizga yana 20ta so`z beraman. Siz shoshilmasdan ularni ulab ko`rasiz.

1. **Telefon;**
2. **Qovun;**
3. **Uy;**
4. **Quyvon;**
5. **Olma;**
6. **Mars sayyorasi;**
7. **Tog`;**
8. **Robot;**
9. **Ko`zoynak;**
10. **Uzum;**
11. **Oyna;**
12. **Kondisioner;**
13. **Bo`ri;**
14. **Yo`lbars;**
15. **Tuxum;**
16. **Yer;**
17. **Dala;**
18. **Poyezd;**
19. **Qalam;**
20. **Limon.**

Muhim qoidalar:

1. Obrazlaringizni iloji boricha jonlantiring va katta hajmlarda tasavvur qiling;
2. Obrazlar harakatga kelsin;
3. Assosiatsiyalar fantastik va kulguli bo`lsin.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. **Telefon;**
2. **Qovun;**
3. **Uy;**
4. **Quyón;**
5. **Olma;**
6. **Mars sayyorasi;**
7. **Tog`;**
8. **Robot;**
9. **Ko`zoynak;**
10. **Uzum;**
11. **Oyna;**
12. **Kondisioner;**
13. **Bo`ri;**
14. **Yo`lbars;**
15. **Tuxum;**
16. **Yer;**
17. **Dala;**
18. **Poyezd;**
19. **Qalam;**
20. **Limon.**
21. **Banan;**
22. **Ruchka;**
23. **O`rmon;**
24. **Muzlatgich;**
25. **Gilam;**
26. **Oshpaz;**
27. **Osmon;**
28. **Yog`;**
29. **Mashina;**
30. **Stadion;**
31. **Bodring;**
32. **Ayiq;**
33. **Bulut;**
34. **Qulupnay;**
35. **Kompyuter;**
36. **Non;**
37. **Maktab;**

1. Telefon;
2. Qovun;
3. Uy;
4. Quyón;
5. Olma;
6. Mars sayyorasi;
7. Tog`;
8. Robot;
9. Ko`zoynak;
10. Uzum;
11. Oyna;
12. Kondisioner;
13. Bo`ri;
14. Yo`lbars;
15. Tuxum;
16. Yer;
17. Dala;
18. Poyezd;
19. Qalam;
20. Limon.

- 38. **Televizor;**
- 39. **Piyoz;**
- 40. **O`rdak.**

30ta so`z:

- 1. O`rik;
- 2. Sandiq;
- 3. Kosmonavt;
- 4. Tog`;
- 5. Poyezd;
- 6. Sigir;
- 7. Kalamush;
- 8. Ko`zoynak;
- 9. Qulupnay;
- 10. Televizor;
- 11. Raqamlar;
- 12. Shaftoli;
- 13. Rasm;
- 14. Baraban;
- 15. Stul;
- 16. Mars;
- 17. Xurmo;
- 18. Bozor;
- 19. Gullar;
- 20. Matematika;
- 21. Qatiq;
- 22. Yilpig`ich;
- 23. Ko`ylak;
- 24. Yulduzlar;
- 25. Samolyot;
- 26. Director;
- 27. Kasalxona;
- 28. Piyola;
- 29. Limon;
- 30. Musiqa.

40ta so`z:

1. Muzlatgich;
2. Mushuk;
3. Shox;
4. Kolbasa;
5. Nemis;
6. Qasr;
7. Tez yordam;
8. Otlar;
9. Televizor;
10. Soqol;
11. Tilla tish;
12. Telefon trubkasi;
13. Diplomat;
14. O`g`ri;
15. Mo`ylab;
16. Aktrisa;
17. Mashina;
18. Chamadon;
19. Daryo;
20. Vaqt mashinasi;
21. Jinnixonona;
22. Militsiya;
23. Eshik;
24. Ananas;
25. Multfilm;
26. Lift;
27. Qovurilgan baliq;
28. Cherkov;
29. Askarlar;
30. Kamalak;
31. Nayzalar;
32. Stakan;
33. Gilam;
34. Taxt;
35. Shahar;
36. Bo`ri;
37. Magazin;
38. Taqinchoqlar;
39. Tish doktori;

18.	Televizor
19.	Piyoz
20.	O`rta
21.	O`rta
22.	2. Zambur
23.	1. Karamuz
24.	4. Yag`
25.	2. Yag`
26.	4. Yag`
27.	1. Karamuz
28.	8. Karamuz
29.	3. Qalqin
30.	10. Televizor
31.	11. Karamuz
32.	12. Zambur
33.	13. Karamuz
34.	14. Mashina
35.	15. Suv
36.	16. Muz
37.	17. Xim
38.	18. Baxor
39.	19. Gulzar
20.	Musiqalik
21.	Qalqin
22.	Yilg`il
23.	Ko`yjak
24.	Yulduz
25.	Karamuz
26.	Dektor
27.	Karamuz
28.	Televizor
29.	1. Yag`
30.	Muz

40. Kreslo.

50ta so`z:

1. Gips;
2. Kema;
3. Shlyapa;
4. Pistolet;
5. Pul;
6. Palto;
7. Bolg`a;
8. Qo`l;
9. Olma;
10. Restoran;
11. Osmon;
12. Qushlar;
13. Fil;
14. Sahro;
15. Cho`chqa;
16. Sharbat;
17. Banan;
18. Dollar;
19. Yo`lbars;
20. Hakker;
21. Kitob;
22. O`qituvchi;
23. Temir;
24. Palov;
25. Bedana;
26. Choyxona;
27. Texnologiya;
28. Kutubxona;
29. Orol;
30. Kosmos;
31. Miya;
32. Non;
33. Kalamush;
34. Pishloq;
35. Fotoapparat;

41. Gips	38
42. Kema	39
43. Shlyapa	40
44. Pistolet	41
45. Pul	42
46. Palto	43
47. Bolg`a	44
48. Qo`l	45
49. Olma	46
50. Restoran	47
51. Osmon	48
52. Qushlar	49
53. Fil	50
54. Sahro	51
55. Cho`chqa	52
56. Sharbat	53
57. Banan	54
58. Dollar	55
59. Yo`lbars	56
60. Hakker	57
61. Kitob	58
62. O`qituvchi	59
63. Temir	60
64. Palov	61
65. Bedana	62
66. Choyxona	63
67. Texnologiya	64
68. Kutubxona	65
69. Orol	66
70. Kosmos	67
71. Miya	68
72. Non	69
73. Kalamush	70
74. Pishloq	71
75. Fotoapparat	72

36. Ko`prik;
37. Til;
38. Qizlar;
39. Kabutar;
40. Gitara;
41. Universitet;
42. Pomidor;
43. Jarlik;
44. Eshak;
45. Devor;
46. Soch;
47. Qabr;
48. Yurak;
49. Dev;
50. Skripka.

40	Kabutar
41	Universitet
42	Pomidor
43	Jarlik
44	Eshak
45	Devor
46	Soch
47	Qabr
48	Yurak
49	Dev
50	Skripka

Chet tilidagi soʻzlarni yodlash texnikasi

Aktiv va passiv lugʻat

Biz koʻpincha soʻzlarni qanday qilib yodlaymiz? Oʻta pala-partish, asosan matnli xotira yordamida yodlaysiz, shunday emasmi? Bu juda katta muammo. Biz endi obrazli xotira yordamida yodlaymiz. Avvalambor, lugʻat haqida tushuncha paydo qilishimiz kerak.

Meta-taʼlimda potentsial degan narsa bor. Biz bu soʻzni juda koʻp ishlatamiz.

Soʻzni ilk bor yodlaganingizda, potentsialning eng pastki nuqtasida boʻlasiz. Potensial:

- 1) Koʻrganman;
- 2) Tushunaman, lekin tarjima qilolmayman;
- 3) Bilaman;
- 4) Tarjima qila olaman;
- 5) Ishlata olaman.


Potensialning 5chi pozitsiyasi – eng kuchlisi hisoblanadi. Birinchi toʻrttasi – passiv lugʻat, uni oʻqiysiz, tarjima qilasiz, lekin ishlata olmaysiz. Beshinchi nuqta – aktiv lugʻat hisoblanadi. Biz asosan aktiv lugʻat uchun ishlaymiz.

500ta soʻz

1000ta soʻz

1500ta soʻz


3000ta soʻz



Pirammidaning eng cho`qqisi – aktiv lug`at hisoblanadi. Biz faqat aktiv lug`at bilan ishlaymiz. Potensial tushunarli bo`lsa, lug`at bilan ishlash jarayoniga o`tamiz.

Lug`at yodlash jarayoni

Lug`at jarayoni uch qismdan iborat:



So`zlarni tanlab olish juda oson. Amaliyotdagi suhbatlarda tanlab olish – juda qiyin, vaqtni ko`p oladi. Mental cards uslubi bor, lekin u ham juda qiyin. Eng zo`ri – bu matn bilan ishlash. Hamma o`z sohasi bo`yicha kitob tanlaydi, o`sha kitobni qo`liga oladi. Matnni o`qimaydiyu, faqat ko`rib chiqadi, bilmaydigan so`zlari bo`lsa, ularni o`chiradi, shundoq o`chirib chiqadi. Avvalo, sizlar bilan ro`yxat yordamida boshlang`ich so`zlarni yodlaymiz. Lug`atni kengaytirish bo`lsa, matnlar bilan davom etadi. Matnlardan oldin, men sizga maxsus patternlarni beraman. Sizlar o`sha patternlardan so`zlarni tanlab olasiz.

Esda qoldirish stadiyasiga o`tamiz – bu juda qiyin jarayon. Ammo yengillashtirishga muvaffaq bo`ldik.

Chet tilidagi soʻzlarni yodlash texnikasi bir necha qadamdan iborat, agar siz ushbu texnikani toʻliq egallasangiz, sizda hech qachon chet tilidagi soʻzlarni yodlash bilan muammo boʻlmaydi. Agar ushbu texnikani koʻnikmaga aylantirib oladigan boʻlsangiz, soatiga 150 – 320ta soʻz yodlab olish imkoniyatiga ega boʻlasiz.

Demak, soʻzlarni eslab qolish bilan shugʻullanamiz.

Ushbu texnika bir necha qadamlardan iborat:

- 1) Avvalo, biz chet tilidagi soʻzni oʻzbek tilidagi biron soʻzga oʻxshatib olishimiz lozim. Misol uchun, Cat (ket) soʻzi, bu Ingliz tilidan tarjimada mushuk degani. Endi “ket” soʻzi qaysi oʻzbekcha soʻzga oʻxshaydi, misol “kit” soʻziga oʻxshatishimiz mumkin. Bu nima uchun kerak? Bizning miyamiz shunday tuzilganki, biron yangi maʼlumotni eslab qolish uchun, avvalo u eski maʼlumot bilan birikishi lozim. Agar sizda u haqidagi eski maʼlumot mavjud boʻlmasa, miyamiz buni tushunmaydi. Misol uchun, limon soʻzini aytsam, siz tasavvur qila olasiz, shunday emasmi? Sababi, siz limonni koʻrgansiz, hatto-ki yeb koʻrgansiz, u haqida miyada maʼlum bir maʼlumotlar qolib ketgan. Ana endi Bengal yongʻogʻi desamchi? Sizda biron fantaziya paydo boʻldimi? Siz oddiy yongʻoqni tasavvur qilasiz yoki umuman tasavvur paydo boʻlmaydi. Sabab? Chunki, siz oldin bu soʻzga duch kelmagansiz, sizda eski maʼlumot yoʻq, shu sabab yangi maʼlumot qoʻshila olmadi. Chet tilidagi soʻzlar bilan ham xuddi shu holat. Yaʼni chet tilidagi soʻzlar bizning miyamiz uchun yangilik va uni eslab qolishi uchun u eski maʼlumotga tayanishi kerak. Yaxshilab eʼtibor bersangiz, standard uslubda yodlagan vaqtingizda, faqatgina oldin eshitgan, biron filmda koʻrib qolgan yoki koʻp takrorlangan soʻzlaringiz yodingizda qoladi. Shunday ekan, bu miyamizning tabiiy jarayoni hisoblanadi. Biz esa bunga yordam berib yuboramiz. Demak, bizdagi eski maʼlumot – bu biz biladigan oʻzbek yoki boshqa tildagi soʻz hisoblanadi, shu bois biz chet tilidagi soʻzni oʻzimiz bilgan biron soʻzga oʻxshatib olamiz. Buni biz assosiasiya deb ataymiz;
- 2) Tayyor boʻlgan assosiasiyani tarjima bilan birlashtiramiz. Misol uchun, Catni “kit”ga oʻxshatgandik. Endi tarjima yaʼni mushukni olamiz, mushuk kitga minib olgan va birgalikda okeanlarni suzib yurishganini tasavvur qilasiz;
- 3) Assosiasiya tayyor boʻlgan boʻlsa, 3 marta inglizchadan oʻzbekchaga, 3 marta oʻzbekchadan inglizchaga tarjima qilib qaytarasiz;

4) Yana bir muhim qoida, bittada beshtadan ortiq so`z yodlamang. Ya`ni 10 – 20talab so`z yodlamang. Bizning miyamiz bittada 5tdan ortiq ma`lumotni ushlab tura olmaydi. Avval, beshta so`zni assosiasiya qilib olamiz, so`ng ularni 3 martadan tarjima qilamiz, so`ng keyingi beshta so`zga o`tamiz, ana shunda zo`riqish ham, charchash ham bo`lmaydi;

5) **96 soat qoidasi.** Har bir yodlagan so`zingizni 4 kundan so`ng bir marta qaytarib chiqing. Bu nega kerak? Bizning miyamiz yangi olingan ma`lumotni 4 kun davomida o`zida ushlab turadi, agar u qayta ishlatilmasa, uni chetga chiqarib yuboradi. Shu bois, 4chi kuni so`zlarni bir marta qaytarib chiqing, ana shunda so`zlar bir umrga yordingizda qoladi. Misol, bugun 200ta so`z yodladingiz va bugun dushanba, payshanba kuni shu 200tani qaytarib chiqasiz;

6) **Shahar metodi.** O`zingiz yaxshi bilgan bitta shaharni tanlab olasiz. U shaharni butunlay bo`shatib tashlaysiz, ya`ni odamlarni shahardan olib tashlaysiz, albatta tasavvuringizda! So`ng, har bir yasagan assosiasiyangizni shahar bo`ylab joylashtirib chiqasiz. Misol uchun, kitda suzib ketayotgan mushukni oshxonangizga qo`yib qo`yasiz. Avvalo o`z uyingizdan boshlang, so`ng sekin boshqa joylarga qo`yib chiqishni boshlang. Bu nega kerak? Bu uslub yordamida, siz yasagan assosiasiyalar havoda uchib yurmaydi, ularning aniq bir makoni bo`ladi, makon bo`lgach, siz hatto-ki turgan joyigacha aytib bera olishingiz mumkin.

Keling, birgalikda 100ta so`zni yodlab ko`ramiz.

1. Read (rid) – o`qimoq: (Rim) Tasavvur qiling Rim shahrida hamma kitob o`qiyapti, atrof to`la kitoblar va hamma faqat kitob o`qiyapti;

2. Holiday (holidey) – ta`til, bayram: (Holida) Tasavvur qiling, Holida ismli do`stingiz yo tanishingiz ta`tilga ketib yubordi, sizens ketdi-ya!!!! Yoki bayram uyushtirilyapti va u bayramda hammayog`I hol bosgan odamlar ishtirok etyapti;

3. Wash (uosh) – yuvmoq: (Yuvosh) Yuvosh odamni urib-urib, unga kir yuvdirishyapti;

4. Food (fud) – ovqat: (Sut) Qorningiz och, stol usti bo`lsa faqat sutga to`la yoki sud bo`lyapti, hamma sudda ovqatlanib o`tiribdi, hatto sudya ham;

5. Debt (debt) – qarz: (Tep, tep) Qarzdor qarzlarga botgan bitta odamni rosa tepishyapti. U ham bo`sh kelmay: “Tep, tep” deb baqiryapti;

Mana endi, uch marta inglizchadan o`zbekchaga tarjima qilamiz, albatta o`zbekchasini yopib olib, keyin uch marta o`zbekchadan inglizchaga, bo`ldi, ana shunda so`zlar 100% esda qoladi.

6. Fire (fayr) – o`t, olov: (Sayr) Bir to`da olomon qo`lida o`t bilan sayrga chiqishgan, baqir-chaqir qilishyapti;

7. Flame (fleym) – uchqun: (Flomaster) Flomasterni atrofidan uchqunni charchrab turgan holatda tasavvur qiling;

8. Fruit (frut) – meva: (Shrup) Juda ko`p mevalar, bittasini olib yesangiz, ichi to`la shrup ekan;

9. Condition (kandishin) – shart: (Qon idishi) Qaroqchilar shart qo`yishyapti, rozi bo`lmaganlarga qon idishini ko`rsatishyapti;

10. Fight (fayt) – urush: (Sayt) Urush bo`lyapti, bitta odam saytda o`tiribdi;

Yana qaytaramiz, qaytarib bo`lgach, navbatdagi porsiyalarga o`tamiz.

11. Bit (bit) – qism: (Bit) Mashinangizni qismlarida bitlar yuribdi;

12. Color (kale) – rang: (Kola) Kola idishiga rang qo`shishyapti, endi kola pushti rangda ham bor;

13. Air (eyr) – havo: (Aeroport) Aeroportni tasavvur qiling, umuman havo qolmaganidan samolyotlar qulayapti;

14. Art (art) – san`at: (Mard) Mard odamlar o`z san`atini ko`rsatyapti;

15. Chalk (chok) – bo`r: (Nok) Bo`r, ya`ni mel nok yeb o`tiribdi;

Dam olamiz, nafasni rostlaymiz, qaytaramiz, aytganimizdek 5-ta unaqasiga, 5-ta bunaqasiga, so`ng yana davom etamiz.

- ✓ 16. Doubt (dabt) – shubha: (Kaft) Osmondan qulagan inson kaftiga qarab tirikligiga shubhalanyapti, chunki kafti yedirilib ketibdi;
- 17. Glass (glass) – oyna, stakan: (Gilos) Uyingiz oynadan va hammayoqni giloslarga to`la stakanlar bosib yotibdi;
- 18. Ice (ays) – muz: (Aysberg) Muz ustida mayzlar to`kilib yotibdi, ayniqsa aysberg ustida;
- 19. Hole (houl) – teshik: (Xona) Katta xona, lekin eshigi yo`q, teshigi bor;
- 20. Horse (hors) – ot: (nos) Oppoq otlar nos chekib o`tirishibdi.

Qaytaramiz!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

- 21. Lift (lift) – ko`tarilish: (lift) Bu oson. Liftda ko`tarilayotganingizni tasavvur qiling;
- 22. Law (lou) – qonun: (olov) Butun qonun lovingizga olovli harflar bilan yozib qo`yilgan;
- 23. Knee (ni) – tizza: (xina) Tasavvur qiling, tizzangizga xina surtyapsiz;
- 24. Memory (memori) – xotira: (bemor) Xotirasini yo`qotgan, hatto o`zini ham tanimayotgan bemorlarni tasavvur qilib oling;
- 25. Move (muv) – qimirlamoq: (muz) Muz ustida qotib qolgansiz, arang-arang qimirlayapsiz;

Qaytaramiz, azizlar, qaytaramiz. Tekshiramiz!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

- 26. Nut (nat) – yong`oq: (notarius) Notariusda yong`oq sotishyapti;
- 27. Poison (poizon) – zahar: (poliz) Katta polizda faqat zaharli o`tlar o`syapti;
- 28. Sun (san) – quyosh: (saroy) Quyosh chiqyapti, saroylar erib ketyapti, chunki ular muzdan yasalgandi-da!

29. Ring (ring) – qo`ng`iroq, uzuk: (ring) Ringda boksyorlar boksga tushishyapti, shunda birdan qo`ng`iroq jiringladi va to`y boshlandi, boksyorlar bir-birlariga uzuk taqishyapti;

30. Rat (ret) – kalamush: (rediska) Rediskalarni kalamushlar bitta ham qoldirmay urib ketishgan.

Tekshiramiz, beshta inglizcha, beshta o`zbekcha, yaxshi-yaxshi, juda yaxshi, charchagan bo`lsangiz, biroz dam oling. So`ng yana davom ettiramiz.

31. Digestion (dijesshin) – hazm qilish: (dijey) Dijey oshqozoningizda musiqa qo`yish bilan shug`ullanyapti, siz ovqat yeyapsiz, u musiqaga aylantirib, hazm qildirib yuboryapti;

32. Discovery (diskaveri) – kashfiyot: (disko, vertolyot) Diskoga tushib turgan vertolyotlarni tasavvur qiling, barchalari yig`ilib olib, qandaydir kashfiyot ustida ishlashmoqda;

33. Error (eror) – xato: (eri robot) Tasavvur qiling, qo`shningizning eri robotga aylanib qolgan va juda xato ishlayapti;

34. Feel (fil) – his qilmoq: (fil) Katta filni yig`lab o`tirganini yoki Titanikni ko`rib, yig`lab o`tirganini tasavvur qiling. Kino unga ta`sir qilibdi, barchasini his qilib o`tiribdi;

35. Cry (kray) – yig`lamoq: (kiray) Yosh bolacha xonaga kiray, deb yig`layapti;

Qaytaramiz, qaytaramiz, tekshiramiz. Belgilangan tartibda takrorlashni unutmang!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

36. Pocket (poket) – cho`ntak: (poq etib) Birdan cho`ntagingiz poq etib yorilib ketganini tasavvur qiling;

37. Pump (pamp) – nasos: (puma) Yovvoyi puma velosipedini balonini nasos bilan shishirayotganini tasavvur qiling;

38. Prison (prizn) – qamoqxonona: (priz) Qamoqxonada barchaga priz berishayotganini tasavvur qiling;

39. Ticket (tiket) – chipta: (tiq etib) Tushingizda sekin eshikni ochyapsizda, birdan eshikdan tiq etib chiptalar uchib kirib kelyapti;

40. Thumb (samb) – bosh barmoq: (sambo) Bosh barmoqchalar samboga tushayotganlarini tasavvur qiling;

Qaytarishga hojat yo`q, nima qilishni juda yaxshi bilasiz!!!!!!!!!!!!!!

41. Toe (teu) – oyoq tirmog`i: (tuz) Tasavvur qiling, oyog`ingiz tirmoqlari tuzga botib qolgan;

42. Stocking (stoking) – paypoq: (sto king) Sto – bu ruscha yuz, king – bu inglizchasiga qirol, degani. Yuzta qirol bitta paypoq uchun urushayotganini tasavvur qiling;

43. Rod (rod) – shox (daraxt), qarmoq: (rot) Rot – bu ruscha og`iz. Daraxt og`zini katta qilib ochyapti, og`zida baliqlar suzib yurishibdi. Kimdir u yerga qarmoq tashlab, baliqlarni tutyapti;

44. Pot (pot) – tuvak: (pot) Pot – bu ruschasiga ter, degani. Tasavvur qiling, hojatxonada tuvak nimadir qilolmayotganidan terlab ketaypti. Chiranyapti, ammo terdan boshqa hech narsa chiqmaypti;

45. Power (pauer) – kuch: (pauk) Pauk so`zi o`rgimchakligini bilasiz. Mushagingizni ko`rsatyapsiz, u yerda o`rgimchakning tattusi bor;

O`sha!!!!!!

46. Sheep (ship) – qo`y: (ship) Qo`y podangizni ship etib, kimdir birdaniga yo`q qilib ketdi, daxshat;

47. Pig (pig) – cho`chqa: (pingvin) Pingvinsimon cho`chqalarni tasavvur qiling;

48. Worm (uorm) – qurt: (vor) Vor – bu o`g`ri. Qurtlaringizga o`g`ri tushdi. Chunki ular juda qimmat-da! Fuuuu!!!!!!

49. Window (uindou) – oyna, deraza: (windows) Oynangizga qarayapsiz, birdan kompyuterga o`xshab, windows yozuvi chiqib kelyapti;

50. Wing (uing) – qanot: (Vinni) Vinni-Pux o`ziga qanot yasab olib, Marsga uchishni rejalashtiryapti;

Xullas, yana o`sha!!!!!!!!!!!!!!!

51. Whip (uip) – tasma: (VIP) Tasma taqib kirgan kompyuterxonada o`tirish VIP ekanini tasavvur qiling;

52. Wheel (uil) – g`ildirak: (Villa) Villada g`ildira ustida uxlab yotibsiz;

53. Tooth (tus) – tish: (tuz) Tishingiz og`riyapti, bir stakan tuzni olib og`izga solyapsiz;

54. Tree (tri) – daraxt: (tirik) Daraxt qulab tushgan, daraxtni tomirini ushlab, pulsini tekshirishyapti, vrach “tirik” deb baqiryapti;

55. Tongue (tang) – til: (tank) Tilingiz ustida tank yuribdi;

Tanaffus e`lon qiling. So`ng qaytaring hamda ishga kirishing.

56. Town (taun) – shahar: (sovun) Katta shahar sovundan qurilgan, hammayoq sovun bosib yotibdi;

57. Train (treyn) – poyezd: (tre, eyon...) Otangiz poyezd oldiga kelib “Tre, eyon...” deb baqirgandi, poyezd birdan yurib ketdi;

58. Wire (uayr) – provod, telegraf: (xayr) Telegrafga kirganlarga xayr eshiklari ochiladi, deb provodlarga yozib qo`yishibdi;

59. Profit (profit) – foyda: (professional) Professionallar foyda olishni bilishadi;

60. Produce (prodyus) – ishlab chiqarmoq: (prodyusser) Prodyusserlar endi faqat o`zlari narsa ishlab chiqarishyapti, hech kim ularda ishlamayapti;

Qaytaramiz, tekshiramiz va h.k.

61. Pleasure (pleje) – rohat: (plyaj) Plyajda rohatlanib yotibsiz, qanchalar maza!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

62. Paper (peype) – qog`oz: (paypoq) Qog`oz paypoqlaringiz borligini tasavvur qiling;

63. Orange (orenj) – apelsin: (orex) Rus sotuvchisi “orex, orex” deb sizga apelsin sotyapti;

64. Motion (moshn) – harakat: (moshina) Moshinangiz harakatlanmayapti, endi o`zingiz harakat qilasz:

65. Mountain (maunteyn) – tog`: (maymun, teyini) Tog`ga chiqib, maymun qizini sevib qoldingiz, uyingizdagilar uni teyini surishtirishyapti;

Tekshiramiz, uchta-uchta uslubi orqali!!!

66. Market (market) – bozor: (markaz) Bozor markazida yelkangizda ketmon bilan yuripsiz, tfu-tfu-tfu, ko`z tegmasin, ilohim ☺

67. Mist (mist) – tuman: (most) Atrof tuman, siz mostdan o`tyapsiz, qo`rqinchli, shunday emasmi???

68. Neck (nek) – bo`yin: (neksiya) Bo`yningizda neksiya yuribdi;

69. Mark (mark) – belgi, belgilamoq: (park) Parkda hammani peshonasiga belgi qo`yib yuribsiz, xuddi hindlardek;

70. Milk (milk) – sut: (mulk) Xotiningiz bilan mulk talashyapsiz, o`sha mulk – yangi sog`ilgan sut, ahmoqlik to`g`rimi?

Teeeeeeekshiraaaaaaamiiiiiiiiiiiizzzzzzzz!

71. Mine (mayn) – manba, kon: (may) Konda maza qilib, may ichib yotibsiz;

72. Money (mani) – pul: (manti) Mantiga pul sotib olib yeyapsiz, iye adashib ketdim, pulga manti sotib olib yeyapsiz;

73. Head (hed) – bosh: (hid) Boshingizdan g`alati hidlar kelyapti;

74. Hammer (hemme) – bolg`a: (hammer) Hammer markali mashinani bolg`a bilan urib sindiryapsiz;

75. Hole (houl) – teshik: (xola) Yerdan teshik ochib, xolangizni tiqib qo`yyapsiz;

U tomon, bu tomon uslubi bilan tekshiramiz ☺

76. Fold (fold) – qayrilish: (ford) Ford mashinalari qayrilib, zavoddan chiqyapti;

77. Freeze (friz) – muzlatmoq: (grizli) Grizli ayig`ini muzlatgichga tiqib, muzlatyapsiz. Keyin u oqayiqqa aylanadi;

78. Kneel (nil) – cho`tkalab o`tirmoq: (Nil) Nil daryosi oldida tizzalab o`tirib, unga ta`zim qilyapsiz;

79. Rise (rayz) – ko`tarilmoq, o`smoq: (rays) Sizni rais ko`taryapti, o`ng qo`li bilan, h-mmm, hazil;

80. Keep (kip) – asramoq, saqlamoq, himoya qilmoq: (Kiprik) Kiprigingizda boyliklar bor, barcha sizga hujum qilyapti, siz kipriklaringizni himoya qilyapsiz;

Tekshiramiz!!!! Soddagina...

81. Take (teyk) – olmoq: (tiko) Tikoda ketayotib, qo`lingizni goh-gohida ruldand olib turibsiz;

82. Leave (liv) – tark etmoq: (lift) Liftga qamalib qoldingiz va uni tark etolmayapsiz;

83. Fall (fol) – qulamoq, yiqilmoq: (xol) Xolli-xolli odamlar ustingizga yiqilyapti;
84. Drive (drayv) – haydamoq: (drandulet) Drandulet mashinalarni haydab yurganingizni tasavvur qiling;
85. Cut (kat) – qirqmoq, kesmoq: (pat) Qushlarni patini qirqib, kesib yuripsiz. Qanchalara vahshiysiz!!!!
Tekshiramiz, azizlar, tekshiramiz!!!!
86. Choose (chuz) – tanlamoq: (cho`zib-cho`zib) Siz qo`ylarni badanidan cho`zib-cho`zib tanlayapsiz;
87. Do (du) – qilmoq: (do`st) Do`stingiz bilan ish qilyapsiz;
88. Creep (krip) – o`rmalab yurmoq: (grip) Grip kasaliga uchrab, yerda o`rmalab yuribsiz;
89. Hit (hit) – urmoq, zarba bermoq: (hit) Hit bo`lgan ashullalar miyangizni urib pachog`ini chiqaradi;
90. Make (meyk) – qilmoq, ishlab chiqarmoq, tikmoq: (Mayk) Mayk Tayson bilan ish qilyapsiz, mahsulot ishlab chiqaryapsiz, narsa tikib o`tiribsiz;
Tekshiramiz, qaytaramiz!!!!!!!!!!!!!!!
91. Set (set) – o`rnatmoq: (setka) Setkangizga antenna o`rnatyapsiz;
92. Shrink (shrink) – qisqarmoq: (Sherlok) Shirinliklaringiz kundankunga qisqarib, kamayib ketyapti, demak kimdir yeb qo`yyapti, tezda Sherlok Xolmsni chaqirish kerak;
93. Lose (luz) – yo`qotmoq: (Luna) Luna – oy. Oyni o`g`irlab, cho`ntagingizga solib olgansiz, keyin uni yo`qotib qo`ydingiz;
94. Lie (lay) – yotmoq, yolg`on gapirmoq: (Nay) Siz yotgan holatda kimnidir qulog`iga lapsha ilib, nay chalib yotibsiz;

95. Run (ran) – yugurmoq: (kana) Badaningizni kanalar bosgan, siz esa mingga qo`yib yuguryapsiz suvga qarab, albatta;

Tekshiramiz....

96. Receive (risiv) – olmoq: (retsept) Doktordan retsept olyapsiz;

97. Write (rayt) – yozmoq: (rais) Rais yozib o`tiribdi, birdan keyin uxlab qoldi, chunki nayt tushib qolgandi, ya`nit un;

98. Sweep (svip) – supurmoq: (shimib) Qurut shimib, supurayotganingizni tasavvur qiling;

99. Tell (tell) – aytib bermoq: (mel) Qo`lingizga melni olib, do`stlaringizga barchasini aytib beryapsiz, tol tagida bo`lgan ishlarni ham, kelmagan do`stlaringizga telefon qilib aytyapsiz;

100. Swim (svim) – suzmoq: (chivin) Basseynda suzyapsiz, chivinlar sizdan o`zib ketyapti, axir bu haqorat!!!!!!!!!!!!!!

Tornado uslubi

Sizlarga meta-ta`limning ajoyib va o`ta kuchli uslublaridan birini bugun e`tiboringizga taqdim etaman. Bu uslubni sizlarga bonus sifatida taqdim etyapman, u orqali istagan narsangizni 100% o`rganib olishingiz mumkin.

500ta so`z yodladingiz deylik. Endi ularni tekshirib chiqish kerak. Siz inglizcha qismini berkitib olasiz va o`zbekchadan tarjima qilishga kirishasiz. To`g`ri chiqsa, navbatdasisiga o`tasiz, noto`g`ri chiqsa, so`z oldiga nuqta qo`yib qo`yasiz. So`ng navbatdasisiga o`tib ketaverasiz. Barchasi bilan ishlab bo`lgach. Endi faqat nuqtalilarni o`zi bilan ishlab chiqasiz. Agar to`g`ri chiqsa, keyingisiga o`tiladi, yana xato chiqsa, ikkinchi nuqtani qo`yiladi. Shu yo`sinda, toki xato qolmaguncha ishlaysiz.

Xuddi shu tartibda so`ng inglizchadan o`zbekchaga tarjima qilasiz.

15 daqiqada 80.000ta soʻz – bir umrga yetadi

Qanaqasiga? Ishonmayman, 15 daqiqadaya???? Bu fantastika, deng. Siz ishonasizmi yo`qmi, bu bilan bizning ishimiz yo`q. Muhimi, biz buni uddalay olamiz hamda isbotlab bera olamiz. Agar biladigan boʻlsak, ishonishga na hojat? Axir ishonch bor joyda, albatta shubha ham boʻladiku!

Shunday qilib, boshlaymiz!!

1 daqiqada – 50 mingtasoz

Bu uslub poliglolar ichida juda keng tarqalgan. Buni eshitgan boʻlishingiz kerak.

Tilimizda chetdan kirib kelgan soʻzlar shu darajada koʻpki, hatto ular oʻzimiznikidek boʻlib qoldi. Shu kabi soʻz turkumlaridan baʼzilari – bu *-tsiya* va *-siya*ga tugaydigan soʻzlar.

- | | |
|-----------------|------------------------|
| - <i>Tsiya</i> | - <i>-tion</i> [ʃn] |
| - <i>Siya</i> | - <i>-sion</i> [ʃn] |
| - <i>Atsiya</i> | - <i>-ation</i> [eiʃn] |

Misollar:

Ambition – ambitsiya, portion – portsiya, coalition – koalitsiya, concentration – konsentratsiya, delegation – delegatsiya, illustration – illyustratsiya, intonation – intonatsiya, conservation – konservatsiya, convention – konventsiya, sanction – sanksiya, coronation – koronatsiya, dissertation – dissertatsiya, innovation – innovatsiya, pension – pensiya, profession – professiya (kasb), intuition – intuitsiya, radiation – radiatsiya, sensation – sensatsiya, vaccination – vaktsinatsiya, mission – missiya, session – sessiya, motivation – motivatsiya, stagnation – stagnatsiya, transplantation – transplantatsiya, reputation – reputatsiyavah.k.

Istisnolar: Istisnolaratiga 35taga yaqinxolos, misoluchun: commerce – kommertsiya, correspondence – korrespondentsiya, distance – distantsiya, gravity – gravitatsiya, police – politsiyavah.k.

1 daqiqada – 10 mingtasoz

- **Giya** - gy [dzi]

Misollar:

Ecology – ekologiya, analogy – analogiya, cardiology – kardiologiya, dermatology – dermatologiya, energy – energiya, morphology – morfologiya, oncology – onkologiya, philology – filologiya, physiology – fiziologiya, strategy – strategiya, terminology – terminologiya, typology – tipologiyavah.k.

5 – 7000ta soz

Bu uslub ham juda oson. U 95% holatlardagina ishlaydi. Faqat biroz tilimizda aralashib ketgan ruscha sozlardan ham foydalanishga to'g'ri keladi.

- **a/yaga** tugaydigan sozlardan shunchaki shu harflarni o'chirib tashlab aytish kerak.

Misollar:

Problem – problema, agony – agoniya, army – armiya, assembly – assambleya, academy – akademiya, amnesty – amnestiya, artery – arteriya, atrophy – atrofiya, attack – ataka, Axiom – aksioma, ballad – ballada, banknote – banknota, battery – battareya, lottery – lottoreya, brochure – broshura, bronze – bronza, cigarette – sigareta, comedy – komediya, conservatory – konservatoriya, copy – kopiya, culinary – kulinariya, elite – elita, emblem – emblema, epilepsy – epilepsiya, epopee – epopeya, mosaic – mozaika, philosophy – filosofiya, petard – petarda, symphony – simfoniya, terrace – terrassa, vase – vazavah.k.

Istisnolar: Istisnolar intuitive tarzda sezib olinadi, misol, ruchka soʻzini ruchk demaymiz-ku, yoki boʻlmasam kolonka soʻzini kolonk demaymiz, toʻgʻrimi? Oʻzi shundoq ham seziladi. Keyin soʻz oxirida –a si qoladigan soʻzlar ham uchraydi. Misol uchun: Diaspora – diaspora, hyena – giyena va h.k.

10 – 14 mingtasoʻz

Baʼzi bir tilimizdagi soʻzlarni shunchaki inglizcha aksent bilan talaffuz qilsak, inglizcha boʻlib chiqaveradi. Bu kabisoʻzlar ham 95% holatlarda ishlaydi.

Misollar:

Global – global, massive – massiv, brutal – brutal, elegant – elegant, local – lokal, progressive – progressiv, grandiose – grandioz, absolute – absolyut, formal – formal, mental – mental, radical – radikal, crystal – Kristal, abstract – abstrakt, effective – effektiv, liberal – liberal, parallel – parallel, aggressive – aggressive vah.k.

Romantic – romantik, aristocratic – aristokratik, asymmetric – assimetrik, catastrophic – katastrofik, democratic – demokratik, egocentric – egotsentrik, epic – epik, exotic – ekzotik, fantastic – fantastik, organic – organik, patriotic – patriotik, poetic – poetik, pragmatic – pragmatik, systematic – sistematikvah.k.

Istisnolar: Bu kabi soʻzlar ham intuitive tarzda aniqlab olinadi. Misol uchun: qizil soʻzini kizil deb aytmaйсiz-ku!!!

10 mingtasoʻz

Ushbu turkum soʻzlarda –*I* harfini – *ay* qilib oʻqishga toʻgʻri keladi.

Appetite (eppitayt) – appétit, bison (bayzon) – bizon, client (klaynt) – kliyent, compromise (kompromayz) – kompromis, diagram (dayagram) – diagramma, dialogue (dayelog) – dialog, dialect (dayelekt) – dialekt, diameter (dayametr) – diametr, diaphragm (dayafragm) – diafragma, final (faynel) – final, icon (aykon) – ikona, meteorite (meteorayt) – meteorit, microscope (maykroskoup) – mikroskop, microphone (maykrofon) –

mikrofon, mile (mayl) – mil, minus (maynus) – minus, pirate (payret) – pirat, vampire (vempayr) – vampir, virus (vayrus) – virus, triumph (trayumf) – triumph, style (stayl) – stil, textile (tekstayl) – tekstil, pantomime (pantomaym) – pantamimavah.k.

2 – 3 mingtasoz

Ingliz tilida – ts tovushi yo`q, shu sabab barchasini –s qilib o`qiyimiz. Ammo bittagina istisno bor – bu “pizza” so`zi, ushbu so`z “pitsa” deb o`qiladi, chunki bu so`z italyan tilidan kirib kelgan.

Misollar: Center – tsenter, cement – tsement, citrus – tsitrus, concept – kontsept, cylinder – tsilinder, discipline – distsiplina, cistern – tsisterna, vaccine – vaktsina, accent – aktsentvah.k.

1000ta so`z

Ba`zi so`zlardagi –g harfini – h qilib o`qisak, inglizcha variantda chiqadi.

Misollar: Alcohol – alkogol, alcoholic – alkogolik, alcoholism – alkogolizm, formaldehyde – formaldegid, harmony – garmoniya, hymn – gimn, humanism – gumanizm, hospital – gospital, hypermarket – gipermarketvah.k.

1000ta so`z

Yana o`sha so`zlarga qaytamiz. Shunday so`zlar bor-ki, ularni shunchaki aksentni o`zgartirib aytsak, inglizcha bo`ladi qoladi. Bu kabi so`zlar tilimizda aylanaverib, bizga yod bo`lib ketgan.

Misollar: football – futbol, acrobat – akrobat, admiral – admiral, alibi – alibi, amphora – amfora, amulet – amulet, antiseptic – antiseptik, aphorism – aforizm, antidepressant – antidepressant, aqualung – akvalang, argument – argument, aquarium – akvarium, aristocrat – aristokrat, aspirin – aspirin, asteroid – asteroid, avenue – avenyu, avocado – avokado, balance – balans, bandit – bandit, banquette – banket, barometer – barometr, Bedouin – beduin, shaman – shaman, bracelet –

braslet, broccoli – brokkoli, calendar – kalendar, calculator – kalkulyator, caramel – karamel, catalog – katalog, censor – sensor, chauvinist – shoviniist, cliché – klishe, clip – klip, donor – donor, cocktail – koktel, detective – detektiv, extract – ekstrakt, fact – faktvah.k.

Bonus. Motivatsion dars

Ingliz tili lug'ati ko'pincha insonlarning ruhini cho'ktiradi. Nega shunday bo'lishini hech tushunmayman. Hammasi juda oddiy xuddi matematik formulalarga o'xshaydi.

Shunday qilib, sizni asabingizga tegadigan bir jihat: so'zlarning ma'nosini ko'pligi, shunday emasmi?

Sizga zo'r sovg'am bor. **INGLIZ TILIDAGI 80% SIZLAR HAM NIMA, HAM NIMA QILMOQ SAVOLLARIGA JAVOB BERADI.** Bu degani bitta so'zni ham ot, ham fe'l sifatida qabul qilsa bo'ladi.

Misol: work – ish, ishlamoq. Nima? Ish. Nima qilmoq? Ishlamoq?
Hope – umid qilmoq, umid. Nima? Umid. Nima qilmoq? Umid qilmoq.

Kiss – Nima? Bo'sa. Nima qilmoq? O'pishmoq.

Talk – Nima? Suhbat. Nima qilmoq? Suhbatlashmoq.

Milk – Nima? Sut. Nima qilmoq? Sut sog'moq.

Water – Nima? Suv. Nima qilmoq? So'g'ormoq.

Eye – Nima? Ko'z. Nima qilmoq? Ko'z tegmoq.

Help – Nima? Yordam. Nima qilmoq? Yordam bermoq.

Try – Nima? Urinish. Nima qilmoq? Urinib ko'rmoq.

Copy – Nima? Nusxa. Nima qilmoq? Ko'chirmoq.

Film – Nima? Film. Nima qilmoq? Sur'atga olmoq.

Drink – Nima? Ichimlik. Nima qilmoq? Ichmoq.

Promise – Nima? Va'da. Nima qilmoq? Va'da bermoq.

Answer – Nima? Javob. Nima qilmoq? Javob bermoq.

Love – Nima? Sevgi. Nima qilmoq? Sevmoq.

Pedal – Nima? Pedal. Nima qilmoq? Pedalni aylantirmoq va h.k.

Bu sizning ishingizni ikki barobar yengillashtiradi. Ikkita so'z yodlab o'tirmaysizda, bira to'la bitta yodlab qutilasiz. Bir o'q bilan ikki quyon. Boshqa hech qaysi bir tillarda bunday ajoyib imkoniyat yo'q, azizlar.

20% holatlarda ot va fe'l boshqa-boshqa so'zlar bo'lib chiqadi. Misol uchun: buy – xarid qilmoq, purchase – xarid, play – o'ynamoq, game – o'yin.

Ruhingiz ancha ko'tarildimi? Bu boshlanishi. Keyingisidan keyin ancha xotirjam tortib, tillarga yaxshi munosabatda bo'lishni boshlaysiz, azizlar.

Ingliz tilida bilsangiz, bitta so'zda o'rtacha to'rtta ma'no bo'ladi, to'g'rimi? Ko'pchilik bundan siqiladi, ushbu tilni haqoratlaydi, qarg'aydi. Ammo shoshilmang, axir bu ajoyib imkoniyat-ku!!! Yaxshilab o'ylab ko'ring, mehnatingiz to'rt barobar yengillashyapti. **To'rtta so'z yodlamaysizda, bittasini yod olib qutulasiz.** Xo'sh, qalay? Yoqdimi? Inson biroz o'ylab ko'rsa, zahar deb turgan narsasi ham aslida asal ekanini tushunib yetadi.

Misol keltiraman, fire – yong'in, olov, yondirmoq, ishdan haydamoq. E'tibor bering, bitta so'z va to'rtta ma'no. Date – uchrashuv, uchrashmoq, sana. Miss – o'tkazib yubormoq, sog'inmoq, xonim, transportga ulgurmayqolish. Pupil – o'quvchi, ko'zqorachig'i. Watch – ko'rmoq, kuzatmoq, soat. Volume – balandlik, tom, vazn. Still – hali hanuz, hamon, haliyam, haligacha, tinch, osuda, gazli suv. Different – har xil, turli xil, turfa xil.

Menimcha, endi Ingliz tilini xuddi yaxshi ko'rgan qizingiz (yo yigitingiz)ni sevganchalik sevib qoldingiz, shundaymi? Xuddi shunday ko'tarinki tempda ketishda davom etamiz. Olg'aaaaaaa!!!!!!!!!!!!!!

Elementar soʻzlar

Olmoshlar:

1. **I (ay) – men: (ayiq)** Tasavvur qiling, ayiq barchani oldiga chiqib olib: “Men, men, men” deb baqiryapti;
2. **You (yu) – sen, siz: (yurak)** Tasavvur qiling, yuragingiz: “Sizni sevaman” deb olamdan koʻz yummoqda, bechora!!!
3. **We (ui) – biz: (Uilyam Shekspir)** Uilyam Shekspirni tasavvur qilamiz, u hammaning oldiga chiqib: “Oʻlmoq yo tirik qolmoq, bizning masalamiz” deb oʻkiryapti;
4. **He (hi) – u: (Hid)** Tasavvur qiling, qandaydir yomon hid chiqyapti, siz doʻstlaringiz ichidasiz, bir-biringizga qarayapsizda, oldingizda turgan botanikni koʻrsatib: “U qildi” deyapsiz;
5. **She (shi) – u: (Shim)** Tasavvur qiling, bir qiz shim kiyib ketmoqda va u haqida gʻiybat qilib ketmoqdasiz;
6. **It (it) – u: (It)** Yosh bola sizdan “u nima?” deb itni koʻrsatib soʻrayapti. Siz “u it” deb tushuntiryapsiz;
7. **They (dey) – ular: (doya)** Bir toʻda doylalar turibdi, siz koʻrsatkich barmogʻingiz bilan ularni koʻrsatib: “Ular doylalar” deyapsiz;
8. **What (uot) – nima, qanday: (Uotson)** Doktor Uotson doim Sherlok Xolmsga boʻlmagʻur nima, qanday savollarini berayotganini tasavvur qiling;
9. **Who (hu) – kim: (hur)** Doʻstingiz bir hur-parini sevib qoldi, siz undan uni kimligi haqida soʻrayapsiz;
10. **Where (ueya) – qayerga, qayerda: (Uy)** Uyingizda oldida turibsizu, lekin qayerdaligini bilmayapsiz;
11. **How (hau) – qanday: (Haus)** Tasavvur qiling, Doktor Haus bilan operatsiya boʻlyapti, kimdir tinimsiz “qanday, qanday” deb savol beryapti;

12. Why (uay) – nega: (Vay-vay) Jasur Umirov o`zidan o`zi ko`chada “Vay-vay” deb qo`shiq aytib ketyapti, uni ko`rganlar bir-birlariga “nega, nega” deb hayratlanishyapti;

13. When (uen) – qachon: (Ventilyator) Ventilyator qachon so`zini eshitishi bilan to`xtab qolyapti, yana bir marta qachon so`zini eshitgach ishlab ketyapti;

14. My (may) – mening: (Maya) Maya qabilasi aholisi hamma narsani o`zlashtirib oldi, “meniki, mening” so`zini ko`p ishlatishyapti, yaxshi emas!!!!!!

15. Your (yor) – sening, sizning: (yor) Ikkita do`st bir-biri bilan yor talashyapti, “sening-sizning” deb hammayog`ni bozor qilib yuborishdi;

16. His (his) – uning: (His) Bashoratchi Vanga sizga qarab “uning his qilishi juda kuchli” deyapti, rostdan shundaymi???

17. Her (hyor) – uning: (Hayol) Yana Vangani ishga solamiz. Endi u bir qizga qarayaptida: “Uning hayollari juda qo`rqinchli” deb aytyapti;

18. Its (its) – uning: (Bits) Itlar bits naushniklar taqib musiqa eshitib yurishibdi, yosh bolalar yig`lashyapti “uning naushnigi bor, meniki yo`q” deb;

19. Our (aur) – bizning: (Aura) Psixologlar maqtanib o`tirishibdi, bizning auramiz kuchli, deb;

20. Their (deir) – ularning: (Sayr) Ota-onalar havotirlanib o`tirishibdi, ikki yoshni sayohat chiqarib yuborishgan, endi ularning sayrlari uzoqqa cho`zildi, deb o`tirishibdi;

Hayvonlar

21. Cat (ket) – mushuk: (Ketmon) Tasavvur qiling, mushuk yelkasiga ketmonni tashlab olib, dalada yuribdi;

22. Dog (dog) – it, kuchuk: (Doka) Kuchuk akkillayverganidan, og`zini doka bilan bog`lab qo`ydingiz. Qanday vahshiylik!

23. Bird (byord) – qush: (Bort) Kema bortida qushlar o`lib yotibdi, bu yomonlik alomati!

24. Squirrel (skuirel) – olmaxon: (Skver) Skverda olmaxonlar qo`l ushlab, sayr qilib yurishibdi. Bu chinakam dahshat!

25. Wolf (uolf) – bo`ri: (Golf) Bir gala bo`rilar yig`ilib olib, golf o`ynashmoqda. Tavba, barcha hayvonlar odamiylashib ketishmoqda, qanday zamonlarga qoldik!

26. Goose (gus) – g`oz: (Gus) G`oz rus tilida gus deyiladi, buni eslab qolish oson;

27. Giraffe (jiraf) – jirafa: (Jirafa) Bu yerda birgina “a” harfini olib tashlasangiz bas;

28. Rabbit (rebbit) – quyon: (Rebbit) Robot quyonlar sizni o`rab olgan, endi qochib bo`psiz☺☺☺

29. Cow (kau) – sigir: (Kal) Kal odam sigirini sochini olayotganini tasavvur qiling. Bu chinakam hasaddan nishona!

30. Rat (ret) – kalamush: (Rediska) Katta kalamush kichkina rediskani yeb, bo`kib qoldi. Hayratlanarli joyi yo`q!

31. Fox (foks) – tulki: (Fokus) Tulki sirkda turli xil fokuslar ko`rsatyapti. San`atiga qoil!

32. Horse (hors) – ot: (Mors) Issiq daladan charchab kelgan ot, muzdek mors ichib dam olib o`tiribdi;

33. Frog (frog) – qurbaqa: (Tvorog) Tasavvur qiling, tvorog yeb o`tiribsiz, shunda birdan ichidan qurbaqa otilib chiqdi;

34. Bear (biyer) – ayiq: (Bu yer) Ayiq sizga gidlik qilyapti, mehmonxonani so`rasangiz ham “bu yer”, hojatxonani so`rasangiz ham bu yer, deyapti. Keyin bilsangiz, u bu yer so`zidan boshqa so`zni bilmas ekan;

35. Mouse (maus) – sichqon: (Klaus) Santa Klaus sizga sovg`a sifatida katta sichqonni tashlab ketdi, xursand bo`ling, muhimi tashlab ketdiku, tashlab ketmasligi ham mumkin ediku!

36. Monkey (manki) – maymun: (Lanka) Tasavvur qiling, maymun lanka o`ynayapti, qolganlar tomosha qilyapti. Hayratlanarlisi, bir soatdan buyon oyog`idan tushurmayapti;

37. Pig (pig) – cho`chqa: (Pik) Cho`chqa och qolgan, chiyillashni va xurillashni pikiga chiqqan, bechora!!!

38. Elephant (elifent) – fil: (elflar) Elflar filni ustiga chiqib olib, uni qiynab minib yurishibdi;

39. **Duck (dak)** – o`rdak: **(Dak)** O`rdak so`zini inglizlar bizdan olishgan. “O`r”ni olib tashlasangiz, dak qoladi☺☺

Taom

40. **Bread (bred)** – non: **(Brend)** Nonlar hamma joyda tugadi. Endi non yopuvchilar brend darajasiga chiqdi;

41. **Butter (batte)** – sariyog` : **(Latte)** Kafe latteni ichiga sariyog` qo`shib ichishyapti, bu dahshat, ishtaham bo`g`ildi;

42. **Oil (oil)** – yog` : **(qoil)** Bir yigit butun boshli ikki litr yog`ni ichib yubordi, hamma qoil qoldi, faqat men emas. Yana ishtaham bo`g`ildi;

43. **Cheese (chiz)** – pishloq: **(Chizzz)** Bu so`zni hamma biladi, deb hisoblayman. Sur`atga tushganda hamma chizzzzzzz, deydi;

44. **Sausage (sosij)** – kolbasa: **(Sosiska)** Fikrlab ko`ring, aziz do`stim, sosiska so`zi qaysi tildan olingan?

45. **Ham (hem)** – vetchina **(cho`chqa go`shti): (ham)** Yangi pishirilgan vetchinani olib kelishdi, siz ham etib, barchasini yutib yubordingiz;

46. **Meat (mit)** – go`sht: **(Hit)** Bir parcha go`sht hit qo`shiqlar aytib mashhur bo`lib ketdi, sizni nazarda tutmadim!

47. **Beef (bif)** – mol go`shti: **(Mif)** Mol go`shti juda kir bo`lib ketgan, siz Mif poroshogini solib, yuvyapsiz. Yaxshi ideya!

48. **Lamb (lemb)** – qo`y go`shti: **(Lampa)** Uyda lampa qolmagan, o`miga qo`y go`shtini ilib chiqyapsiz;

49. **Chicken (chikin)** – jo`ja: **(Chik)** Chick nomli tabakalardan yeganmisiz, ayni shu so`zni jo`ja so`ziga ulab keting;

50. **Cutlet (katlet)** – kotlet: **(Katlet)** Bu so`zlar o`xshash;

51. **Fish (fish)** – baliq: **(Tish)** Baliqni yeb turgan vaqtida, biron kishini tishini sindirib oldi. Rosa og`rigan bo`lsa kerak;

52. **Egg (egg)** – tuxum: **(Ek)** Tasavvur qiling, dalaga chiqib olib, tuxum ekyapsiz. Umid qilyapsizki, oltin tuxum o`sib chiqadi, deb;

53. **Salad (seled)** – salat: **(Salad)** Bu o`xshash so`z;

54. Mushroom (mashrum) – qo'ziqorin: (Mashhur) Qo'ziqorin jasoratlar ko'rsatib, mashhurlikka erishdi. Endi u yulduz;

55. Corn (korn) – don: (Qorin) Tasavvur qiling, qarshingizda odam, qorni o'miga donlar o'sib chiqqan;

56. Porridge (porij) – bo'tqa: (Parij) Parij shahriga bo'tqa yoqqani haqida eshitdingizmi? Eshitmadingizmi? Unda internetdan qidirib ko'ring;

57. Soup (sup) – sho'rva: (Sup) Ruscha sup so'ziga o'xshatsak bo'ladi;

58. Sandwich (sendvich) – buterbrod: (Sendvich) Buni hamma biladi;

59. Rice (rays) – guruch: (Mayz) Sizga guruch o'rniga mayz solib berishyapti. Endi oshni ham guruchsiz, faqat mayz bilan qilasiz;

60. Noodles (nudlz) – lapsha: (Nadal) Mashhur tennis o'yinchisi Rafael Nadal lapsha yeb o'tirganini tasavvur qiling;

61. Flour (flur) – un: (Blur) Blur o'yinini un ustida o'tirib o'ynayotganingizni tasavvur qiling;

62. Spice (spays) – dorivor: (Spitsa) Velosiped spitsalarida dorivorlar ilinib turganini tasavvur qiling;

63. Pepper (peppe) – qalampir: (Pepe) Mashhur futbolchi Pepe qalampir yeb, stadiona chiqyapti;

64. Salt (solt) – tuz: (Bolt) Tuzga botirib boltlarni yeganmisiz? Yemagan bo'lsangiz, yeb ko'ring, juda mazali;

65. Onion (onion) – piyoz: (Poni) Tasavvur qiling, Poni ot hashak o'rniga piyoz yeyapti;

66. Garlic (galik) – sarimsoq: (Karlik) Karliklar ya'ni pakanalar sarimsoq yeb, qorin to'yg'azishmoqda;

67. Sauce (sos) – sous: (Sous) Bir xil so'zlar;

68. Vegetables (vejeteblz) – sabzavotlar: (Vegetarian) Vegetarianlar faqat sabzavot yeyishadi;

69. **Potatoes (poteytoz) – kartoshka: (Pot tuz)** Pot – bu ter. Kartoshkaga tuz sepyapsiz, u terlab ketyapti;

70. **Carrot (kerrot) – sabzi: (Kerri)** Jim Kerri pingvinlari bilan sabzi yeb o`tirganini tasavvur qiling;

71. **Beet (bit) – lavlagi: (Bit)** Tasavvur qiling, lavlagini archmoqdasiz va undan bitlar otilib chiqmoqda;

72. **Tomato (tumato) – pomidor: (Tomat)** Pomidordan nima tayyorlaymiz? Tomat albatta. Yoqimli ishtaha!

73. **Cucumber (kyukumbe) – bodring: (Kuku)** Bodring yeyatgan vaqtingizda birdan ichidan qush chiqib “Kuku, Kuku” deyapti;

74. **Cabbage (kebbij) – karam: (Keb)** Keb – bu inglizlarda ot arava hisoblanadi, Sindrellani eslasangiz, oshqovoq kebga aylanadi, endi karam keb aylanganini tasavvur qiling;

75. **Eggplant (igplant) – baqlajon: (Ek plantasiya)** Paxta plantasiyalarida paxta o`rniga baqlajon ekayotganingizni tasavvur qiling;

76. **Nut (nat) – yong`oq: (Nuts shokolad)** Nuts shokoladi bilan bog`lang;

77. **Fruit (frut) – meva: (Frukt)** Ruscha frukt so`zi bilan bog`lang;

78. **Apple (epl) – olma: (Apple Ayfon)** Ayfon o`rniga olmani ishlatayotganingizni tasavvur qiling;

79. **Pear (piye) – nok: (Piyola)** Piyolani ichiga nok solib qo`ygansiz, endi choyni ichiga harakat qiling;

80. **Banana (benana) – banan: (Banan)** “A”ni olib tashlang, tamom;

81. **Berry (berri) – mayda mevalar: (Barra)** Barra-barra, hil-hil pishgan mayda mevalarni yeb o`tirganingizni tasavvur qiling;

82. **Strawberry (strouberri) – qulupnay: (Stroyka)** Stroykada barra qulupnaylarni yeb quvnashyapti;

83. **Raspberry (raspberri) – malina: (Rasm)** Katta rasmda barra pishgan malina turibdi. Siz yeyishga harakat qilib ko`ring. Chiqmagan jondan umid;

84. **Cherry (cherri) – olcha: (Charos)** Charos olchaga aylanib qolganini tasavvur qiling;

- plam*
85. **Plum (plam)** – olxo`ri: (**Plomba**) Stomatologga bordingiz, u sizga plomba o`miga tishingizga olxo`ri o`rnatmoqda;
- griif*
86. **Grape (greyp)** – uzum: (**Grip**) Uzum yeganlarni barchasi grip kasaliga chalinmoqda, qandaydir virus tarqaganga o`xshaydi;
87. **Apricot (eprikot)** – o`rik: (**Apelkot**) O`rik bilan boksga tushyapsiz, u sizga apelkot udar berdi, siz nokautsiz;
- pech*
88. **Peach (pich)** – shaftoli: (**Pich**) Shaftolini terisini pichyapsiz, pichyapsiz, axiri u yo`q bo`lib qoldi;
- melon*
89. **Melon (melon)** – qovun: (**Mel**) Qovun so`ydingiz, ichidan mellar chiqyapti, endi uni yeb bo`lmaydi!
90. **Watermelon (uotemelon)** – tarvuz: (**Water mel**) Tarvuz so`ydingiz, endi mellar suv bo`lib oqib chiqyapti;
- pampka*
91. **Pumpkin (pampkin)** – oshqovoq: (**Papka**) Papka ichiga oshqovoqlarni rasmini terib chiqqansiz, endi uni boshlig`ingizga hisobot qilib bering;
92. **Orange (orinj)** – apelsin: (**Oranjeviy**) Apelsinni rangi bilan bog`lang;
93. **Mandarin (menderin)** – mandarin: (**Mandarin**) Endi shuniyam bog`lab beraymi?
94. **Lemon (lemn)** – limon: (**Limon**) Yuqoridagi gap!
95. **Pineapple (payneppl)** – ananas: (**Paynet apple**) Ananas paynetga borib, yegan olmalarini haqqini to`layapti;
96. **Sugar (shuge)** – shakar: (**Shakar**) Saxar so`ziga o`xshating, umuman olganda bu ham bir xil so`zlar;
97. **Honey (hani)** – asal: (**Han**) Faqat xon avlodidan bo`lganlarga asal bilan taomlanishadi;
98. **Jam (jem)** – murabbo: (**Jem**) Jem va murabbo bitta narsaku!
99. **Cake (keyk)** – tort: (**Qayiq**) Qayiqda so`zib ketgancha, sevgilingiz bilan tort yeyapsiz. Romantika!
- Bani*
100. **Bun (ban)** – bulochka: (**Banya**) Bulochkadan yasalgan banyani ko`rganmisiz? Unda tasavvur qiling!

101. **Cookie (kuki) – pechenye: (Ko`k)** Ko`kdan tayyorlangan pechenyelarni maza qilib paqqos tushuryapsiz;
102. **Pie (pay) – pirog: (Paynet)** Yangi pishirgan pirogingiz paynetta ishlayapti;
103. **Sweet (suit) – qand: (Duit)** Kechqurum duitni yoqib olib, og`izga qandni solib, dam olyapsiz. Yoqimli internet tilayman!
104. **Ice-cream (ays-krim) – muzqaymoq: (Lays krem)** Lays chipslari hamda kremdan tayyorlangan muzqaymoq Messi bilan penalti tepishmoqda;
105. **Chocolate (chokolit) – shokolad: (Shokolad)** O`xshash so`zlar;
106. **Water (uote) – suv: (Voda)** Ruscha voda so`zini hech inglizchasiga o`xshatganmisiz?
107. **Soda (souda) – gazli suv: (Soda)** Bijildog` suvni ichiga soda qo`shsangiz, qanday chiroyli manzara paydo bo`lishini tasavvur qiling;
108. **Juice (jus) – sharbat: (Yuz)** Yuzingizga bir chiroyli qiz sharbat sepib yubordi. Sharmandagarchilik!
109. **Wine (uayn) – vino: O`xshash so`zlar;**
110. **Tea (ti) – choy: (Til)** Yoningizdagi sherigingiz choyni itga o`xshab tili bilan ichyapti;
111. **Coffee (kofi) – qahva: O`xshash so`zlar;**
112. **Milk (milk) – sut: (Moloko)** Moloko va sut milk so`ziga o`xshaydimi?
113. **Cream (krim) – krem: O`xshash so`zlar;**
114. **Yogurt (yogut) – yogurt: O`xshash so`zlar;**
115. **Curd (kyord) – tvorog: (Qurt)** Tvorog yeyapsiz, birdan ichidan qurtlar chiqib kelmoqda.

Elementary words

116. **Hi (bay) – salom: (Hay Gitler)** Gitler bilan Hay Gitler deb salomlashishgan;

117. **Hello (hellou) – salom: (Allo)** Aslida “allo” soʻzi Hello soʻzidan kelib chiqqan, shu haqida bilasizmi?

118. **Sorry (sorri) – uzur: (Zor)** Nimagadur zorlanib qolgan odam hammadan uzur soʻrab yuripti, toʻgʻri tushunamiz;

119. **Please (pliz) – iltimos: (Puliz)** Barcha iltimos qiluvchilarni ichida birgina maqsad bor “Puliz” kerak;

120. **Man (men) – erkak: (Man mashinasi)** Katta Man mashinalarini kichik-kichik erkakchalar haydab yurishipti;

121. **Woman (vumen) – xotin: (Tuman)** Xotin kishining xayoli tumanga oʻxshaydi. Adashib yuradiyu, nima haqida oʻylayotganini ham bilmaydi;

122. **Child (chayld) – bola: (Fayl)** Yosh bolacha jinoyat olamini boshqarmoqda, u haqida qora fayl toʻplanyapti;

123. **Boy (boy) – oʻgʻil bola: (Boy)** Boy-badavlat oʻgʻil bolani tasavvur qiling;

124. **Girl (gyol) – qiz bola: (Gol)** Qiz bolani darvozabon qilib qoʻyishkan, har besh daqiqada gol boʻlyaptida;

125. **Guy (gay) – yigit: (May)** Umar Xayyom aytgan: “May ichsang uni chinakam yigitlar bilan ich, aks holda ichma!”

126. **Friend (frend) – doʻst: (Brend)** Doʻstingizning nomi brend boʻlib ketdi. Endi u bilan oʻylashibroq muomala qilish kerak;

127. **Acquaintance (ekuentens) – tanish: (Ekvator)** Ekvator chizigʻini markazida tanishingiz bilan uchrashib qoldingiz;

128. **Neighbor (neybo) – qoʻshni: (Nay bor)** Qoʻshningizdan non soʻrab chiqdingiz, u boʻlsa “faqat nay bor” deb oʻtiribdi;

129. **Guest (gest) – mehmon: (Gost)** Ruscha gost soʻziga oʻxshatsa boʻladi;

130. **Chief (chif) – boshliq: (Shef)** Shef va boshliq oʻxshatishga harakat qiling;

131. **Boss (boss) – xoʻjayin: (Nos)** Boshligʻingiz nos chekayotganini tasavvur qiling, kabinetdan nuqul yomon hidlar keladi;

132. **Competitor (kompetito) – raqobatchi: (Kompyuter)** Tasavvur qiling, musobaqa boʻlyapti, raqobatchingiz kompyuter. Kim yutadi deb oʻylaysiz?

133. **Client (klaynt) – mijoz:** Klient so`ziga o`xshatsa bo`ladi;
134. **Colleague (kolig) – hamkasb:** Kollega so`ziga o`xshatsa bo`ladi;
135. **Family (femili) – oila:** Femili suvini oilaviy ichyapsiz;
136. **People (pipl) – odamlar: (Pipiiiiip)** Yosh bolalar mashina o`ynayotganda, odamlarni chetga surib nuqul “pipiiiiiiiiip” deb baqirishadi;
137. **Parents (peyrents) – ota-ona: (Parta)** Ota-onalar maktabi tashkil qilindi. Endi ular partada tiqilishib o`tirib dars qilishadi. Yosh bolalarga esa dam;
138. **Father (faze) – ota: (Faza)** Uyda chiroq o`chgan, otangiz esa shitdan fazalardi to`g`irleyapti;
139. **Mother (maze) – ona:** Bu so`zni bilmaydigan odam bo`lmasa kerak;
140. **Husband (hazbend) – er: (Hazm)** Yangi erlar, yoki zamonaviy erlarda hamisha hazm qilish bilan muammolar bo`ladi. Sababi nimada ckan-a?
141. **Wife (uayf) – xotin: (Kayf)** Xotin oldim, endi kayf, deb yurgan kuyovlar, adashmang, endi ikki kishini boqasiz;
142. **Son (san) – o`g`il: (San`at)** O`g`lingiz san`atkor, san`atni odami, u bilan faxrlaning;
143. **Daughter (dote) – qiz: (Dutor)** Qizingiz esa dutorchi, u ham san`atkor. Siz san`atkorlar oilasisiz;
144. **Brother (braze) – aka: (Brat)** O`xshash so`zlar;
145. **Sister (siste) – opa: (Sestra)** O`xshash so`zlar;
146. **Grandfather (grendfaze) – bobo: (Grand faza)** Bobongiz Grand mehmonxonasidagi fazalarni to`g`irleyapti;
147. **Father-in-law (faze-in-lou) – qaynota: (Love)** Love – bu sevgi. Inglizlar qaynotani qonundagi ota, deyishadi. Biz esa uni muhabbatdagi ota, deb nomlaymiz;
148. **Uncle (ankl) – amaki: (Akillash)** Amakingiz nuqul kuchukdek akkillayverganidan, uydan bosh olib ketdingiz;
149. **Grandmother (grendmaze) – buvi:** Buni bilasiz;

150. **Aunt (ant) – xola: (Qand)** Xolangizni qand qog'oz ichiga o'rab qo'ying;
151. **Cousin (kuzin) – amakivachcha: (Qo'zi)** Amakivachchalar qo'zichog'dek beozor bo'lishadi;
152. **Nephew (nevyu) – o'g'il bola jiyan: (Naf yo'q)** O'g'il bola jiyanni qancha tarbiya qilmang, baribir naf yo'q;
153. **Niece (nis) – qiz bola jiyan: (Miss)** Qiz bola jiyaningiz bo'lsa Miss Uzbekistan bo'lib ketkan;
154. **Job (job) – ish: (Jobir)** Jobir ismli tanishingiz ish qidirib yuripti;
155. **Businessman (biznesmen) – tadbirkor: Bilasiz;**
156. **Teacher (tiche) – o'qituvchi: (Ichir)** O'qituvchi sizga majburlab koniyak ichiryapti;
157. **Driver (drayve) – haydovchi: (Drakon)** Tasavvur qiling, mashinadagi haydovchi birdaniga drakonga aylanib qoldi. Xo'sh, taassurotlar qanday?
158. **Worker (uorke) – ishchi: (Orkestr)** Orkestrdagi ishchini ishdan bo'shatishdi, keyin yana qaytib olishdi, keyin yana bo'shatishdi;
159. **Engineer (injiniye) – muhandis: Injenerga o'xshatsa bo'ladi;**
160. **Doctor (dokto) – shifokor: Doktor so'ziga o'xshatamiz;**
161. **Lawyer (louye) – advokat: (Loy)** Advokat ishini eplay olmaganidan so'ng, loyga qorishtirishdi;
162. **Journalist (jonalist) – jurnalist: Bir xil so'zlar;**
163. **Nurse (nyurs) – hamshira: (Nyu-York)** Hamshira ishini zo'r bajargach, Nyu-Yorkka erga tegib ketdi;
164. **Shop assistant (shop essistent) – sotuvchi: (Shopir assistent)** Sotuvchi shopir do'stini o'rniga assistent qilib qoldirdi. Chunki unga farqi yo'q;
165. **Waiter (ueyte) – ofisiant (girgitton): (Vazir)** Ofisiant vazirga yaxshi xizmat ko'rsatgani uchun, vazir uni ishdan haydatib yubordi;

166. **Accountant (ekkauntent) – buxgalter: (Ek aunt)** Tasavvur qiling, buxgalter xolangiz dalada hujjatlarini ekib yuribdi;
167. **Artist (atist) – rassom: (Artist)** Barcha rassomlar ishini artistlikdan boshlagan;
168. **Musician (myuzishin) – musiqachi: O`xshash so`zlar;**
169. **Actor (ekto) – aktyor: O`xshash so`zlar;**
170. **Student (styudent) – talaba: Studentga o`xshating;**
171. **Pupil (pyupil) – o`quvchi: (Pyure)** O`quvchilar pyureni to`kib-sochib tashlashdi;
172. **Country (kantri) – davlat, qishloq: (Konter)** Qishloqlarda barcha konter o`ynab yuribdi;
173. **City (siti) – shahar: (Set)** Butun shaharda set o`chib qoldi. Ana endi internet ham yo`q;
174. **House (haus) – uy (bino): (Hovuz)** Uyingizga keldingiz, birdan qarasangiz hovuz turibdi, lekin siz kvartirada yashaysiz;
175. **Home (houm) – uy (yashaydigan joy): (Oum)** Hindistonliklar uyingizda “Oummm, Oummm, Oummm” deb o`tirishibdi;
176. **Building (bilding) – bino: (Bilding)** Binolar taxtadan qurilganini bilding, lekin baribir hech kim ayta olmayсан;
177. **Place (pleys) – joy: (Plaza)** Plaza mehmonxonasidan joy buyurtirdingiz, lekin cho`milmasdan kirish mumkin emas ekan;
178. **Entrance (intrans) – kirish: (Internet)** Restoranga kirishda internet ishlayapti, restoranning ichida ishlayapti, bu atayin qilingan;
179. **Exit (eksit) – chiqish: Bu yozuvda ko`p ko`rgan bo`lsangiz kerak;**
180. **Center (sente) – markaz: Buni bilmaslikni ilojisi yo`q;**
181. **Yard (yard) – hovli: (Bilyard)** Hovlingizni bilyardxonaga aylantirdingiz va birdaniga bankrot bo`ldingiz;

182. **Roof (ruf) – tom: (Ruh)** Tasavvur qiling, tomda ruhlar sayr qilib yuribdi. Qo`rqmayapsizmi?

183. **Fence (fens) – panjara: (Fensi)** Fensi butilkalariga panjaralarni yopishtirib ketishibdi;

184. **Land (lend) – yer: (Disney lend)** Yer sayyorasida Disney lenddan boshqa joy qolmadi, hatto-ki okeanlar ham;

185. **Village (vilej) – qishloq: (Villa)** Villalar qayerda bo`ladi deb o`ylaysiz? Qishloqdami? Adashtingiz!

186. **School (skul) – maktab: Yaxshilab e`tibor bersangiz,** shkola so`ziga o`xshab ketadi;

187. **University (yunivorsiti) – universitet: O`xshash so`zlar;**

188. **Theatre (siete) – teatr: “H” harfini olib tashlang.** Jumanjidagi shartlar emas-bu!

189. **Church (chorch) – cherkov: (Choch)** Cherkovda tuxumlarni chochib yurishibdi;

190. **Restaurant (restorant) – restoran: “T” harfini olib tashlang;**

191. **Café (kafe) – qahvaxona: O`xshash so`zlar! Juda o`xshash!**

192. **Hotel (hotl) – mehmonxona: Atel so`ziga o`xshamayaptimi?**

193. **Bank (benk) – bank: O`xshash so`zlar;**

194. **Cinema (sinema) – kinoteatr: (Sen yema)** Kinoteatrda “sen yema” degan film ko`rsatishyapti. Zalda ovqatlanish mumkin emasligi haqida butun boshli film ishlashibdi;

195. **Hospital (hospitel) – shifoxona: Gospitel so`ziga o`xshaydi;**

196. **Post office (post ofis) – pochta: (Pastdagi ofis)** Pastingizdagi ofis – pochta. Faqat u ishlamaydi;

197. **Station (steyshn) – vokzal: (Stansiya)** Vokzal va stansiya, nahotki shuni ham ulab berishimni kutayotgan bo`lsangiz 😊😊😊

198. **Airport (eyrport) – aeroport: O`xshash so`zlar bo`lsa kerak;**

199. **Shop (shop) – do`kon: (Shopir)** Bu yodingizda bo`lsa kerak. 164-chi so`zga nazar tashlang;

200. **Pharmacy (farmasi) – dorixona: Farmasevtika** so`ziga o`xshaydi;

201. **Market (market) – bozor: (Supermarket)** Bozorda supermarketlar qurib tashlandi. Endi u bozor emas;

202. **Office (ofis) – ishxona: Ofis** so`zini bilasiz;

203. **Company (kompeni) – kompaniya: O`xshash** so`zlar;

204. **Factory (fektor) – fabrika: (Faktor)** Fabrika yopilib ketishiga hech qanday faktorlar mavjud emas edi, lekin u baribir yopildi;

205. **Square (skueya) – xiyobon: Skver** so`ziga o`xshating;

206. **Street (strit) – ko`cha: (Strip)** Ko`chada strip-klub ochilgan;

207. **Road (roud) – yo`l: (Rot)** Rot – rus tilida og`iz degani. Yo`lning katta og`zi bor, tasavvur qiling, to`g`ri kelgan mashinani yutib yuboryapti;

208. **Stop (stop) – bekat: Bekatga stop** degan yozuvlar yozib ketishgan;

209. **Sidewalk (sayduolk) – tratuar: (Said volk)** Said volk (bo`ri)si bilan tratuarda sigaret chekib ketishyapti;

210. **Garden (gadn) – bog` : (Gardin)** Qirolicha – shaxmatda gardin deyishadi. Xullas, bog`da katta shaxmatsimon gardin bilan gul terib yuribsiz;

211. **Park (park) – park: O`shanaqa** so`zlar;

212. **Bridge (brij) – ko`prik: (Kembrij)** Kembrij universitetiga ko`priklar orqali o`tiladi. Kim o`ta olsa, universitetda o`qish huquqiga ega bo`lmaydi;

213. **River (rive) – daryo: (Revizor)** Revizorlar daryoni kezib o`tishdi;

214. **Forest (forest) – o`rmon: (Fora)** O`rmon labirint kabi tuzilgan. O`ta olmaganingizdan so`ng, o`rmon sizga fora berdi;

215. **Field (fild) – dala: (Fil)** Dalada fil turibdi, uni eplay olsangiz, minib oling;

216. **Mountain (maunteyn) – tog`:** (**Montella**) Montella suvlari tog`dan oqib tushadi;

217. **Lake (leyk) – ko`l:** (**Lak**) Ko`lga lakingiz to`kilib ketdi, butun ko`l qizil rangga kirdi yoki qora, xullas lakingiz rangiga qarab;

218. **Sea (si) – dengiz:** (**Sil**) Dengizda cho`milganlarning bari sil kasaliga uchramoqda. Ehtiyot bo`ling;

219. **Ocean (oushen) – okean:** O`xshash so`zlar;

220. **Coast (koust) – dengiz qirog`og`i:** (**Kosa**) Dengiz qirg`og`ida katta kosa turibdi, fikrimcha o`zga sayyoraliklar uchib kelgan;

221. **Beach (bich) – plyaj:** (**Bich**) Plyajda yostiqlarni bichib o`tiribsiz, undan dam olsangiz bo`lmaydimi?

222. **Sand (send) – qum:** (**Sent**) Qunning sim kartasida bir sent ham puli qolmagan;

223. **Border (borde) – chegara:** (**Bordur**) Nafsingizning biron-bir chek-chegarasi bordur, deb shikoyat qilyapman;

224. **Customs (kastoms) – tamojnya:** (**Kostyum**) Tamojnyadan faqat kostyumli kishilar o`tishi mumkin;

225. **Garbage (gabij) – axlat:** (**Gap ich**) Gapda ichib olib, odamlar barcha yerni axlatxona qilib yuborishdi;

226. **Waste (ueyst) – qoldiq:** (**Uya**) Asalarilarning uyasi qoldiqlarga to`lib ketganini tasavvur qiling;

227. **Stone (stoun) – tosh:** (**Piston**) Tasavvur qiling, toshga pistonlar yopishtirilgan;

228. **Agree (egri) – rozi bo`lmoq:** (**Egri**) Sizga egri ishlar taklif qilindi, siz esa o`ylab o`tirmay rozi bo`ldingiz;

229. **Allow (ellou) – ruxsat bermoq:** (**E`lon**) Katta e`lon yopishtirildi, e`londa barcha narsaga ruxsat berilgani haqida buyruq bor edi, keyin oxiriga hazil deb yozib qo`yishgandi;

230. **Be (bi) – bo`lmoq:** (**Bit**) Katta bitlar kimdir bo`lish uchun harakat qilishmoqda;

- 231. Become (bikam) – aylanmoq: (Bekam)** Mening bekam katta bekonga aylanib qoldi;
- 232. Begin (bigin) – boshlamoq: (Bikini)** Ayollar bikini kiyib yurishni boshlab yuborishdi;
- 233. Break (breyk) – sindirmoq, buzmoq: (brak)** Brak telefonlarni urib sindirayotganingizni tasavvur qiling;
- 234. Bring (bring) – olib kelish: (Brinza)** Siz brinza olib kelishni buyurdingiz, lekin olib kelishmadi;
- 235. Buy (bay) – sotib olish: (Boy)** Boylar hamma narsani sotib olishga harakat qilishadi, bu haqiqat;
- 236. Call (kol) – qo`ng`iroq qilish: (Kal)** Sizga kal qiz qo`ng`iroq qilyapti. Uni kalligini qayerdan bilganingizni bilmayman;
- 237. Can (ken) – qo`lidan kelmoq: (Kema)** Sizga shart qo`yishdi, chaqiruv tashlashdi. Kema yasash qo`lingdan kelmaydi, deyishdi. Siz nima deysiz?
- 238. Change (cheynj) – o`zgartirmoq: (Chayna)** Siz og`izda ovqat chaynash ritmingizni o`zgartirdingiz;
- 239. Close (klouz) – yopmoq: (Klaus)** Santa Klaus sizga sovg`a tashlab ketdi, lekin eshikni yopishni unutdi, siz ertalabga yaqin kasal bo`lib qoldingiz;
- 240. Come (kam) – kelmoq: (Kam)** Siz bazm uyushtirdingiz, lekin bazmga juda kam odamlar keldi;
- 241. Cook (kuk) – pishirmoq: (Ko`k)** Siz ko`k pishiryapsiz, hisobini oling, faqat ko`katlarni pishiryapsiz;
- 242. Cut (kat) – kesmoq: (Xat)** Tasavvur qiling, xatlarni kesib o`tiribsiz va ularni kabutar qilib uchiryapsiz;
- 243. Do (du) – qilmoq: (Do`st)** Do`stingiz sizga ko`p yaxshiliklar qildi, lekin siz unga hech narsa qilmadingiz;
- 244. Fall (fol) – yiqilmoq: (Pol)** Oppog`oy olmani tishladi va polga yiqildi, qaysi erтак bu?

245. **Find (faynd) – topmoq: (Fint)** Raqibingiz sizga fintlar qilib, narsalarni yashirib tashlamoqda, siz esa uni topishga harakat qilyapsiz;
246. **Fly (flay) – uchmoq: (Falak)** Falaklarga uchishni orzu qilganmisiz?
247. **Follow (follou) – ergashmoq: (palov)** Palovga dedingiz, barcha do`stlaringiz endi orqangizdan ergashib kelishmoqda;
248. **Get (get) – olmoq: (Net)** Netdan, ya`ni internetdan faqat zararli ma`lumotlar olyapsiz;
249. **Have (hev) – ega bo`lmoq: (Xafa)** Siz nimagadur ega bo`ldingiz, lekin ko`nglingiz hanuz to`lmadi, xafasiz;
250. **Hold (houid) – ushlaroq: (Bolt)** Katta bo`tlarnib ushlab olib, otvyorka qidirib yuribsiz, idish boru, ovqat yo`q iborasiga o`xshaydi;
251. **Know (nou) – bilmoq: (Yov)** Siz dushmaningiz, ya`ni yov kimligini bildingiz, endi unga qarshi reja tuzamiz;
252. **Leave (liv) – qoldirib ketmoq: (Piva)** Pivadan bir-ikki xo`plab ichdingiz va qolganini yo`lda qoldirib ketdingiz;
253. **Make (meyk) – qilmoq: (Mayk Tayson)** Mayk Tayson buyuk ishlarni qildi;
254. **May (mey) – mumkin: (May)** May oyida hamma narsa mumkin;
255. **Mean (min) – ma`no bildirmoq: (Bin)** Mister Binning birgina jiddiy qiyofasi ko`p ma`nolarni bildiradi;
256. **Need (nid) – muhtoj bo`lmoq: (Hid)** Sizdan badbo`y hidlar kelyapti, siz dezodorantlarga muhtojsiz;
257. **Open (oupen) – ochmoq:** Buni do`konlarda ko`rgan bo`lsangiz kerak;
258. **Pay (pey) – to`lamoq:** Paynetda pul to`lamoqdasiz. Paynet so`zi qaysi so`zdan olingan deb o`ylaysiz?
259. **Play (pley) – o`ynamoq: (Piyola)** Piyolalar bilan masqarabozlardek ularni o`ynatib fokus ko`rsatyapsiz;
260. **Sell (sell) – sotmoq: (Sel)** Tasavvur qiling, bozorda hamma narsa sotib o`tiribdi va birdan sel quyib yuhordi;

261. **Send (send) – jo`natmoq: (Santa)** Yana Santa Klausni olamiz. Santa Klaus sizga sovg`alarni pochta orqali jo`natmoqda;
262. **Sit (sit) – o`tirmoq: (Sid)** Muzlik davridagi yalqov Sid vulqon ustida o`tiribdi;
263. **Speak (spik) – gapirmoq: (Pik)** Siz tog`ning pikiga, ya`ni cho`qqisiga chiqib olib, tog`lar bilan gaplashyapsiz;
264. **Stand (stend) – turmoq: (Stoiba)** Stoiba hech o`tiradimi? Albatta, yo`q. U faqat turadi;
265. **Start (start) – boshlamoq: Startni** ma`nosini endi tushundingizmi?
266. **Stop (stop) – to`xtatmoq: Buni** bilasiz;
267. **Talk (tok) – gapirmoq: (Tok)** Soqov odamni tok urdi va u birdan gapirib yubordi;
268. **Tell (tell) – aytib bermoq: (Mel)** Sizni jinoyatda ayblashdi va barcha ayblaringizni oddiy mel aytib berdi;
269. **Travel (trevel) – sayohat qilmoq: (Trava)** Siz o`t-o`lanlar ichida sayohat qilib yuribsiz;
270. **Try (tray) – sinab ko`rmoq: (Terak)** Siz terak o`stirib boy bo`lib ketishni sinab ko`rmoqchisiz;
271. **Understand (andestend) – tushunmoq: (Andijon turmoq)** Siz Andijonga bordingiz va u yerda turibsiz va birdan tushunib yetdingizki, siz Namanganga borishingiz kerak ekan;
272. **Use (yuz) – ishlatmoq: (Yuz)** Sizning yuzingiz oppoq va uni uyni oqlash uchun ishlatyapsiz;
273. **Wait (ueyt) – kutib turmoq: (Quvayt)** Quvayt ko`chalarini o`rtasida turibsiz va kimdir sizga yordam berishini kutyapsiz;
274. **Watch (uotch) – qaramoq: (Skoch)** Bitta tanishingizni skochga bog`lab qo`yishgan, siz yordam berish o`rniga unga qarab turibsiz;
275. **Win (uin) – yutmoq: (Vino)** Vino ichish bo`yicha musobaqa bo`lyapti, siz eng ko`p ichib, yutib chiqdingiz;

276. **Work (uork) – ishlamoq: (Morg)** Siz morgda ishlaysiz, ancha og'ir bo'lsa kerak ishingiz!
277. **Worry (uorri) – xavotir olmoq: (Lor)** Qulog'ingiz og'riyapti, xavotir olib lorga bordingiz;
278. **Answer (anse) – javob bermoq: (Aksi)** Bir qizni sevib qoldingiz, siz unga gapirganingizda, uning aksi sizga javob beryapti;
279. **Ask (ask) – so'ramoq: (Askar)** Askarlar sizdan yo'l so'rashyapti;
280. **Believe (biliv) – ishonmoq: (Bilim)** Siz bilimingiz borligiga ishonasiz, lekin afsuski aslida borligini bilmaysiz. Qanday tushundingiz?
281. **Borrow (borrou) – qarz olmoq: (Zorro)** Zorro birdan uyingizga keldi va sizdan qarz so'rayapti;
282. **Carry (kerri) – tashib yurmoq: (Jim Kerri)** Jim Kerri sizning ustiboshlaringizni tashib yuripti;
283. **Copy (kopi) – ko'chirmoq: Kopya** so'ziga o'xshating;
284. **Decide (disayd) – yechmoq: (De Said)** Said nimanidir yechib o'tiribdi, lekin siz undan ittimos qilyapsiz "Biror nima de Said";
285. **Discuss (diskas) – muhokama qilmoq: (Diska)** Mashinangizning diskalari kechqurun yig'ilib olib, allanimalarni muhokama qilishmoqda;
286. **Eat (it) – yemoq: (It)** ltingiz hech narsa yemay qo'ydi, ishtahasi yo'q shekilli;
287. **Explain (ikspleyn) – tushuntirmoq: (Iks plan)** Siz iks planingizni hamkasblaringizga tushuntirmoqdasiz, ammo hech kim tushunmayapti va tushunishni ham xohlamayapti;
288. **Feel (fil) – his qilmoq: (Fil)** Kutilmaganda orqangizda fil turganini his qildingiz;
289. **Fili (fil) – to'ldirmoq: (Fil)** Va orqangizga qarasangiz, bir to'da filar shartnoma to'ldirishayotgan ekanlar;
290. **Finish (finish) – tugatmoq: Bu so'zni bilasiz;**
291. **Forget (foget) – esdan chiqarmoq: (Tuget)** Turklar sizning ismingizni esdan chiqarib qo'yishgan va sizga "Ishingni tuget" deyishyapti;

292. **Give (giv) – bermoq: (GIF)** Siz do`stingizning tug`ilgan kuniga GIFlar jo`natib, ularni sovg`a sifatida berib yubordingiz;
293. **Go (gou) – bormoq: (Goa)** Hindistonning eng go`zal shaharlaridan biri Goaga bordingiz;
294. **Happen (heppen) – ro`y bermoq: (Heppi)** Heppilar to`dasi o`rtasida kutilmaganda falokat ro`y berdi;
295. **Hear (hiye) – eshitmoq: (Iye)** Quloqlari tuppa-tuzuk eshitib turgan do`stingiz, endi eshitmayapti. Siz hayron bo`lib “Iye, Iye” deyapsiz;
296. **Help (help) – yordam bermoq: (Hilpirak)** Siz aylanyapsiz, so`ng qayerdandir hilpirak paydo bo`lib, aylanishingizga yordam berib yubordi;
297. **Keep (kip) – saqlamoq: (Ip)** Iplarni saqlab yuribsiz, bir kun kerak bo`lib qolar☺☺☺
298. **Learn (lyorn) – o`rganmoq: (London)** Londonga o`qishga kctmoqchisiz, uning uchun nima qilish kerak? O`qish kerak, o`rganish kerak;
299. **Like (layk) – yoqtirmoq:** Instagramda rasmlarga nima qo`yasiz?
300. **Listen (lison) – tinglamoq: (Linza)** Yangilik, endi quloqqa ta`qiladigan linzalar ham chiqdi, endi karlikning oldi olindi;
301. **Live (liv) – yashamoq: (Mif)** Odamlar miflarda, afsonalarda va fantaziyalarda yashab yurishadi;
302. **Look (luk) – qaramoq: (Lyuk)** Kapitan Nemoning suvosti kemasidan qochishga harakat qilyapsiz, qarasangiz, hech kim lyukni ocholmayapti. Ana endi tamomsizlar;
303. **Meet (mit) – uchratmoq:** Miting so`ziga e`tibor bering;
304. **Move (muv) – qimirlamoq: (Muuu)** Sigir qimirlashi bilan “Muuuuu” deb mulaydi;
305. **Must (mast) – kerak: (Mast)** Bir mast odam yig`lab baqirib o`tiribdi, menga aroq kerak, menga aroq kerak, deb;
306. **Promise (promis) – va`da bermoq: (Professional Miss)** Mashhur bir Professional Miss sizga yana uchrashamiz, deb va`da beryapti;

- 307.** **Put (put) – qo`ymoq: (Pult)** Otangiz futbol ko`ryapti, sizning esa serialingiz boshlandi, endi pultni olayotgan vaqtingizda, “Joyiga qo`y” deb urishyapti;
- 308.** **Read (rid) – o`qimoq: (Hid)** Kitob o`qiyapsiz va birdan undan hidlar chiqishni boshladi. Bu fantastika;
- 309.** **Remember (remembe) – eslamoq: (Remen)** Uydan xursand chiqdingiz va birdan remen taqmaganingizni eslab qoldingiz;
- 310.** **Run (ran) – yugurmoq: (Xan)** Xanlar faoliyatini yugurishdan boshlagan;
- 311.** **Say (sey) – aytmoq: (Soya)** Soyalar sizga sirli ma`lumotlardan aytyapti;
- 312.** **See (si) – ko`rmoq: (Sigir)** Dalada yurgan vaqtingizda sigir sizni ko`rib qoldi, siz emas, sigir sizni ko`rib qoldi;
- 313.** **Should (shud) – kerak: (Sho`x)** Har bir kompaniyaga sho`x-sho`x insonlar kerakligini tan oling;
- 314.** **Show (shou) – ko`rsatmoq: Shou ko`rsatilmoqda;**
- 315.** **Sleep (slip) – uxlamq: (Silliq)** Silliq divanda sirpanib-sirpanib uxlayapsiz;
- 316.** **Spend (spend) – sarflamoq: (Stipendiya)** Stipendiya oldingiz va o`sha kuniyoq sarflab yubordingiz, endi bir oy och yurishiga to`g`ri keladi;
- 317.** **Study (stadi) – o`rganmoq: (studiya)** Studiyada dars qilib, o`qib-o`rganib o`tiribsiz, yoningizda esa qo`shiqchilar baland ovozda qo`shiq aytyapti;
- 318.** **Suggest (sajjest) – taklif qilmoq: (Sanjar)** Sanjar ismli do`stingiz sizga ish taklif qilyapti;
- 319.** **Take (teyk) – olmoq: (Tayoq)** Yo`lingizda sehrli tayoqcha yotibdi, tezda oling va niyatlaringizga erishing;
- 320.** **Think (sink) – o`ylamoq: (Sirk)** Katta sirk tomoshasi bo`lyapti, hamma kulyapti, lekin siz o`ylanib o`tiribsiz;
- 321.** **Turn (tyorn) – burilmoq: (Turna)** Turna uchib yurgan vaqti, birdan sizga qarab burildi va sizni quvlashni boshladi;
- 322.** **Wake up (ueyk ap) – uyg`onmoq: (Keyk ap)** Uyg`ondingiz va tepangizda yangi keyk ya`ni tort turibdi, bu amerikancha hayot;

323. Walk (uolk) – piyoda yurmoq: (Volk) Bo`ri piyoda yuribdi, albatta piyoda yuradida, mashinasi yo`lku;

324. Write (rayt) – yozmoq: (Rayden) Mortal Kombat Qahramoni Rayden o`limi oldidan vasiyatini yozib qoldiryapti;

★ **Ana endi sifatlar bilan shug`ullanamiz. Sifatlar ham gapning asosiy qismini egallaydi.**

325. Awake (eveyk) – xushyor: (Avatar) Avatarlar ichiga tushib qoldingiz va xushyor bo`lib yuribsiz, uxlab qolsangiz, odam bo`lib qolasiz;

326. Bad (bed) – yomon: (Betmen) Betmen endi yomon rolda o`ynayapti;

327. Bent (bent) – bukri: (Band) Bukri odam hojatxonani band qilib olgan, hamma kutib o`tiribdi;

328. Bitter (bitte) – achchiq: (Bitta) Boshlig`ingiz sizga bitta-bitta achchiq-achchiq qahva hamda so`zlarni uloqtiryapti;

329. Blue (blu) – ko`k, havorang: (Blu) Shunga o`xshash multfilm bor edi, u yerda to`tilar ko`k rangda edi;

330. Cold (kould) – sovuq: (Kul) Antarktidada yuribsiz, havo sovuq, o`t o`chgan, faqat kul qolgan, endi aniq tamomsiz;

331. Cruel (kruel) – zolim: (Korol) Zolim odam bilan karta o`ynayapsiz, u korol tashladi, siz tuz bilan bosdingiz, endi tasavvur qiling keyin nima bo`lishini;

332. Dark (dark) – qorong`u, to`q: (Park) Kechqurun parkda qorong`uda yolg`iz sayohat qilyapsiz, juda qo`rqinchli bo`lib ketaypti-a?

333. Dead (ded) – o`lik: (Ded) Armiyadagi dedlarning qo`lida o`lik holda qochib qutulish mumkin;

334. Dear (diye) – aziz: (Diyor) Diyor qo`shiqchi “aziz” muxlislari uchun “Aziz” nomli qo`shig`ini kuylamoqda;

335. Different (diferent) - har xil: (Diferensial) Har xil deganda, siz nimani tasavvur qilasiz, bir tarafga shuni olamiz, bir tarafga bo`lsa matematikadagi Diferensial sonlarni olamiz, so`ng ularni birlashtiramiz;

336. Dirty (dyo:ti) – kir: (Diod) Kichik diod lampalaringizni tasavvur qiling hamda ular kutilmaganda kir, chang bo`lib ketganini tasavvur qiling;

337. Dry (dray) – quruq: (Dry-dry) Tomog`ingiz qurub qoldi va siz cho`ntagingizdan "Dry-dry" dorisini olib, ichishni hoshladingiz;

338. False (fols) - noto`g`ri: (Fol) Siz folbinga bordingiz, fol ochtirdingiz, barcha fol noto`g`ri bo`lib chiqdi;

339. Feeble (fibi) – zaif: (fil) Katta dalada zaif fil dumalab yotganini tasavvur qiling;

340. Foolish (fulish) – tentak: (Futbol ish) Ishi faqat futbol bilan aloqador insonlar tentak bo`ladi, deb hisoblashadi;

341. Future (fyucher) – kelajak: (Futurikon) Futurikon filmida sizning kelajagingizni ko`rsatishayotganini tasavvur qiling;

342. Green (grin) – yashil: (Gran pri) Yam-yashil dalada Gran prida tennis o`ynayotganingizni tasavvur qiling;

343. Ill (il) – kasal: (Ilon) Yotog`ingizda kasal ilon yotganini tasavvur qiling;

344. Last (last) - so`nggi: (Laziz) Laziz ismli tanishingiz o`zining so`nggi kunlarini boshidan kechirayotganini tasavvur qiling;

345. Late (leyt) – kech: (Lenta) Lenta kesishlari kerak edi, lekin negadir kattalar kech qolishayotganini tasavvur qiling;

346. Left (left) – chap: (Lift) Siz liftda ko`tarilmoqdasiz, chap tarafingizdan kimdir baqirib chiqdi;

347. Loose (luz) – erkin: (Luiza) Luiza ismli qiz o`zini juda erkin qo`yib yuborganini tasavvur qiling;

348. Loud (laud) – baland: (Laura) Tasavvur qiling, sizni Laura ismli baland bo`yli qiz o`rtog`ingiz bor;

349. Low (lou) – past: (Lou) Past bo`yli qiz sizga lou tepib, oyog`ingizni sindirdi;

350. Mixed (miksed) – aralash: (Mikser) Mikserda mevalarni aralashtirib, sharbat tayyorlamoqdasiz;

351. **Narrow (nerrou) – tor: (Narkoz, rom)** Siz tor joyda, rom ichib, bemorga narkoz beryapsiz;

352. **Old (ould) - qari, eski: (Ouldi)** Mikki Mausning Ouldi ismli kuchugi qarib qoldi;

353. **Opposite (oppozit) - qarama-qarshi: (Oppoq it)** Siz yo'ldan o'tyapsiz, sizga qarama-qarshi tarafdin oppoq it kelmoqda;

354. **Rough (raf) - qo'pol: (Raf mashina)** Tasavvur qiling, o'ta qo'pol Raf mashinasini sotib oldingiz;

355. **Sad (sed) - g'amgin: (Sedana)** Sizning g'amgin buvingiz sizga sedana chaynattirmoqda;

356. **Safe (seyf) – xavfsiz: (Seyf)** Pullaringiz xavfsiz saqlanishi uchun seyfdin saqlashni boshladingiz;

357. **Secret (sikret) – sirli: (Sekret)** Rus tilidagi sekret so'ziga o'xshasting;

358. **Short (short) – kalta: (Shortik)** Kalta shortiklar kiyish moda bo'ldi;

359. **Simple (simpl) – oddiy: (Simpsonlar)** Simpsonlar oilasi juda ham oddiy holatga kelib qoldi;

360. **Slow (slou) – sekin: (Silousin)** Silousin juda sekin yugura boshladi;

361. **Small (smol) – kichik: (Smola)** Kimyoviy laboratoriyada kichik smolalarni aralashtirib yubordingiz va birdan bu-bum!

362. **Soft (soft) – yumshoq: (MicroSOFT)** Microsoft kompaniyasi yumshoq kompyuterlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda;

363. **Solid (solid) – qattiq: (Soldat)** Sizga ota-onangiz qattiq temirdan bo'lgan soldatlarni sovg'a qilishdi;

364. **Special (speshl) – maxsus: (Spesialniy)** Rus tilidagi spesialniy so'ziga o'xshasting;

365. **Strange (streynj) – notanish: (Doktor Streynj)** Doktor Streynj notanish sayyoriga tushib qolganini tasavvur qiling;

366. **Thin (sin) - ozg'in: (Tsink)** Tsink moddasidan tayyorlangan idishlar juda ham ozg'in ekan;

367. **White (uayt) – oq: (Uyat)** Oq yupqa kiyim kiyib tashqariga chiqdingiz hamda uyatga qoldingiz;

368. **Wrong (rong) - xato, noto'g'ri: (Rang)** Siz rasm chizyapsiz, lekin noto'g'ri ranglar tanlayapsiz, shu sabab barcha sur'atlaringizdagi odamlar yashil rangda;

Vaqt ko'rsatkichlari

369. **Time [taym] – vaqt: (Nyu York Tayms)** Siz shu darajada ishga kirishib ketgansizki, Nyu York Tayms gazetasini o'qishga vaqtingiz ham yo'q;

370. **Second [seknd] – soniya: (Sekund)** Ruscha sekund so'ziga o'xshating;

371. **Minute [minit] – daqiqa: (Minuta)** Ruscha minuta so'ziga o'xshating;

372. **Hour [aur] – soat: (Aura)** Soat millari qimirlagani sari, sizning aurangiz kengayib bormoqda;

373. **Day [dey] – kun: (Deyi)** Siz kun davomida Chip va Deyl multfilmlarini tomosha qilyapsiz;

374. **Week [uik] – hafta: (Vikipediya)** Siz bir haftadan buyon Vikipediya sahifalarini o'qib chiqmoqdasiz;

375. **Month [mans] – oy: (Manti)** Tasavvur qiling, bir oy umringiz mantisiz o'tdi;

376. **Year [yee] – yil: (Yenot)** Yenotlar yil bo'yi yong'oq yig'ish bilan band bo'lishdi;

377. **Yesterday [yestudi] – kecha: (Yes today)** Siz bu ish kech bo'ldimi, deb so'rayapsiz, Inglizlar bo'lsa "yes today" deb javob berishmoqda;

378. **The day before yesterday [ze dey bifo yestudi] - kechadan oldingi kun:** Tarjimada kechadan oldingi kun, deb tarjima qilinadi;

379. **Today [tudey] – bugun: (To'da)** Bir to'da apachilar sizni bugun o'ldirish uchun quvlab kelishmoqda;

380. **Tonight [tunayt] - bugun tunda: (Tunamoq)** Bugun tunda sizni tunab ketish rejasini tuzishmoqda, ehtiyot bo'ling;

381. **Tomorrow [tumorou] – ertaga: (Tumor)** Sizga ertaga chet eldan tumor olib kelishmoqda;

382. **The day after tomorrow [ze dey after tumorou] - ertadan keyin:** Ertadan keyin deb tarjima qilinadi;
383. **Morning [mo:ning] – tong: (Moling)** Tong otishi bilan, xotin erini molingni olda, hozorga bor, deb uydan quvayapti;
384. **Afternoon [aftenun] – tushlik: (Aft Nur)** Tushlik vaqtida barchaning aftiga nur tushmoqda;
385. **Evening [ivning] – kechqurun: (Ivan)** Kechqurun Ivan ismli tanishingiz mehmonga kelmoqda;
386. **Night [nayt] – tun: (Nayk- Nike)** Nike brendi ostida tun tushmoqda, tun tushishi bilan barcha Nike kiyimlarini kiyimoqda;
387. **Monday [mandi] – dushanba: (Manti)** Dushanba kuni faqat manti yeysiz;
388. **Tuesday [tyuzdi] – seshanba: (Tuzli)** Seshanba kunlari esa faqat tuzli ovqatlar yeysiz;
389. **Wednesday [uenzdi] – chorshanba: (Vena kuni)** Bu kunda faqat Venadan kelgan ovqatlarni yeysiz;
390. **Thursday [sozdi] - payshanba: (Suzma)** Payshanba faqat suzma yeysiz;
391. **Friday [fraydi] - juma: (Fried chickens)** Juma kunlari faqat fried chickens yeysiz;
392. **Saturday [setudi] – shanba: (Saturn)** Shanba kuni Saturn sayyorasini yeysiz;
393. **Sunday [sandi] – yakshanba: (Sandiq)** Yakshanba kuni sandiqda bor, hamma narsani yeysiz;
394. **January [jenyuri] - yanvar: (Jin yurist)** Yanvar oyida faqat jinsimon yuristlar sizga xizmat qilishadi;
395. **February [februri] – fevral: (Fibra)** Fevral oyida barcha fibralar kengayadi;
396. **March [march] – mart: (Mart)** O`xshash so`zlar;
397. **April [eyprill] - aprel: (Aprel)** O`xshash so`zlar;

398. **May [mey] – may: (May)** O`xshash so`zlar;
399. **June [jun] – iyun: (Jun)** Junli mevalar oyi – iyun;
400. **July [julay] – iyul: (Yuliy Sezar)** Yuliy Sezar ismiga qo`yilgan bu oy;
401. **August [ogest] - avgust: (Og`iz)** Og`izlar tinmaydigan oy – avgust;
402. **Septembe [septembe] – sentabr: (Septolete plyus)** Sentabr oyida Septolete plyusdan ko`p foydalanishadi;
403. **October [oktoubel] – oktabr: (Oktava)** Oktava musiqalarini eshitish oyi – oktabr;
404. **November [nouembel] - noyabr: (Norin)** Norinlar oyi;
405. **December [disembe] – dekabr: (Disney)** Disney multfilmlarini tomosha qilish oyi;
406. **Season [sizn] - fasl: (Sezon)** Sezon so`ziga o`xshating;
407. **Spring [spring] – bahor: (Spring suvi)** Bahor spring suvini ichish fasli;
408. **Summer [samme] - yoz: (Samolyot)** Yoz fasli samolyot uchish fasli;
409. **Autumn [outem] – kuz (atom)** Kuz fasli atomlar harakatga keladigan fasl;
410. **Winter [uinte] – qish: (Vint)** Qishda barcha vintlar muzlab qoldi;
411. **Holiday [holidey] - bayram, kanikul: (Holida)** Holida ismli qiz bayramga ketdi;
412. **Birthday [byorzdi] - tug`ilgan kun: (Happy birthday to you);**
413. **Thank you [senk yu] – rahmat: Buni bilasiz;**
414. **You are welcome (yu ar uelkam) – arzimaydi: Senga marhamat, deb tarjima qilsa bo`ladi;**
415. **What a pity [vot e piti] – afsus: (Bred Pit)** Bred Pitni ko`rib, afsuslandingiz;
416. **Good bye [gud bay] – xayr: Buni bilasiz;**
417. **Russia [rasha] – Rossiya: Nasha Rashaga o`xshating;**

418. **Uzbekistan [Uzbekistan] - O`zbekiston;**
419. **Great Britain [greyt britn] - Buyuk Britaniya;**
420. **England [inglend] – Angliya;**
421. **Plant [plent] - o`simlik: (Planeta) O`simliklar planetasida urush bo`lib halokatga yuz tutib qolganda, o`simliklar yerga ko`chib kelishgan ekan;**
422. **Tree [tri] – daraxt: (Tirik) Daraxt qulab tushgan, daraxtni tomirini ushlab, pulsini tekshirishyapti, vrach “tirik” deb baqiryapti;**
423. **Grass [grass] - o`t-o`lan: (Press, krest) O`t-o`lanlar ustidan kerosin quyib endi yoqmoqchi edingiz, ular jonga kirib presslarini chiqarib sizni qo`rqitishdi. Siz esa qo`rqaningizdan krest qilib cho`qimib yubordingiz. Daxshat!!!!**
424. **Flover [flaue] – gul: (Puflamoq) Tasavvur qiling momoqaymoq gulini puflayverib dunyoni oppoq momaqaymoq parchalariga to`ldirib yubordingiz;**
425. **Leaf [lif] – barg: (Lift) Oltinchi qavatga chiqish uchun lift yoniga kelib endi eshikni ochgan edingiz ustingizga bir uyum barglar to`kildi;**
426. **Flat [flet] – kvartira: (Flesh) O`z kvartirangizda flesh ichib o`tirganingizni tasavvur qiling;**
427. **Room [rum] – xona: (Rom, ro`mol) Xonangizning hamma yeri romdan qurilganini o`ylang. Yoki xona to`la ro`mol turibdi;**
428. **Living room [iiving rum] – mehmonxona: (Suing qum) Tasavvur qiling, mehmonxonadagi barcha turistlar suving qum ekan deb, mehmonxona boshlig`ini sudga berishdi;**
429. **Bedroom [bedrum] – yotoqxonona: (Bet, ro`molcha) Tasavvur qiling yotoqxonada betingizni ro`molcha bilan yopib, dam olyapsiz;**
430. **Bathroom [bas rum] – vannaxona: Vannaxonadagi gazni ro`mol bilan urib o`chirib qo`ydingiz;**
431. **Shower [shaue:] – dush: (Shourma, shovla) Tasavvur qiling dushda shourma bilan shovlani qo`shib cho`milyapsiz;**
432. **Toilet [toilet] – xojatxonona: (Tualet) Tualet so`ziga o`xshating;**

433. **Kitchen [kichen] – oshxona: (Kichkina)** Tasavvur qiling dunyodagi eng kichkina oshxona faqat siznikida bor;
434. **Hall [hol] - koridor, zal: (Hol, ho'l)** Hamma yeringizga hol toshib ketdi. Yoki ho'l koridorni tasavvur qiling;
435. **Balcony [belkoni] – balkon: (Balkon, bel, bonka)** Balkoningizga butun mahalla chiqib olib, beliga bonka qo'yyapti;
436. **Floor [flooo] - pol, qavat: (Flour)** Flour – un, pol, qavat to'la un sochilib yotibdi;
437. **Ceiling [siling] – shift (Potolok): (Silang)** Shitingiz asabiylashib qimirlab ketdi, bir kishi sekin keling jim silang tinchlanadi, Deyapti!!
438. **Wall [uol] – devor: (Uvvol)** Tasavvur qiling, ishkalchi bo'lganingiz uchun otangiz senga hatto devor ham uvvol deb koyishyapti;
439. **Stairs [steis] – zina: (Stroysya)** Ruslar askarlarni agar ayb ish qilsa zimga (стройся) qilib qo'yar ekan;
440. **Door [door] – eshik: (Dor)** Tasavvur qiling, eshikni tozalab yuvib, siqib dorga osib qo'dingiz;
441. **Window [uindou] – oyna: (Windows)** Tasavvur qiling, oynangizda kompyuterdagi windows yozuvi chiqib qoldi;
442. **Windowsill [uindousil]- dokcha (podokonnik): (Silla)** Bir kishi uyingda sillasi qurigan odamlar dokchadagi narsalarga tegyapti dedi;
443. **Curtain [kyurtein] – parda: (Kurtka)** Tasavvur qiling, kurtkangizni qirqib, pardaga ulab qo'ydingiz;
444. **Switch [switch] – chiroq: (Svecha)** Tasavvur qiling, chiroq lampalarini svecha o'rnida ishlata boshlashibdi;
445. **Socket [soket] – rozetka: (So'kmoq)** Rozetka oldiga kelib, ishlamagani uchun rosa so'kdingiz;
446. **Faucet [foset] - jo'mrak: (Lasetti)** Lasetti ro'lini jo'mrakka ulab, paket bilan o'rab qo'ydingiz;
447. **Pipe [payp] – truba: (Paypoq)** Tasavvur qiling, turbaning ichiga paypoq tiqib qo'ydingiz;

448. **Chimney [chimni] - mo'ri: (Jinni, chinni)** Bir jinni odam mo'ridan uyingizga tushib, chinnilarni o'g'irlab ketibdi;
449. **Furniture [fyorniche] – mebel: (Surnaychi)** Tasavvur qiling, yangi mebel oldingiz. Surnaychi kelib hammasini rasvo qildi;
450. **Table [teibl] – stol: (Tabletka)** Rosa tepilgan stolga tabletka berib, tuzatishyapti;
451. **Chair [cheir] – stul: (Chirigan)** Tasavvur qiling, chirigan stulga o'tirgan edingiz, sinib yiqildingiz;
452. **Armchair [am cheir] – kreslo: (Arg`umchoq)** Kresloni arg`umchoqqa bog`lab qo'yib, o'yin o'ynayotganingizni tasavvur qiling;
453. **Sofa [soufa] – divan: (Sovuq)** Sovuqda uzoq masofa oralig`idagi yerga borib, divan sotib oldingiz;
454. **Bed [bed] – karavot: (Bet)** Tasavvur qiling, tepadan karavotga qarab bctingiz bilan sakradingiz)
455. **Wardrobe [uodrob] – garderob: O`xshash so`zlar, deyarli;**
456. **Cabinet [kebinet] – cabinet: O`xshash so`zlar;**
457. **Shelf [shelf] – polka: (sharf)** Tasavvur qiling, polkaga sharf bilan shlyapa olib kelib, qo'ydingiz;
458. **Mirror [mirror] – deraza: (terror)** Terrorlar derazadan oshib chiqib xujum qilishmoqchi edi lekin adashib sig`may qolishdi;
459. **Carpet [karpet] – gilam: (Karta, mapet)** Gilamingiz ustiga kartalar sochilib ketdi. Siz mapetda ularni terib yuribsiz;
460. **Fridge [fridj] – muzlatgich: (Fri)** Muzlatgich ichida to`la kartoshka fri turganini o`ylang;
- 1692. Participation (patisipeyshn) – qatnashish:** (Pat, sipo) Patlar sipo kelib, hamma yoqni tuzitishmoqda va musobaqaga qatnashish uchun otlanishmoqda;
- 1693. Competitive (kompetitiv) – musobaqaviy:** (Competition - musobaqa);
- 1694. Ameliorating the physical effects (emelioreyting de fizikl effekts) – jismoniy ta`sirlarni kuchaytirish:** Jismoniy ta`sirlarni mel bilan kuchaytirish;

1695. **Remedies (remidis) – muammo va holatga javoblar:** Remenlaringiz har qanday muammo va holatlarga javob bera olmoqda;
1696. **An initiative (en inishetiv) – davlat yo biznesdagi yangi dastur yo g`oya:** Inisiasitiva so`ziga o`xshash;
1697. **Raise awareness (reyz eueynes) – xushyorlikni oshirish:** (Reys, avaylash) Reyslar o`z-o`zidan portlab ketmoqda, xushyorlikni oshirib, ularni avaylash lozim;
1698. **Health warnings (hals uornings) – salomatlik ogohlantirishi:** Ma`noga e`tibor qiling;
1699. **Champions (chempions) – chempionlar:** Ma`noga e`tibor qiling;
1700. **Figure heads (figr hedz) – yuqoridagi insonlar:** (Figura, head - bosh) Yuqori klassdagi insonlarning figurasi chiroyli, boshi esa katta bo`ladi;
1701. **Dependency (dipendensi) – bog`liqlik, bog`lanish:** (Dividend) Siz faqat dividendlardan foyda olganingiz sabab, ularga bog`lanib qolgansiz;
1702. **Pursuits (porsyuits) – insonlar zavq bilan bajaruvchi hobbilar yoki sport:** (Porshe) Porshe avtomobillarida siz zavq bilan turli xil hobbilaringiz bilan shug`ullanib ketmoqdasiz;
1703. **Challenge (chellenj) – chaqiruv:** (Chala) Chala tug`ilgan insonlar sizga chaqiruv tashlamoqda;
1704. **Economic or political instability (iekonomik ou politiki instebiliti) – iqtisodiy yoki siyosiy harqarorsizlik:** Ma`noga e`tibor qiling;
1705. **Social unrest (soushl anrest) – ijtimoiy notinchlik:** Ijtimoiy arestlar kuchayib bormoqda;
1706. **An issue (en ishyu) – yechilishi kerak bo`lgan masala (savollar):** Ishani serialida barcha yechilishi kerak bo`lgan masalalar yechilmoqda;
1707. **Pressing matters (pressing metters) – shoshilinch, muhim masalalar:** Press bilan shoshilinch shug`ullanyapsiz, muhim masalalarni esa bir metrga surib qo`ygansiz;
1708. **Joblessness (joblesnes) – ishsizlik:** Jobir ishsiz qoldi;
1709. **Economic prospects (iekonomik prospekts) – iqtisodiy istiqbol (kelajak):** Prospektlarda iqtisodiy iqboli ko`ringan insonlarni ko`rmayapsiz;

1710. **Social mobility (soushl mobiliti) – ijtimoiy mobilizasiya (xalqning oylik, yashash uslubini qabul qilgan holdagi rivojlanishga qodirligi):** Ijtimoiy telefon;
1711. **The private sector (de prayvt sekto) – xususiy sektorlar:** Pravasi bor sector vakillari xususiy sektorlarni ochishmoqda;
1712. **Demographics (dimogrefiks) – demografiya (jamiyatdagi yosh, kelib chiqish, miqdordagi o'zgarishlar):** O'xshash so'zlar;
1713. **Longevity (longviti) – uzoq yashash: (Long – uzun) Deyarli o'xshash so'zlar;**
1714. **To migrate (tu migreyt) – migratsiya qilish, ko'chish:** O'xshash so'zlar;
1715. **Brain drain (breyn dreyn) – zukko va muvaffaqiyatli ishchilarning davlatdan ko'chib chiqishi tendensiyasi:** (Brain – miyya, train - poyezd) Miyyangizni poyezd bosib ketdi, so'ng birdan hamma zukkolar davlatdan ko'chib chiqib ketdi;
1716. **Existential threats (ekzistenshl srets) – mavjudlik xavf-xatarlari:** (Existence – mavjudlik, threat – xavf-xatar);
1717. **An outbreak (en autbreyk) – boshlanish, ibtido:** Futbolist o'z-o'zidan aut ota boshladi, koptok borib, sudyani kallasiga tegdi va uning kallasi sinib ketdi;
1718. **Civil war (sivil uor) – fuqarolar urushi:** (Sivilizasiya, war - urush) Sivilizasiya rivojlangani sari fuqarolar urushi kuchayib bormoqda;
1719. **Livelihood (livlihud) – tirikchilik manbai:** (Live – yashamoq, hood - manba);
1720. **Developed countries (develouped kantris) – rivojlangan davlatlar:** Ma'noga e'tibor bering;
1721. **Developing countries (develouping kantris) – rivojlanayotgan davlatlar:** Ma'noga e'tibor qiling;
1722. **Investment or funding (investment ouu fanding) – investisiya yoki fond:** O'xshash so'zlar;
1723. **Infrastructure (infrastrakche) – infrastruktura (hududning tizimi):** O'xshash so'zlar;

1724. **High-capacity (hay-kepesiti) – yuqori martaba, yuqori hajm:** Yuqori martabali shaxslar baland bo`yli kapalar qurib, yashashmoqda;
1725. **Public transport (pablik trenspot) – jamoat transporti:** O`xshash so`zlar;
1726. **Congestion (konjesshn) – o`ta zichlik, haddan oshiq to`lalik:** (Qon, sessiya) Sessiyada odamlar o`ta zich bo`lib ketdi, shu sabab hamma yoqdan qonlar otila boshladi;
1727. **Conurbations (konabeyshtns) – konurbasiya (rivojlanib, o`sib birlashib ketgan bir qancha shaharlar guruhi):** O`xshash so`zlar;
1728. **Transport hubs (trenspot hubs) – transport gupchaklari:** Transport gupchaklari hobbitlar kelgan vaqtda portlab ketdi;
1729. **Facilities and amenities (fesilitis end emenitis) – qulayliklar va yengilliklar:** (Fasllar va omonatlar) Qulayliklar va yengilliklar fasl o`zgarishi hamda omonatlarning oshishiga qarab beriladi;
1730. **A bottleneck (e botlnek) – kichik o`tish yo`lagi:** (Bottle – butilka, neck – bo`yin) Kichik o`tish yo`lagida butilkani bo`ynini uzib tashlashdi;
1731. **Overcrowding (ouekrauding) – gavjumlik (xalqning to`lib ketishi):** Maykl Ouen gavjum insonlar ichida yuribdi;
1732. **Hinterland (hintelend) – rivojlanish tufayli paydo bo`lgan shahar atrofidagi hudud:** Gitler yerlar hosil qilib, hammayoqni o`zi boshqatdan buzib tashlamoqda;
1733. **To settle in a place (tu setl in e pleys) – joyga ko`chib o`tish:** Sietl shahridagi mashhur bir joyga ko`chib o`tmoqdasiz;
1734. **Urban sprawl (oben sproul) – shahardagi yoyilib ketish:** (Obid spreylari) Obid aka chet eldan ko`plab spreylar keltirdi va ular tez orada shahar bo`ylab yoyilib ketdi;
1735. **Public-private partnerships (pablik-prayvet partneships) – davlat va tadbirkorlik tomonidan soliqni kamaytirish bo`yicha o`tkazgan loyihalari):** Ma`noga e`tibor qiling;
1736. **Civic pride (sivik prayd) – shaharga xos faxr:** (Sevikli priz) Siz suyuqli insoningizdan priz oldingiz, bu chinakam shaharga xos faxr;

1737. Tax incentives (teks insentivs) – soliq imtiyozlari: (Taksi inson) Insonlar va taksilar uchun alohida soliq imtiyozlari joriy qilindi;

1738. Home working (houm uorking) – uy ishlari: Tarjimaga e`tibor qiling;

1739. To commute (tu kommyut) – uydan ishgacha uzoq yo`l yurmoq: (Kompyuter) Uydan ishgacha kompyuterlar juda ham uzoq yo`l bosib kelishadi;

1740. Suburbs (soborbs) – shaharga tutashgan posyolka: (Savob) Shaharga tutashgan posyolkalarda yashamoq juda ham savobli ish;

1741. The inner city (de inne siti) – shaharning eski markaziy qismi: (Inner – ichki, buni inga o`xshatib olamiz) Shaharning eski markaziy qismida qush inlari bor;

1742. Communal car-pooling (kommuni kar-puling) - bo`lihilgan shaharda benzinni kamaytirilishi uchun insonlarni sayohat qilishlari uchun volontyor tizimi: Ma`noga e`tibor qiling;

1743. Outdated (autdeytd) – modadan chiqqan: Modadan chiqqan deyish o`rniga, inglizlar datadan chiqqan deyishar ekan;

1744. Innovations (innoveyshns) – innovasiyalar: O`xshash so`zlar;

1745. A backwater (e bekuote) – bodqoq: (Back – orqa, water - suv) Orqadan oqqan suv, hamisha bodqoqqa aylanadi;

1746. Rural depopulation (rurl depopuleyshn) – qishloqdagi depopulyatsiya (aholining kamayishi): (Rul depopulyatsiya) Ma`noga e`tibor qiling;

1747. Country dwellers (kantri duelles) – qishloqda yashovchilar: (Qand duelchilar) Qishloqda yashovchilar qand uchun duelga chiqishadi;

1748. A scarcity (e skeysiti) – noyoblik: (Skar) Simbaning amakisi skar noyoblikda birinchi o`rinda turadi;

1749. Rural unemployment (rurl anemployment) – qishloqdagi ishsizlik: 1745 so`zga qarang;

1750. Rural poverty (ruri pauerti) – qishloqdagi kambag`alchilik: Ruida paurenjerlar qishloqdagi kambag`alchilikning oldini olishmoqda;

1751. Material considerations (meteriel konsidereyshns) – moddiy fikrlar: (Material konfederasiyalar) Moddiy fikrlarni yo`q qilish uchun materiallardan konfederasiyalar tayyorlandi;

1752. **An abundance (en ebandens) – mo'l-ko'chilik:** (E bandit) Mo'l-ko'chilik vaqtida o'g'irlik qilganlarga hayron qolib: "E bandit, qachon odam bo'lasan?" deyishmoqda;
1753. **Wildlife (uayldlayf) – yovvoyi hayot:** (Uyatli hayot) Yovvoyi hayot – hu uyatli hayot, shunday emasmi;
1754. **Forestry (faristri) – o'rmonchilik:** (Forest – o'rmon);
1755. **Water bodies (uote badis) – suvli hududlar:** (Water – suv, body - tana);
1756. **Subsistence (sabsistens) – muhtojlikda yashash:** (Sapchiydigan sistema) Muhtojlikda yashovchilar sapchiydigan sistema ixtiro qilishdi;
1757. **Self-sufficient (self-saffishnt) – o'ziga to'qlik:** (Selfi, Sofiya) O'ziga to'q Sofiya ismli qiz selfiga tushmoqda;
1758. **Smallholders (smolhouldes) – kichik xo'jalik fermerlari:** (Mol, hoda) Kichik xo'jalik fermerlari mollarni hodalar bilan boqishmoqda;
1759. **The wider economy (de uayde ikonomi) – davlatning milliy iqtisodiyoti:** (Wide – keng, economy - iqtisod) Kengroq iqtisodiyot;
1760. **To afflict (tu efflikt) – ta'sir qilmoq:** (Afrikalik) Afrikaliklar shahringizga ko'chib kelishdi, bu esa shahar muhitiga qattiq ta'sir ko'rsatmoqda;
1761. **Animal husbandry (eniml hazbendri) – hayvonlarni boqish ko'nikmasi:** (Animal – hayvon, husband - er) Hayvonlarni boqishning eng zo'r ko'nikmasi – bu ularga er topib berish;
1762. **Crop rotation (krop roteyshn) – hosil aylanishi (tuproqni asrash maqsadida turli xil dalalarning ishlatilish jarayoni) (Korporasiya radiasiya)** Korporasiyadan radiasiyalar chiqib turgani munosabati bilan hosil aylanishi ancha yaxshilana boshladi;
1763. **Remote viewing (rimout vyuing) – uzoqdagi manzara (manzarani internetdan ko'rish) (Remont tyuning) Tyuning** vaqtida telefoningizni remont qilyapsiz, shunda birdan uzoqda bir manzara paydo bo'ldi, so'ng u siz tomon yaqinlasha boshladi, asta bo'g'zingizdan ushlab, sizni qiynay boshladi (davomi bor);
1764. **Environmental awareness (invayromental eueyness) – atrof-muhitga ogoh bo'lishi** (Integro mental Abay nos) Integroda mental o'yinlar bloke ochildi, mashhur shoir Abay uni oldida nos chekib olib, atrof-muhitga ogoh bo'lib o'tiribdi;

1765. **Far-flung (fa-flang) – uzoqdagi:** (Far - uzoq) Ma'noga e'tibor qiling;

1766. **Trustworthy (trastuorsi) – ishonsa bo'ladigan:** (Tratuar) Tratuarda odamlar ketmoqda, hammasiga ishonsa bo'ladi, lekin aynan ishonsa bo'ladigani ular ichida yo'q;

1767. **Paramount (peremaunt) – o'ta muhim:** (Pora, mountain – tog') Katta tog'da o'ta muhim uchrashuv bo'lib o'tmoqda, direktorlar bir-birlarini pora bilan boqishmoqda;

1768. **Devious (divies) – ayyor:** (Divan) Bir ayyorgina ayol sizni divaningizda yotib olib, sizni kutmoqda;

1769. **Minutiae (maynyushri) – kichik detallar:** (May shuuri) Siz shuuringiz bilan mayning kichik detallarini ham his qilmoqdasiz, qo'il qolsa arziydi;

1770. **Grievance (grivns) – shikoyat, alam:** (Grivna – Ukraina pul birligi) Grivnalar yo'q bo'lib ketmoqda, shu sabab uning ustidan shikoyatlar ko'p tushmoqda;

1771. **Sensitivity (senitiviti) – sezuvchanlik:** (Sensor Televizor) Sensor televizor sotib oldingiz, u juda ham sezuvchan ekan;

1772. **To commit an offence/a crime (tu kommit en ofens/e kraym) – jinoyat amalga oshirmoq** (Qo'mita, ofis, krem) Mahalla qo'mitasi ofisida tufli cho'tkalaydigan krem bilan jinoyat amalga oshirildi;

1773. **Informants (infoments) – informatorlar (polisiyaga ma'lumot beruvchilar)** O'xshash so'zlar;

1774. **A trial (e trayl) – sud jarayoni, sinov:** (Traktor) Sud jarayonida sudlanuvchilar ichida katta traktor ham o'tiribdi;

1775. **Conviction rates (konvikshn reyts) – hukm koefisienti:** (Konvensiya Reys) Hukm koefisienti konvensiya ishtirokchilarining reyslariga ulgurishlariga bog'liq;

1776. **A deterrent (e deterrent) – tiyib turish vositasi:** (Dezodorant) Dezodorant – bu insonni turli xil kulfatlardan tiyib turadigan vosita (shaxsiy lug'atimdan);

1777. **Sentencing (sentensing) – hukm chiqarish:** (Sentence - gap) Xulias, gap so'ziga o'xshating;

1778. **Imprisonment (impriznment) – qamoqdagi jazo:** (Imperiya, ment) Katta imperiya kabi qamoqxona qurilgan, unga mentlarni tiqib, ularga jazo berishmoqda;
1779. **A fine (e fayn) – jarima:** (Mayin) Mayin kiyim kiygan kishilarni jarimaga tortishmoqda;
1780. **Community service (kommyuniti syorvis) – obodonlashtirish xizmati (jazolanuvchiga beriluvchi obodonlashtirish xizmati):** (Kommunikasiya, servis) Obodonlashtirish xizmatidagi insonlarga kommunikasiya hamda servis bo'yicha maxsus darslar o'tilmoqda;
1781. **Rehabilitation (reabilitayshn) – reabilitasiya:** O'xshash so'zlar;
1782. **An offender (en offende) – jinoyatchi:** (Ofisiant) Jinoyatchilar ofisiantlarni tunashmoqda, ehtiyot bo'ling;
1783. **Tendencies (tendensis) – intilishlar, moyilliklar:** Tendensiya so'ziga o'xshating;
1784. **Corruption (korapshn) – korrupsiya:** O'xshash so'zlar;
1785. **Bribery (brayberi) – pora berish:** (Pryanik berin) Katta-katta lavozimdagilarga pora o'rniga pryanik berishmoqda;
1786. **To enforce laws (tu infors lous) – qonunlarni joriy etish:** (Infarkt, sous) Qonunlarni joriy etgach, odamlar infarktga uchrashdi va ularni sous orqali davolashdi;
1787. **Unequitable (aniknitebl) – turli xil guruhlariga nisbatan adolatsizlik qilinishi:** (Antikvar, table - stol) Antikvar stellar qimmatlashib ketgani sabab, turli xil guruhlariga nisbatan adolatsizlik qilinishi avjiga chiqdi;
1788. **Law-abiding (lou-ebayding) – qonunga bo'yinsunuvchi:** (Law – qonun, Abay) Qonunga bo'yinsunuvchi Abay qonunlarni inkor qila boshladi;
1789. **Transferable skills (trensferabl skills) – turli xil vaziyatlarda ishlatsa bo'ladigan ko'nikmalar:** (Transfer, skill – ko'nikma) Bizning jamoaga bir futbolchi transfer qilib o'tkazildi, unda turli xil vaziyatlarda ishlatsa bo'ladigan ko'nikmalari to'lib yotibdi;
1790. **Lateral thinking (leterl sinking) – lateral fikrlash (keng fikrlash)** O'xshash so'zlar;

- 1791. Investigative (investigativ) – tadqiqiy, tadqiqot..., tekshirish...:** (Investisiya) Tadqiqotlarga investisiya tikish orqali, siz ko'plab daromadga ega bo'lishingiz mumkin;
- 1792. To transcend a situation (tu trenskend e situeyshn) – kattalashish (vaziyatni kengaytirish, kuchaytirish):** (Transport, qand, situasiya) Transportlarda qandlarni tashib, situasialarni kengaytirishmoqda;
- 1793. A context (e kontekst) – kontekst, vaziyat, muhit:** O'xshash so'zlar;
- 1794. To outweigh (tu autuey) – oshib tushmoq, oshib ketmoq:** (Autbek) Bir futbolist bolasiga "Autbek" deb ism qo'ydi, bu qilgan ishi oshib tushdi, futbolga bu darajada mukkasidan ketish yaxshi emas;
- 1795. Over-familiarity (oue-femilieriti) – qonun xalq bilan juda do'stona aloqalarda bo'lishi:** Ma'noga e'tibor qiling;
- 1796. Transcend a situation (trenskend e situeyshn) – kattalashish (vaziyatni kengaytirish, kuchaytirish):** (Transport, qand, situasiya) Transportlarda qandlarni tashib, situasialarni kengaytirishmoqda;
- 1797. Context (kontekst) – kontekst, vaziyat, muhit:** O'xshash so'zlar;
- 1798. Outweigh (autuey) – oshib tushmoq, oshib ketmoq:** (Autbek) Bir futbolist bolasiga "Autbek" deb ism qo'ydi, bu qilgan ishi oshib tushdi, futbolga bu darajada mukkasidan ketish yaxshi emas;
- 1799. Over-familiarity (oue-femilieriti) – qonun xalq bilan juda do'stona aloqalarda bo'lishi:** Ma'noga e'tibor qiling;
- 1800. Aberration (abreyshn) – adashib qolish:** (Abu Rayhon) Kolumb adashib borib qolgan joy, Abu Rayhon Beruniy bashorat qilgan yer- Amerika edi;
- 1801. Abhor (ebho') – juda yomon ko'rish:** (yeb ko'r) Mango mevasini yeb ko'rsam, rosa taxir ekan. Shundan beri uni yomon ko'raman;
- 1802. Acquiesce (akuyes) – istamay rozi bo'lish:** (akasi) O'qishga kira olmagan Anora akasining do'stidan kelgan sovchilarga istamaygina rozilik bildirdi.
- 1803. Alacrity (elakriti) – tayyor (shay) turmoq:** (elak) Elak unni elashga doim shay turadi;

- 1804. Amiable (emaybl) – do'stona: (amigo)** italyan tilidan olingan;
- 1805. Appease (epiys) – tinchlantirish: (apelsin)** Osmondan apelsinlar yog' ilmoqda... Tinchlaning, bu tush xalos;
- 1806. Arcane (akeyn) – maxfiy sir: (okean)** Qaroqchilar okean tubidan topilgan xazinani hammadan sir tutishmoqda. U yerda javohiru-u marjonlar juda ko'p;
- 1807. Avarice (everays) – nafs, ochko'zlik: (avariya-halokat)** Ochko'z talonchilarning yuk to'la mashinasi halokatga uchradi;
- 1808. Bazen (beyzn) – aniq, ravshan, yaqqol: (ba'zan)** Ba'zan oydagi dog'lar aniq ko'zga tashlanadi;
- 1809. Brusque (brask) – shiddatli, tezkor: (Bryus Li)** Bryus Li eng tezkor sportchi sifatida dunyoga mashhur bo'lgan;
- 1810. Callous (kello'vs) – toshbag'ir, bemehr: (gilos)** Zumradning toshbag'ir o'gay onasi hatto bog'dagi pishgan gilosdan ham bermas ekan;
- 1811. Candor (kendo') – samimiy, ochiqko'ngil: (kinder)** Kinder ichidan samimiy o'yinchoqlar chiqdi;
- 1812. Clandestine (klendistin) – maxfiy, yashirin: (kalendar)** Kalendardagi maxsus belgilar ostida bank seyfining maxfiy kodi yashiringan;
- 1813. Coerse (ko'yers) – majburlamoq: (kurs)** Ba'zi ota-onalar farzandi
- 1814.** istamagan o'quv kursiga majburan olib borishadi.
- 1815. Coherent (kohiyrent) – mos, uyg'un: (kohin)** Ismi jismiga mos ibodatxona kohinlari g'ayritabiiy kuchga ega bo'lishadi;
- 1816. Complacency (kompleksini) – mag'rurlik, beparvolik: (kompleks)** Sport kompleksida mashhur sportchi hech kimga parvo qilmay mashq qilardi;
- 1817. Confident (konfident) – ishongan: (konfet)** O'ziga ishongan shokoladli va karamelli konfetlar eng shirinlik borasida o'zaro bahslashmoqda;

1818. **Connive (koniv) – reja tuzmoq: (kon)** Konchilar oltinni qazib olish uchun puxta reja tuzdilar;
1819. **Cumulative (kyumuletiv) – to’plangan, jamlangan: (akumulyator)** Akumulyatori charchagan barcha avtomobillar to’planib ziyofat uyushtirishdi;
1820. **Debase (dibeyz) – kamsitmoq, tushirmoq: (debat)** Odatda debat ishtirokchilari raqib jamoaning fikriga qarshi chiqib, kamsitishga urinadi;
1821. **Decry (dikray) – ochiqchasiga tanqid qilish: (dekan)** Dekan talabalarni yig’ib majlis o’tkazdi va hammaning kamchiligini ochiqchasiga tanqid qildi;
1822. **Deferential (defrenshl) - xurmatli, muhtaram: (delfin)** Xurmatli tomoshabinlar! Endi navbatni delfinlar raqsigaberamiz, marxamat...
1823. **Demure (demyue) - yuvosh, mo’min, kamtar: (jim yur)** Jim yuradigan, kamgap odamlarni yuvosh deyishadi;
1824. **Deride (dirayd) - mazax qilish, ustidan kulish: (prayd-ichimlik)** Kafeda Coca cola buyurtirganlar prayd ichib o’tirganlarning ustidan kulib mazax qildi;
1825. **Despot (despt) - hukmron, zolim, mustabid: (isbot)** Zolim shoxlar hukmronligi davrida oddiy xalq ko’p jabr ko’rganligi tarixiy manbalarda o’z isbotini topgan.;
1826. **Diligent (dilijn) - tirishqoq, serg’ayrat (dilijon)** “Dilijon-dilijon” deya kuylagan Doston Dadajonov mukofot olish uchun tirishqoqlik bilan astoydil harakat qilmoqda;
1827. **Elated (ileyted) - shod, quvnoq, xursand: (elat)** Yurtimizda turli elat va millat vakillari o’zaro inoqlikda shod-xurram istiqomat qilishadi;
1828. **Eloquent (ilokvent) - orator, notiq, gapga usta: (ellik ming)** Mashhur notiq-suhandon Abzal Rafiqov yangi chiqqan ellik mingtalik pulni shunday tarifladiki, uning oldida yevro- dollar bir chaqaga aylandi;
1829. **Embezzle (imbezl) - o’zlashtirib olmoq, sarflamoq: (bozor)** Birovning mulkini noqonuniy o’zlashtirib olgan sohta boyning bozorda pulni ayamay sarflashini ko’ring...

1830. Empathy (impesi) - rahm, shafqat, hamdardlik: (embassy-elchixona)
Elchixona vazifalaridan biri: xoriydagi yurtdoshlarga hamdardlik bilan yordam berishdir;

1831. Enmity (enmiti) - dushmanlik, adovat: (enemy - dushman) Bu so'zni bilasiz;

1832. Erudite (eradayt) - o'qimishli, bilimdon: (erudit) Erudit gazetasidagi boshqotirmalar shunaqa qiyinki, uni faqat bilimdonlar topa oladi;

1833. Extrude (ekxtrud) – chiqarib yubormoq: (ekskovator, rul) Tasavvur qiling, ekskovator bilan barcha mashinalardagi rullarni chiqarib yuborishmoqda;

1834. Fabricate (fabrikeyt) - to'qimoq, uydirmoq, soxta narsa qilmoq: (fabrika) Xitoy fabrikalarida faqat soxta narsalar ishlab chiqariladi;

1835. Flabbergasted (flabgestd) – hayratlangan (Flesh, gaz) Flesh suvini ichganingizdan so'ng, birdan odamlar hayratlana boshlashdi va kutilmaganda gaz trubalari yorilib, hamma yoqqa hid tarqay boshladi;

1836. Forsake (fo'seyk) - tark etmoq, voz kechmoq: (fors) Fors shaxzodasi tuxmatga uchrab, saroyni tark etgach ko'p sarguzashtlarni boshdan kechirdi;

1837. Fractionous (frakshes) – g'ashga tegadigan, jaxlni qo'zg'atadigan: (fransuz) Negadir fransuz tilini yoqtirmayman. Ayniqsa, "R" ni "G" deb talaffuz qilinishi g'ashimga tegadi;

1838. Furtive (fo'tiv) - sirli, yashirincha, ayyor, o'g'irlangan: (fourty-40) Tasavvur qiling, "Ali Bobo va 40 qaroqchi" filmidagi xazina yashiringan g'orga borib qoldingiz, ammo, sirli so'zni eslolmayapsiz...

1839. Gluttony (glatni) - ochko'z, nafsi yomon, yeb to'ymas: (gladiator) Maydonda jasur gladiator ochofat dev bilan jang qilmoqda...

1840. Gratitoius (gretishes) - sababsiz, beg'araz, tekin: (gracio-raxmat) Adashib qolgan bir ispan sayyohini tekinga manziliga olib bordingiz. U esa sizga beg'araz yordamingiz uchun "gracio, gracia" deb minatdorchilik bildirdi;

1841. Haughty (ho'ti) - dimog'dor, kekkaygan, manman: (ho'tik) Bir maqtanchoq ho'tikcha chopqirlikda ot bilan bahslashibdi... (davomi bor...)

1842. Hypocrisy (haypokrisi) - ikiyuzlamachilik, riyokorlik: (gippokrat) Shifokorlarning riyokorlik qilishga haqqi yo'q. Axir ular gippokrat qasamini ichishgan;

1843. Impeccable (impikeybl) - na'munali, a'lo: (importniy kabel) Televizoringizni importniy kabelga ulasangiz, barcha kanallarni a'lo darajada ko'rsatadi; (reklama!?)...

1844. Impertinent (impatinen) - qo'pol, surbet, beor: (imperator) Xitoy imperatorlarining aksariyati qanday? a)surbet va qo'pol b)cho'qqisoqol c)barcha javoblar to'g'ri;

1845. Implacable (implekebl) - darg'azab, shafqatsiz, zolim: (plakat) Zolim qirol Artur rassomning barcha plakatlarini yoqib yubordi;

1846. Impudent (impudn) – 'impertinent' ga sinonim;

1847. Incisive (insaysiv) – aniq, lo'nda, keskin: (insof sari) Noinsoflik bilan qimmat sotayotgan sotuvchiga haridor insof sari barakada arzonlashtir sal demoqda)

1848. Indolent (indolen) – dangasa, yalqov: (eng dono) Siqilmang, dangasalik hammamizda bor. Hattoeng dono donishmandlar ham ba'zan yalqovlik qilishgan;

1849. Inept (inep) – no'noq, uquvsiz, nomunosib: (Inobat) Qon bosimini ham o'lchashni bilmaydigan Inobat singari no'noq hamshiralar oq xalat kiyishga noloyiqdirlar.

1850. Infamy (infemi) – yomonotliq, yuzi qora: (family-oila) Jinoyatchilarning nafaqat o'zi yomonotliq bo'ladi, balki, oilasining ham sha'niga dog' tushadi;

1851. Inhibit (inhibt) – taqiqlamoq, ma'n etmoq: (xo'bit) "Uzuklar hukmdori" filmidagi pakana xo'bitlarga jangda qatnashish taqiqlandi;

1852. Innate (inneyt) – tabiiy, mahalliy, shu yerlik: (indeys-hindular) Amerikaning asl mahalliy aholisi hindular bo'lgan. Bu - fakt;

1853. Insular (insyula) – ajralgan, orolga oid, kaltafaxm: (hindular) Yevropaliklar bunday hindularnisivilizatsiyadan ortda qolgan, kaltafaxm deb mazax qilishgan;

1854. Intrepid (intrepid) – qo’rqmas, jasur, mard: (internet) facebook o’zini jasur, mard hisoblayman degan odamlar internetini blokladi.

1855. Jubilant (jubilant) – shod-xurram, quvnoq: (yubiley) Tasavvur qiling, ota-onangizning 100 yillik yubileyi, ular esa tetik va bardam, shod-xurram davraning to’rida o’tirishibdi;

1856. Knell (nel) – dafn/nimaningdir yakuniga yetishi munosabati bilan marosimidagi qo’ng’iroq sadosi: (Nil) Nil daryosi qurib ketganidan so’ng qo’ng’iroqlar chalinib hayrlashuv marosimi bo’lib o’tdi;

1857. Lithe (lays) – egiluvchan, mayin: (qalaysiz) qattiq metallardan biri bo’lgan qalaysiz kundalik metal jihozlarimiz egiluvchan va yaroqsiz bo’lib qolardi;

1858. Lurid (larid) – vahimali, daxshatli: (Larry) Larri ismli shahzoda daxshatli qonxo’r maxluqni yengib, sohibjamol malikani qutqaribdi;

1859. Maverick (mevrik) – erkin, mustaqil: (Merlin) Merlin malika Mepni yo’q qilgach, jodugarlik bilan mustaqil shug’ullandi;

1860. Maxim (meksim) – hikmatli so’z, ibora: (Maksim) Maksim Go’rkiyning asarlarida ko’plab hikmatli so’z va iboralar keltirilgan;

1861. Meticulous (metikyulus) – ehtiyotkor, sinchkov: (metro) Metroda yurganingizda ushbu so’zlarni ko’p eshitgansiz: “Ehtiyot bo’ling eshiklar yopiladi, keyingi bekat...”;

1862. Modicum (modikam) - oz miqdor, kichik qism: (modda) Quvvatsizligim sababli shifokor tekshiruvidan o’tgan edim, kalsiy va boshqa moddalar miqdori kamayib ketganligini aytib bir qancha dori yozib berdi;

1863. Morouse (moro’s) – xafa, g’amgin, noxush: (moro bo’sin) Tasavvur qiling: universitetga so’nggi rusumdagi yangi mashina minib bordingiz, ammo, hech kim e’tibor qilmadi, hattoki, moro bo’sin ham demadi. Bundan juda xafasiz;

1864. **Myriad (miried) – behisob, son-sanoqsiz: (milliard)** Behisob boyliklar egasi Bill Geyts dunyoning yetakchi milliarderi hisoblanadi;
1865. **Nadir (nedr) – nodir, kamyob: (Nodir)** Nodir ismli do`stingizda kamyob narsalar bor;
1866. **Nominal (naminl) – shartli, arziyas, atoqli: (nom)** Yurtimizning ko`p joylariga atoqli yozuvchi va shoir A.Navoiy nomi berilgan;
1867. **Nuance (nyuvens) – kichik farq: (yuventus)** Endi navbat sport xabarlariga: Angliya chempionatida qizg`in baxslar bo`lib o`tmoqda. Kuni kecha Yuventus jamoasi kichik farq bilan Arsenal ustidan g`alaba qozondi (4:3);
1868. **Oblivious (ablivus) – xotirasi past: (Obeliks)** Sirli damlama to`la qozonga tushib ketgan Obeliks o`ta kuchli ammo xotirasi past bo`lib qoldi;
1869. **Obsequious (obsekuis) – bo`ysinuvchan, itoatkor: (Asteriks)** Paxlavon Obeliks faqat do`sti Asteriksning ko`rsatmalariga bo`ysunar, aytganini bajarar edi;
1870. **Obtuse (abtyus) – esi past, anqov: (avtobus)** Faraz qiling avtobusda ketyapsiz: dimligidan nafas olishning, odam ko`pligidan oyoq bosishning iloji yo`q. Bir payt yoningizdan o`tgan mashina oynasidan boshini chiqarib olgan bir tentak baqirib, qo`l silkitib ketmoqda;
1871. **Panacea (panasia) – davo, chora: (penisilin)** Hozirda penisilin dorisi ham ko`plab juda oddiy kassaliklarga ham davo bo`lmay qolgan;
1872. **Parody (pero`di) – taqlid, parodiya: o`xshash so`zlar;**
1873. **Penchant (pansha:n / penchant) – xohish-ishtiyoq, moyillik: (pechen`ye)** Stolda o`tirgan bir bolakay onasiga harhasha qilmoqda: “ovqat kerakmas, pechen`ye yeyishni xohlayman...”
1874. **Perusal (pru:zl) – takrorlash, tekshirish: (protez uzildi)** bir oyog`i yasama qaroqchining protezi uzildi lekin u sezmedi ham.
1875. **Plethora (plesora) – serobgarchilik, mo`l- ko`l: (pilesos)** Kombayn daladagi mo`l-ko`l hosilni plesos kabi yig`ib olmoqda;

1876. Predilection (pridilekshn) – xohish-ishtiyoq, moyillik; (prezident) Ko'pchilik bolalardan "kim bo'lishni xohlaysan" deb so'rasangiz, "prezident bo'lmoqchiman" deb javob berishadi;

1877. Quaint (kueynt) – eski uslubdagi, yoqimli, antikvar: (kvant) astrofizikadagi kvant teoramalari eski uslubda bo'lsa ham unda ishlash ancha sodda va yoqimli;

1878. Rash (resh) – o'ylamay qilingan, tavakkal: (Rashk) Rashid o'ta rashkchiligidan o'ylamay gapirib, rafiqasini ko'p xafa qiladi;

1879. Refurbish (refo'bish) – qayta tiklamoq, yaxshilamoq (reformatsiya) – o'xshash so'zlar;

1880. Repudiate (repyudayt) – rad etmoq: (repetitor) Til o'rganish uchun zo'r repetitorga borgan ediniz, "guruh to'lgan-joy yo'q keyinroq xabar oling" deb sizni rad etdi;

1881. Rife (rayf) – to'la, serob: (life) Hayot: sir-u sinoat, baxt-omad, g'am-tashvish, quvonch-u shodliklarga to'la...;

1882. Salient (seliyen) – mashxur, atoqli: (Sally) "Samson va Sally" multfilmini ko'rganmisiz? U suv osti jonivorlarining sarguzashtlari haqidagi mashxur animatsion film;

1883. Serendipity (serndipiti) – omad: (Selin Dion) "Titanik" filmiga kuylangan qo'shiq Selin Diona ulkan omad keltirdi. Bu qo'shiqni tinglamagan odam bo'lmasa kerak;

1884. Staid (steyd) – bosiq, vazmin, ijobiy: (Said) Said bosiq, vazmin bola. Hamma bilan ijobiy muomalada bo'ladi. Sinfdozlari hazillashib uni "Mo'min, Qobil" deb atashadi;

1885. Superfluous (supafluas) – keraksiz, ortiqcha: (supa fil asta) supa fil asta yursa ham ortiqcha vaznini ko'tara olmay sinib ketdi;

1886. Sycophant (sikofant) – hushomadgo'y, laganbardor: (saksofon) Hushomadgo'y hodim har kuni boshlig'i ishga kirib kelishi bilan saksofon chalib kutib olar ekan;

1887. Taciturn (tasito'n) – kamgap, indamas: (uchtasi to'ni) O'rtoqlarim bilan urushib qolganimizdan keyin hamma yarashib oldi faqat kam gaplaridan uchtasi to'nini ters kiyib yarashgisi kelmadi;

1888. Truculent (tryuklen) – urushqoq, janjalkash: (turk) Ko'pchilik turk ayollari urushqoq, janjalkash bo'ladi deyishsa ishonmas edim.O'zim ko'rgach, ishonch xosil qildim;

1889. Umbrage (ambreyj) – ranj, alam, haqorat: (umbrella) Yomg'irli kunlarning birida og'ir yuk ko'targan onaxonning yonidan soyabon tutib olgan qiz o'tib ketdi. Yordamlashmagani uchun ranjigan onaxon alamidani qarg'ab haqoratladim;

1890. Venerable (venrebl) – hurmatli, muhtaram: (venera) Venera sayyorasida ulkan bazm uyushtirildi. Unga Yerdagi xurmatga sazovor barcha olimlar taklif qilindi;

1891. Vex (veks) – ranjitmoq, xafa qilmoq: (Reks) Reks laqabli kuchukni xo'jayini xafa qilganidan uydan ketib qoldi;

1892. Vociferous (voysfero'us) – baland ovoz, shovqinli: (voice,Feruz) Kutubxonada hamma jim dars tayyorlab o'tirgandi, kimdir eshikni ochib, "Feruz" deb baqirdi. Kutubxonachi esa "bu yerda shovqin qilish mumkinmas" deb, uni chiqarib yubordi;

1893. Wanton (vontn) – suyuq, yengiltak: (fontan) Faraz qiling xiyobonda sherigingiz bilan sayr qilib yuribsiz: fontan atrofida esa bir nechta yengiltak yoshlar qiy chuv qilib, bir-biriga suv sepishmoqda;

1894. Zenith (zenith) eng baland nuqta, cho'qqi: (Zenit) Zenit futbol jamoasi shoxsupaning eng yuqori o'rmini egallash uchun astoydil harakat qilmoqda.

1895. Abbreviation (ebriveyshn) – qisqartirish, qisqartma: (efirda yoshlandi) Jurnalist to'g'ridan-to'g'ri efir paytida uning ish soatlari qisqartirilishini eshitib efirda yoshlangan ko'zlarini artmoqda;

1896. **Abeyance (ebiyens) – bedaraklik, noaniqlik: (Biyonsa)** Shou biznesda ko'rinmay qolgan qo'shiqchi Biyonsa qayerdaligi noma'lumligicha qolmoqda;
1897. **Abide (ebayd) – sodiq qolmoq, chidamoq: (mega bayt)** Internetdan qancha ko'p foydalansam ham Beeline menga sodiq qolib chidamoqda;
1898. **Abnormal (ebno'ml) – g'ayritabiiy, noodatiy: (normal)** Kohinlar normal insonlardan farqli ravishda qandaydir g'ayritabiiy sehrli kuchga ega bo'lishadi;
1899. **Aboard (ebo'rd) – poyezd, samolyot bo'rdi: o'xshash so'zlar;**
1900. **Abridge (ebrij) – qisqartirmoq, chegaralamoq: (bridge-ko'prik)** Ikki daryoni birlashtiruvchi yangi qurilgan ko'prik aylanma yo'ldagi masofani ancha qisqartirdi;
1901. **Abrupt (ebrapt) – to'satdan, kutilmaganda: (Ibrat)** Ibrat dars tayyorlab o'tirgan edi, to'satdan do'sti kelib qoldi;
1902. **Absent (absnt) – kelmagan, yo'q: (afsun)** Garri Potter afsun o'qib sinfxonaga kirish eshigini yo'q qilib qo'ydi;
1903. **Academy (ekedimi) – akademiya: o'xshash so'zlar;**
1904. **Accelerate (esilereyt) – tezlashtirmoq, kuchaytirmoq: (eskalator)** Eskalatorda yuqoriga chiqayotgandingiz, bidan tezlashib ketganidan havotirdasiz;
1905. **Access (ekses) – kirish: (aksiz)** Kompaniya aksiz markalarini sotmagani uchun bosqinchilar binoga kirish eshigini yopib tashladi;
1906. **Accessory (ekseso'ri) – qo'shimcha buyum, aksessuar: o'xshash so'zlar;**
1907. **Accomodation (ekomodeyshn) – boshpana, turar joy: (Akamda ishim)** Akamda zarur ishim bor edi, zudlik bilan yashash joyiga bordim;
1908. **Accompany (ekompeni) – hamroh bo'lmoq: (kompaniya)** Do'stim menga kompaniyagacha hamrohlik qildi, birga suhbatlashib ketdik;

- 1909. Accomplishment (ekomlishment) – tugallamoq, muvafaqiyatga erishmoq: (kompliment) Shaxsiy biznisingizda muvafaqiyatga erishganingiz uchun tanishlaringiz sizni maqtashmoqda (kompliment qo'yishmoqda, qanday yaxshi!!!)**
- 1910. Accord (ekord) - ixtiyoriy ravishda rozi bo'lmoq: (akkordion) Yaqinlar davrasida ziyofatdasiz, sizdan akkordion chalib berishni iltimos qilishdi. Siz esa bajonidil rozi bo'ldingiz, chunki bu sevimli mashg'ulotingiz;**
- 1911. Accrue (ekryu) – to'plamoq, oshirmoq: (akr-o'lchov birligi) Bir fermer ming akr yeri borligi va uni yana oshirishi haqida maqtanmoqda;**
- 1912. Accumulate (akumyuleyt) – to'plamoq, yig'moq: sinonim so'zlar;**
- 1913. Accuse (ekyuz) – ayblamoq, qoralamoq: (ikki yuz) Ikki yuzi qip-qizil odamni 200 mln o'girlaganlikda ayblab tergov qilishmoqda;**
- 1914. Acquaint (ekkuvaynt) – ma'lum qilmoq, bildirmoq: (ekvivalent) Xitoyliklar har qanday buyumning ekvivalent-o'xshashini ishlab chiqara oladi;**
- 1915. Actual (ekchl) – asosiy, haqiqiy, faol, muhim: (epchil) Bugungi jadal hayotda faqat epchil va faol mutaxassislar o'z o'rmini egallamoqda;**
- 1916. Acute (ekyut) – o'tkir, ziyrak: (akula) Akula o'ta ziyrak, tishi o'tkir jonivor (buni bilasiz);**
- 1917. Adhesive (edesiv) – yelim, yopishqoq: (Edison) Edison kashf qilgandan buyon telefon insonlarning yaqin hamrohiga aylandi, ayniqsa hozirgi ayrim yoshlarning qo'lidan tushmaydi, yelimdek yopishib qolgan;**
- 1918. Adjoin (ejoyn) – yaqin, yondosh bo'lmoq: (ajoyib) Yaqinda yonimizga ko'chib kelgan qo'shnimiz ajoyib insonlar ekan-samimiy, dilkash;**
- 1919. Adjust (ejast) – tuzatmoq, tartibga keltirmoq: (egasi) Ijaraga olgan mashinangiz buzilib qolgan edi tuzattirib berishi uchun egasiga olib bordingiz;**
- 1920. Admiration (edmireyshn) – quvonch, zavq: (admiral) Dengiz safarida admiral bilan yuzma-yuz ko'rishish bir dunyo zavq bag'ishladi;**

1921. **Admit (edmit) – ruxsat bermoq, rozi bo'lmoq: (yedim itni)** Och qolgan sayyoh do'stiga men yedim itni go'shtidan sen ham ol deb ruxsat berdi;
1922. **Adopt (edopt) – asrab olmoq, qaror qabul qilmoq: (adaptr)** Adaptrim yo'qolib qolgan edi, yangisini olishga qaror qildim;
1923. **Adore (edo') – qattiq sevmok, telba bo'lmoq: (ado)** Majnun laylini qattiq sevib, ishqida ado bo'lgan;
1924. **Adorn (edo'rn)- bezatmoq: (e dorini)** Kasalxonada bolalar yangi yil archasini bezatishga narsa topolmay ohiri e dorini ol shu bilan bezatib chiqamiz deyishdi;
1925. **Advanced (edvansid) – ilg'or, intiluvchan, o'zlashtiruvchi:** bu so'zni bisangiz kerak-ingliz tili darajalrini eslang;
1926. **Adverse (edvers) – zararli, yomon: (versiya-variant)** Tamakining har qanday varianti sog'liqqa zarar;
1927. **Aerial (eriyal) – antenna, havo to'lqini: (ariel)** Ariel kir yuvish kukuni havo to'lqini uzilishiga olib keladi;
1928. **Affect (affekt) – ta'sir qilmoq: (effekt)** o'xshash so'zlar;
1929. **Affiliate (efilieyt) – birlashtirmok, a'zolikka qabul qilmoq: (eyfil)** Diqqat e'lon! Yangi parfimeriya firmasi ochildi. Unga a'zolikka qabul qilinganlar Eyfil minorasida tushlik qilish uchun 2 kishilik chiptaga ega bo'ladi. Shoshiling !!!
1930. **Affirm (efirm) – tasdiqlamoq, isbot qilmoq: (firma)** Firma maxsulotlari fransuz ekspertlari tomonidan tasdiqlangan (reklama...)
1931. **Afford (effo'd) – qurbi yetmoq: (fo'rd)** Mercedes olishni xoxlagan edim, ammo Fo'rdga zo'rg'a qurbim yetdi;
1932. **Aggravate (egreveyt) – yomonlashtirmok, og'irlashtirmok: (obagrevatel- isitgich)** Tokli isitgichdan ko'p foydalansangiz lohas qilib, sog'ligingizni yomonlashtirishi mumkin;

1933. **Aggregate (egrigeyt) – to'plam, jamlamoq: (agrar)** Agrar yerlarning jami hisob qilinib fermerlarga bo'lib berildi;
1934. **Agony (egeni) – dard, iztirob: (ko'yilagini)** ko'chada bir mast ko'yilagini yirtib iztirob bilan baqirib yig'lamoqda;
1935. **Aid (eyd) – yordam, ko'maklashmoq: (Aid)** Yunon afsonalariga ko'ra Aid barchaga yordam beruvchi ma'bud bo'lgan;
1936. **Ailment (eyilment) – kasallik, azob: (aliment)** Ajrashgan xotin eridan ko'proq aliment undirish uchun “bolam kasal”deb bahona qildi;
1937. **Aim (eym) – maqsad, niyatga erishmoq: (aybim)** Mening aybim nima edi ohiri meni qamab maqsadingga yetdinmi deb er hotiniga nola qilmoqda;
1938. **Alert (elert) – ogoh, hushyor: (Albert)** Uyqisirab yotgan Albert Eynshteyn boshiga olma tushgach hushyor tortib, fizik qonunni yaratgan ekan;
1939. **Aliyen (eliyen)- begona, chet ellik: (Ali)** Internetda tanishgan chet ellik qizi bilan ko'risish uchun Ali chet el safariga otlandi;
1940. **Alliance (eliyans) – birlashma, ittifoq: Shahrimizdagi Alliance Finance** Bankxorijiy banklarbilan ittifoq tuzdi;
1941. **Alignment (elaynment) – birlashma, ittifoq: Sinonim so'zlar;**
1942. **Alike (elayk) – o'xshash, bir xil: (nike like)** Nike kompanyasi ishlab chiqargan krossovka o'xshash surat Facebookda chop etib like ko'proq yig'gan odam tovon puli to'lab beradigan bo'ldi;
1943. **Allocate (elokeyt) – taqsimlamoq, joylashtirmoq: (Aloqa)** Aloqa kompaniyalari bayram munosabati bilan abonentlarga bonuslar taqsimlamoqda;
1944. **Allowance (ellovens) –maosh, stipendiya, nafaqa: (avans)** Oy boshi bo'lishiga qaramay Hayitlik qilib avans berishdi, juda xursand bo'ldim;
1945. **Alloy (elloy) – eritma, quyma: (loy)** Tasavvur qiling jazirama issiq, quruvchi ustalar g'isht qolipiga loy quyishmoqda;

1946. **Ally (alay) – hamkor, sherik, tanish (oloy)** Oloy bozorida sheriklarini chuv tushirgan tovlamachi hibsga olindi;
1947. **Altitude (eltityud) –baland(lik): (olti fut)** Faraz qiling uyingizdan olti fut balandlikda vertolyot uchib yuribdi;
1948. **Ambassador (embesedo') – elchi, diplomat: (damba ustida)** Hudkush terrorchi elchini garovga olib damba ustida portlatish bilan tahdid qilmoqda;
1949. **Ambiguous (embigyo's) – shubhali, mujmal, noaniq: (Mozambik uyi)** Mozambik oq uyi hodimlari har kecha shubhali sharpalar ko'rishayotganidan shikoyat qilishmoqda;
1950. **Ambitious (embishous) – shuhratparast: (andishasiz)** Shuhratparast insonlar andishasizlik qilib ko'pchilikning dilini og'ritadi;
1951. **Amendment (emendment) – to'g'rilash, tuzatish: (Amanda)** Amanda yangi loyiha hatolariga bir qanchatuzatishlar kiritdi;
1952. **Ammunition (emyunishn) – o'q-dori: (imunitet)** o'q-dori avtomat qurolining imuniteti desak ham bo'ladi;
1953. **Amplify (emplifay) – dunyoqarashni, fikrlashni kengaytirmoq: (Amplify 5)** Amplify 5 taqinchoqlari nano texnologiya asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, sog'liqni mustahkamlaydi va dunyoqarashni o'zgartiradi; (reklama...)
1954. **Ancestor (enseste) – ajdod, ota-bobo: (un sisterna)** Ota-bobolarimiz qadimda hirmonni un sisternada emas xumlarda saqlagan;
1955. **Anchor (enkor) – langar: (anhor)** Anhorda suzayotgan kema kapitani qirg'oqqa yaqinlashgach "langarlar tushirilsin" deb buyurdi;
1956. **Animate (enimeyt) – jonlantirmoq: {animatsion film-multfilm} (animatsiya)** o'xshash so'zlar;
1957. **Annex (enneks) – zabt etmoq, egallamoq: (aleks)** Madagaskar multfilmidagi Aleks nomli sher butun o'rmonni zabt etishni orzu qiladi;

1958. Annoy (ennoy) – ranjitmoq, jig'iga tegmoq: (Anna) “Anna va qirol” filmida Anna qirolni ranjitsa ham haqiqatni aytishdan qo'rqmaydi;

1959. Anxoius (enkshes) – notinch, tashvishli: (anavi kishi) Sumka ko'tarib turgan anavi kishi tashvishli ko'rinadi tinchlikmikan desam, bozorda pulini o'g'irlatib qo'ygan ekan;

1960. Anyhow (enihau) – qanday bo'lmasin: (nihau) Samarqandni aylanib yurgan xitoylik sayyoh “nihau, nihau” deb yo'lni so'rashga urinmoqda;

1961. Ape (eyp) – maymun, taqlid qilmoq: (apple) Sirkdagi maymun olmani otib o'ynab, turli harakatlar bilan odamlarga taqlid qilishga urinmoqda;

1962. Apologize (epolojayz) – uzr so'ramoq: (epilog) Yozuvchi epilogida xato-kamchiliklar uchun uzr so'rab asarga yakun yasadi;

1963. Appeal (epiyl) – murojat, da'vat qilmoq: (Apple) Apple kompaniyasi hammani o'z texnologiyalaridan foydalanishga da'vat qilmoqda;

1964. Applicant (eplikan) – nomzod, ariza beruvchi: (apilkani) Qishloqlarda pechkaga yoqish uchun apilkani narxi arzonlashishiga ovoz berishmoqda;

1965. Appoint (epпойnt) – tayinlamoq, joy-joyiga qo'ymoq: (ayni payt) Yoshlarga keng imkoniyatlar yaratigan. Shunday ekan hayolingizni joyiga qo'yib, astoydil o'qib-o'rganing va baxtli kelajagingizni tayin qiling!

1966. Appreciate (epreshieyt) – qadrlamoq: (aparat) Zamonaviy aparatlar ishimizni osonlashtiradi, qadriga yetib unumli foydalaning;

1967. Apprentice (eprentis) – shogird: (apenditsit) Tajribali shifokor shogirdiga apenditsitni operatsiya qilishni o'rgatmoqda...

1968. Approximately (eproksimitli) – taxminan, chamasi: (apostrof) “Xatolaringizga qaraganda grammatikani bilmaysiz chamasi. Apostrof belgisini yaxshilab o'rganing” dedi ustoz talabasiga;

1969. Aptitude (eptityud) – qobiliyat, iste'dod: (ipni tut) Iste'dodli dorboz yiqilayotgan shogirdiga ipni tut deb baqirdi;

1970. **Arbitrator (arbitreyte) – sudya, hakam: (abiturent)** Imtixon natijalaridan norozi bo'lgan abiturent, sudya bilan maslahatlashib apelyatsiyaga ariza berdi;
1971. **Arc(h) (ark) – arka,yoy: o'xshash so'zlar;**
1972. **Ardent (a:dent) – g'ayratli, jo'shqin: (Argentina)** O'sha jo'shqin mahorat egasi bo'lmish futbolchi Messi asli Argentinalik ;
1973. **Arduous (ado'us)- qiyin, mushkul: (avgust)** Avgust oxirigacha havo issiqligidan ko'chada piyoda yurish ancha mushkul;
1974. **Arise (erayz) – ko'tarilmoq, paydo bo'lmoq: (e rays) – Ashaddiy jinoyatchi aql o'rgatayotgan oqsoqolga qarab e rays ishing bo'masing deb jahl qildi;**
1975. **Aristocrat (eristokrat) – zodagon, aristokrat: o'xshash so'zlar;**
1976. **Armour (amo'r) – zirx, ximoya qoplamasi: (amir Temur)** Buyuk sarkarda amir Temurni zirxli sovutda jang qilayotganini tasavvur qiling;
1977. **Arouse (ero'uz) – uyg'otmoq, jonlantirmoq: (araz)** Otasidan arazlab uxlab qolgan bolakayni onasi uyg'otmoqda: "tur bolam ovqatingni yeb ol"-deb;
1978. **Arrange (errenj) – tartibga solmoq, kelishib olmoq: (ranj)** Gapingizdan ranjigan do'stingizdan uzr so'rab, kelishib oldingiz;
1979. **Array (errey) – tartib, ko'rsatuv, namoyish: (arra)** Maza qilib kino ko'rib o'tirgan edingiz, arrani reklamasini berib qoldi, "bir kami shu qoluvdi" dedingiz ichingizda;
1980. **Arrogant (errogent) – mag'rur, dimog'dor: (terror agent) – Teroristlar** Jeyms Bond kinolariga qiziqib o'zlarini dimog'dor terror agenti hisoblashmoqda;
1981. **Article (atkl) – maqola, artikl (grammatikada): (yana tiklandi)** Urushdan so'ng kundalik maqolalar yozish yana tiklandi;
1982. **Artificial (artifishl) – sun'iy, qalbaki: (artel)** Artel kompaniyasi qalbaki maxsulot chiqarmaydi, haqiqiy sifat tarafdori;

1983. **Ascend (assend) – ko'tarilmoq, yuksalmoq: (asrandi)** Asrandi bola ulg'yayib biznes karyerasida yuksalib o'z oilasiga qaytishga qaror qildi;
1984. **Ascribe (eskrayb) - ...deb o'ylamoq, (skripka)** Qaylardandir yoqimli kuy eshitildi. Skripkaning ovozi bo'lsa kerak deb o'ylasam g'ijjak ekan;
1985. **Aspect (aspekt) – ko'rinish, nuqtai nazar: (asirlik)** Otasi ruxsatisiz ko'chaga chiqmaydigan bola boshqalarning fikrich asirlikda o'tirgandek ko'rinaridi;
1986. **Assault (essolt) – hujum (qilish): (asal)** Asal olayotgan ayiqqa asalarilar xujum qildi;
1987. **Assist (esist) – yordam bermoq: (asistent)** o'xshash so'zlar;
1988. **Assume (esyum) – taxmin qilmoq, zimmasiga olmoq: (sumka)** Yoqtirib qolgan sumkamning narxini so'rasam arzon ekan. Qalbakisi bo'lsa kerak deb tahmin qilgan edim sotuvchi sumkaning sifatini o'z zimmasiga oldi;
1989. **Assurance (eshurens)- kafolat, ishonch: (ashula)** Mashxur ashulachi o'z konsertida faqat jonli ijro bo'lishiga kafolat berdi;
1990. **Attain (eteyn) – yetmoq, erishmoq: (atayin)** Yirtqich bo'ri manzilga o'zi oldin yetib olish maqsadida Qizil shapkachaga atayin uzoq yo'lni ko'rsatib yubordi;
1991. **Attend (etend)- qatnashmoq, e'tibor bermoq:** Poygada qatnashayotganda gaz zahirasiga et'tiborli bo'ling. Metan o'rniga etan to'ldirib olmang!
1992. **Attic (etik) – bolaxona: (etik)** Bolaxona shiftiga eski etik osib qo'ygan boydan sababini so'rashganda "o'tmishimni esdan chiqarmaslik uchun" deb javob bergan ekan;
1993. **Attitude (etityud)-munosabat: (etikdo'z)** Hozirda oddiy etikdo'z hunarmandlarga nisbatan munosabat yaxshilanib ,ayrimlari mukofotlandi;
1994. **Attorney (eto'ni) – huquqshunos, advokat: (etanol) – Jinoyatchini oqlab chiqqan advokatni etanol spirti quyib yoqib yuborishmochi bo'ldi;**
1995. **Attract (etrakt) – maftun etmoq, e'tiborni tortmoq: (traktor)** Mashinalar to'la katta trassada ketayotgan traktorning ovozi hammaning e'tiborini tortdi;

1996. **Authority (osoriti) – hokimiyat, vakolat:** (ovsar) Alpomish qalmoq eliga borganda hokimiyat ovsar xon-Toychaxonning qo'lida edi;
1997. **Available (eveylebl) – yaroqli, foydali, loyiq: (avaylab)** Avtomobilni avaylab haydasa uzoq foydalanish mumkin;
1998. **Avenger (evenjr) – qasoskor: (avangard)** Bozorda lazer va avangard guruch sotuvchilari huddi qasoskorlardek savdo qilishmoqda;
1999. **Avenue (evinyu) - shox ko'cha: (sevinib yur)** Bunyodkor shox ko'chasiga sevinib yur deb yozilgan plakatlar osildi;
2000. **Axis (eksis) – (yer) o'qi, markazi: (essiz)** Afrikaliklar essiz yer o'qi bizning 15.12.2014 qit'ada joylashmaganda rosa sovuq bo'lardi deb orzu qilishmoqda;
2001. **Baby-sitter (beybi sitte) – enaga: (ayb sizda)** hotin eriga ayb sizda bola rosa sho'x deb enagani qo'rqitmaganizda ketib qolmasdi deb janjallashmoqda;
2002. **Backbone (bekboun) – kelib chiqish, asl-nasl: (bigbon)** BigBon ugrasining kelib chiqishi italiyaga borib taqaladi;
2003. **Backward (bekvad) – qarama-qarshi/orqa tomon 2)orqada qolmoq: (Bekobod)** bu yilgi paxta terimida Bekobod shaxri orqada qolib ketdi;
2004. **Baffle (befl) – tushunarsiz bo'lmoq, adashtirmoq, chalg'itmoq: (Vafli)** Siz labirintdasiz vafililar yo'lingizni to'sib, sizni adashtiryapti;
2005. **Band (bend) – belbog', tasma, ball, orkestr: (band)** dehqon ketmoni alishib ketmasligi uchun bandiga tasma bog'lab qo'ydi;
2006. **Bang (beng) – shovqin, taraqla(t)moq: (Bong)** Minora soatlari 12ga bong urgach, butun dunyoda shovqin suron boshlandi va hammayoqqa tarqala boshladi;
2007. **Bankrupt (benkrapt) – kasodga uchragan, bankrot: o'xshash so'zlar;**
2008. **Bar (ba:) – qaxvaxona, bo'lak, to'siq, advokatlar uyushmasi: (bar)** Barda advokatlar uyushmasi a'zolari ichimlik ichib, suhbatlashib o'tiribdi;

^{barbi}
2009. **Barber (ba:b)** - satarosh: (**barby-qo'g'irchoq**) Bir kuni yalmog'iz kampir ayollar sataroshxonasiga kirib, barbiga aylanib chiqibdi;

^{bar}
2010. **Bare (beyr)** - ...siz, yalang, bo'sh, puch: (**Bayern-Bavariya**) Bo'm-bo'sh stadionda oyoqyalang futbol o'nayotgan Bavariya jamoasini ko'z oldingizga keltiring;

^{deyarli}
2011. **Barely (beyrli)** – zo'rg'a, deyarli: “Deyarli” so'zini eslab qoling, aytilishi o'xshash;

^{barg}
2012. **Bargain (bageyn)** – savdolashmoq, kelishuv: (**barg**) Ismaloq bargi yoki boshqa ko'katlarni savdolashib arzonga oldingiz;

^{baron}
2013. **Barn (ba:n)** – ombor: (**baron**) Baronning boyliklari omborida saqlanadi. U yerda yo'q narsaning o'zi yo'q;

^{bariyer}
2014. **Barrier (beriyer)** – xalal berish, to'siq-g'ov: (**baryer**) Ingiliz tilida gaplashishda gramatik qoidalar baryeri sizni erkin suxbatingizga xalal beradi;

^{barter}
2015. **Barter (bate)** – ayirboshlash, barter: o'xshash so'zlar;

2016. **Basement (beyzmnt)** – asos, poydevor, yerto'la: (**baseball**) Ozodlik haykalining poydevori juda mustahkam bo'lib, uning yerto'lasida hattoki baseball o'ynash mumkin. (fakt emas);

2017. **Basic (beyzik)** – asosiy, muhim: (**beyjik**) Bank hodimlari uchun ish vaqtida beyjik taqib yurish asosiy va muhim shartlardan biri hisoblanadi;

^{benzin}
2018. **Basin (beyzn)** – kosa, tog'ora, hovuz, ko'rfaz: (**benzin**) Faraz qiling hovuzingiz to'la benzin, tog'oralab olsangiz ham tugamayapdi;

^{bay}
2019. **Bay (bey)** - ko'rfaz, g'alaba toji, uvillamoq: (**baykal**) Baykal ko'li ko'rfazida bir to'da bo'ri uvillamoqda..

^{bed}
2020. **Bead (bid)** – munchoq, tasbeh donasi: (**bedana**) Bedanam munchoqni yutib yuborganidan beri sayramayapdi, endi nima bo'ladi...

2021. **Beak (bik)** – tumshuq: (**bek**) Bokschilarmiz “ring egasi-bekiman” degan bir qancha chet el boschilarining tumshug'iga musht tushirib, esini kiritib qo'yishdi;

2022. **Beam (bim) – nur, porlamoq: (Mr. Bin) Janob Bin g'alati qiliqlar bilan kinoekran nurini to'sishga harakat qilmoqda;**

2023. **Bear (biya) – ayiq, dunyoga keltirmoq, tashimoq: (biya) Tassavur qiling o'rmonda ayiq biya otda yuklarini tashimoqda;**

2024. **Belittle (belitl) – mensimaslik: (little –kichkina) Kichkina jonzotlarni mensimaslik katta tashvish keltirishi mumkin. Masalan fil va sichqonni eslang;**

2025. **Bell-boy (bel-bo'y) – xizmatkor, yugurdak: (baland bo'y) Besh yulduzli mehmonxona dam olish uchun ro'yxatdan o'tdingiz. Baland bo'yli xizmatkor yuqingizni xonangizga eltib berdi;**

2026. **Belly (belli) – qorin: (bel) Ko'p ovqat yeb qo'ygan mol qorni ishganidan belini ko'tara olmay yotganini tasavvur qiling;**

2027. **Bend (bend) – egilmoq, burilish: (qalb endi) Hasratga to'la qalb endi egilib yurishga majbur qilmoqda;**

2028. **Beneath (benis) – tubida, tagida: (benzin is) Quduq tubidan benzin isi kelmoqda, naxotki neft topilgan bo'lsa;**

2029. **Beneficiary (benefisher) – foydalanuvchi, manfaatdor: "benefit" so'zidan olingan;**

2030. **Benevolent (benivoln) – himmatli, saxiy: (benzobak) Saxiy haydovchi yoqilg'ini benzobaki bilan qo'shib berib yubordi;**

2031. **Bequeath (bikues) – vasiyat qilmoq: (because-chunki) Keksabir millioner vafotidan so'ng hamma boyliklarini bolalar uyiga topshirishlarini vasiyat qildi. Chunki befarzand edi;**

2032. **Bestow (betou) – mukofotlamoq, sovg'a bermoq: (best) Har qanday kasbning eng yaxshi egalari mukofotga sazovordirlar;**

2033. **Bet (bet) – garov (o'ynamoq), aniq bilmoq: (bet) Ba'zi axmoq odamlar yutkazishini aniq bilsa ham gap-so'zlarga beti chidamay garov o'ynashadi;**

2034. **Bewilder (bevilde) – chalkashtirmoq, xijolat qilmoq: (beva oldi)** Beva ayol har kuni banan sotib olishidan xijolat bo'ldi;
2035. **Bias (bayas) – adolatsiz ravishda, tarafkashlik: (bizlar)** Bizlar kimgadir yonbosib, adolatsiz ravishda qaror chiqargan boks hakamlariga qarshimiz;
2036. **Bid (bid) – gapirmoq, narx taklif etmoq, buyurmoq: (bird-qush)** AukSIONga gapiradigan qush qo'yilgan edi, eng yuqori narx taklif qilgan bedanavoz kishi uni sotib oldi;
2037. **Bill (bil) – hisob, da'vo, afisha, qog'oz pul: (Bill Geyts)** Qimmat restoranda ovqatlangan Bill Geyts hisobni naqd pulda to'lamay chek yozib berdi;
2038. **Blacksmith (bleksmis) – temirchi, taqachi: (black, Smith)** Janob Smit qora tanli bo'lgan. Temirchilik qilib boyib ketgan;
2039. **Blade (bleyd) – tig', ingichka yaproq: (Bleyd)** Bleyd filmida bosh qaxramon faqat tig'li qurolida olishar edi;
2040. **Blast (blest) – portlash, shamol tezligi, hushtak ovozi: (bo'ldi eslatma)** Shamol tezligida yugurib kelgan soldat portlashdan komandirini ogohlantirgan edi u esa bo'ldi eslatma deb qo'ya qoldi;
2041. **Blaze (bleyz) – gulxan, yonmoq: (boplab yozdi)** Ig'vogar odam boplab yozdim hammami ustidan deb o'tirgan edi, lekin xatlarning barini pochtagi gulxanda yoqib yo'q qilgan ekan;
2042. **Bleach (blich) – oqar(tir)moq: (blinchik)** Yaxshi pishmagan blinchik tovada oqarib turadi;
2043. **Bleak (blik) – sovuqqon, erinchoq, xafa: (bilak)** Yigit xafa bo'lib o'tirgan yorini bilagidan ushlab yupata ketdi;
2044. **Bless (bles) – iltijo(duo) qilmoq, sig'inmoq: (bliss)** Do'konda bir bolakay onasidan "bliss sharbatidan olib bering" deb iltijo qilgandek yalinmoqda;
2045. **Blink (blink) – ko'z qismoq, {ochib-yummoq}: (Ab. Linkoln)** Amerika sobiq prezidenti Ab. Linkoln so'zga chiqqanda qizlarga bir ko'z qisib qo'yar ekan;

2046. **Block (blok)** – to'plam, g'o'la, to'siq, ko'p qavatli bino: **(blok-bino)** Ko'p qavatli binoning kirish yo'lagini bir uyum g'o'la bilan to'sib qo'yilganini tasavvur qiling;
2047. **Blot (blot)** – dog', izisnod: **(bot-bot)** Ajdodlarimiz, yurtimiz, oilamiz sha'niga dog' tushirmaslikni bot-bot uqtirib kelishadi mo'tabar qariyalarimiz;
2048. **Blunder (blande)** – katta xato: **(bilindi)** Apelyatsiya tekshiruvi chog'ida hakamlarning katta xatoga yo'l qo'ygani bilindi;
2049. **Bobby (bobi)** – politsiyachi: **(Bobbi)** Yaqinda bir hind filmini ko'rdim. Unda Bobbi Deol jasur politsiyachi rolini qoyilmaqom ijro etibdi;
2050. **Bond (bo'nd)** – rishta, aloqa, qarz xujjati: **(Jeyms Bond)** Agent J. Bond qarz xujjatini maxfiy tarzda olmoqchi bo'lib jinoyatchilar bilan aloqa o'ratdi;
2051. **Booby (bubi)** – tentak: **(bo'bik)** Bir bolakay tentaklik qilib bo'bik laqabli kuchukchaga tosh otib mayib qildi;
2052. **Boom (bum)** – tez o'sish, gumburlamoq: “bomba” so'zini eslang;
2053. **Boor (bua)** – tarbiyasiz, qo'pol: **(buva)** Haligi tarbiyasiz bolakay buvasiga ham gap qaytarib qo'pollik qildi. (Adabini berib qo'yish kerak...);
2054. **Boost (bust)** – ko'paymoq, yuksalmoq: **(bo'ston)** Kun sayin jonajon yurtimiz tobora yuksalib, bog'-u bo'stonlar ko'paymoqda ;
2055. **Booth (bus)** – do'koncha, kichik xona: **(avtobus)** Kichik do'koncha yonida katta qizil avtobus to'xtab, ichidan bir nechta sayyohlar tushdi;
2056. **Border (bo'de)** – chegara, chet: **(bardyor)** Yo'lda o'rnatilgan beton bardyorlar qoida buzarlari yurishiga chegara bo'lib tartib saqlaydi;
2057. **Borough (bo'rou)** – tuman, shaharcha: **(bo'ron)** Kuni kecha qaysidir xorijiy davlatda kuchli bo'ron bo'lib, bir necha shahar-u tuman aholisiga ziyon yetkazdi;
2058. **Bounce (bouns)** – sakramoq, sapchib tushmoq: **(bonus)** “Hurmatli abonent, sizga bonus tariqasida mercedes bens avtomobili taqdim etildi” degan

habarni o'qib xursandligimdan sakrab o'rimdan turib ketdim. Qarasam tushim ekan;

2059. Boundles (baundls) – cheksiz: (baland-past) Tog'ga sayr qilish uchun chiqqanimizda bu baland pastliklar cheksizdek tuyulib odamni charchatadi;

2060. Brace (breys) – biriktirmoq, mustahkamlamoq: (birinchi reys) prezidentning birinchi reysi harbiylar tomonidan qo'riqlab boriladi;

2061. Brake (breyk) – tormoz bermoq: (brak-buzuq) Katta tezlikda ketayotgan mashina oldidan kuchuk chiqib qoldi. Haydovchi darxol to'xtash uchuntormozni bosgan edi to'xtamadi, tormoz ishdan chiqqan ekan. (Davomini o'zingiz bilib oling...);

2062. Breach (brech) – rioya qilmaslik, oraliq, uzilish: (birinchi) Ko'plab avtoxalokatlarning eng birinchi sababi yo'l qoidalariga rioya qilmaslik;

2063. Breadth (breds) – kenglik, en: (birdek) Yer o'lchashda hammaga birdek teng enlilikda bo'lib berilsa adolatdan bo'lardi;

2064. Bribe (brayb) – pora berish: (bir ayb) Pora olish jinoyat bo'lishi bilan bir qatorda pora berish ham bir ayb-jinoyatdir;

2065. Bridle (braydl) – yugan, jilov: (birodar) Ot sizga birodar senga ham yugan taqib ko'rsakchi deb qo'rqitib yubordi;

2066. Brief (brif) – qisqa-lo'nda, xulosa: (brifing) Biz yoshlar ittifoqi brifingida qatnashib kelajakda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida xulosaga keldik;

2067. Brim, brink (brim, brink) – tepa, chekka qism: (birinma-ketin) Rekordchi dunyoni eng tepa tog'lariga arqonsiz chiqish bo'yicha birinma -ketin rekordlar o'rnatmoqda;

2068. Brisk (brisk) – toza, chaqqon, dadil: (risk-tavakkal) Tavakkalchi dadil ishbilarmonlar ko'p ishni chaqqonlik bilan bitiradilar;

2069. Brittle (britl) – mo'rt, tez sinadigan: (britva-ustara) Bir kishi soqolini olishni endigina boshlagan edi, ustara mo'rt ekan sinib ketib soqoli chala qoldi.. ☺;

2070. **Broadcast (bro'dkast) – tele-radioda namoyish etmoq: (bron kasting)**
Tele-radioda vokzal chipta bron qilishdagi kasting o'tkazilmoqda;
2071. **Brook (bruk) – soy, ariq, jilg'a: (Bruklin) Bruklin ko'prigidan o'tayotib soyga tushib ketgan odamni tasavvur qiling;**
2072. **Brute (bryut) – hayvon: (burgut) Mustahkam panjasida biror hayvonni ko'tarib uchib ketayotgan burgutni ko'rgan bo'lsangiz kerak;**
2073. **Bud (bad) – kurtak, g'uncha: (band) Bahorning ilk kunlaridanoq daraxtlar gullaydi va kurtak yozib band chiqaradi;**
2074. **Bully (bali) – bezori, janjalkash: (balli) Balli qizlar ansambli bezorilarni dodini berib qo'ydi;**
2075. **Bum (bam) – daydi, bekorchi: (Bombey) Bombay ko'chalarida daydi hamda bekorchilar juda ko'p;**
2076. **Buoyant (bo'ynt) – chekmaydigan, xushchaqchaq: (bo'yin tovlamoq)**
Chekmaydigan odam aroq ichishdan bo'yin tovlamoqda;
2077. **Burning (bening) – tez, keskin, shoshilinch: (bouling) Boulingda sharni shoshilinch emas, mo'ljalni aniq ko'zlab otish kerak. Ana shunda yutish mumkin;**
2078. **Burden (bedn) – yuk, og'ir tashvish: (birdan) Birdan og'ir yuk ko'tarib, o'zingizga tashvish orttirib oldingiz. Endi davolanish kerak;**
2079. **Burly (berli) – barvasta, kelishgan, azamat: (birlik) Ikki dugona avtobusda suhbatlashib ketayotsa, "Birlik" bekatidan barvasta-kelishgan yigit chiqdi. Qizlar unga maxliyo bo'lib, o'zaro nimalarnidir shivirlashmoqda...;**
2080. **Bygone (baygan) – o'tgan, boshdan kechirgan: (baraban) Kar odam baraban baland tovushidan eshitmay qolgani haqida boshidan kechirganlarini shifokorga aytib bermoqda;**
2081. **Bypass (baypes) – aylanma yo'l, kezib chiqish: (paypas) Qorong'uda paypaslanib butun o'rmonni kezib chiqish qiyin;**

2082. **By-product (bay-prodakt) – qo’shimcha maxsulot:** “Product” so’zini bilasiz, o’xshash so’zlar;
2083. **By-way (bay-vey) – yo’lak, tratuar: (Brodvey) Brodvey ko’prigida** piyodalar uchun yo’lak bo’lmaganidan odamlar norozilik bildirishmoqda;
2084. **Cab (keb) – taksi: (kabina) Patrul xodimi to’xtatgan taksi kabinasidan** shubhali buyumlar chiqdi;
2085. **Cabinet maker (kebinet meyr) – duradgor, mebel yasovchi: (kabinet manikyur)** Mebel sozlovchi usta kabinet manikyuri soxasida ishlamoqchi sababi u yengil ish qidirmoqda;
2086. **Calamity (kelemiti) – ofat, falokat: (kilometr) Bir kilometrcha oldinda** falokat yuz berganini ko’rib darxol mashinani to’xtatdingiz;
2087. **Cancer (kensr) – saraton, rak: (kanserva) Kanservalangan maxsulotlar** saraton keltirib chiqaruvchi moddalarga to’la ekan;
2088. **Candid (kendid) – samimiy, rostgo’y: (candy-konfet) Yo’lda ketayotgan** samimiy ayol urushayotgan bolalarni ajratib, nega urushayotganlarini so’radi va aybini tan olgan bolakayni rostgo’yiligi uchun konfet bilan siyladi;
2089. **Cannibal (kenibl) – odamxo’r: (kannibal) Tarxdagi kannibalizm** tushunchasida hamma ham odamxo’r bo’lmaganini bilib qo’yishimiz kerak;
2090. **Cannon (kennen) – to’p, zambarak: (keng non) Novvoy anyiqqa usul bilan** non pishiraman deb zambarak o’qi bilan tandirdagi nonlarga otib keng non yasamoqda;
2091. **Canny (kenni) – ayyor, ehtiyoykor: (kelin) “Yangi tushgan qo’shni kelin** ancha ayyor ko’rinadi, ehtiyot bo’lish kerak” dedi g’iybatchi bir ayol qo’shnisiga;
2092. **Canon (kenon) – diniy qonun, asos: (qonun) Aytilishi o’xshash so’zlar;**
2093. **Canvas (kenves) – bo’z, brezent, yelkan: (Kanzas) Yelkanlari bo’zdan** tikilgan katta kema Kanzas shtatiga yetib keldi, ichi to’la qaroqchilar...;

- 2094. Canvass (kenves) - saylovoldi harakatlari, ovoz yig' moq: (Kanzas) O' sha payt Kanzasda yangi gubernatorlik uchun saylovoldi harakatlari, mitinglar bo' layotgan edi;**
- 2095. Cape (keyp) – kalta yopinchiq, plash 2)dengiz yaqinidagi hudud: (kayp) – Bir kayp odam dengiz yaqinida bitta plashda sovuqotib may ichib o' tiribdi;**
- 2096. Capitate (kepityuleyt) – taslim bo' lmoq: (kapitan) Qaroqchilar kapitani shahar hokimini qo' lga olgach, boshqalar ham taslim bo' ldi;**
- 2097. Caption (kepsn) – sarlavha, nom: (kepka shim) Modaga mos yurish uchun kepka bilan shim bir xil rangda bo' lishi shart emas;**
- 2098. Capture (kepche) – asir olmoq, tutmoq: (qamchi) Qadimda qullarni asirlikda tutib, qamchi bilan savalab ishlatishgan;**
- 2099. Career (keriyer) – karyera, kasb, martaba: o' xshash so' zlar;**
- 2100. Cargo (kargo) – yuk, kargo: o' xshash so' zlar;**
- 2101. Carnage (kaneyj) – xunrezlik, qirg' in: (karnay) Qirg' inbarot janglar tugab, karnay sadolari yangradi;**
- 2102. Carol (kerl) – xristian bayram qo' shig' i: (qirol) Yangi saylangan qirol sharafiga saroy a' yonlari xristian bayram qo' shig' ini kuylashmoqda;**
- 2103. Cart (kat) – arava: (katta) Tasavvur qiling katta aravani to' ldirib qovun- tarvuz sotib yurishibdi;**
- 2104. Cast (kest) – uloqtirmoq, quymoq, rol o' ynamoq: “kasting”so' zini eslang;o' xshash so' zlar;**
- 2105. Castigate (kestigeyt) – jazolamoq, koyimoq: (kechkay) Muhim ishga sal qolsa kechikay deb turganingizda onangiz ovqatlanib ketgin deb koyishni boshladi;**
- 2106. Casual (kejl) – tasodifiy, chala, loqayd: (Kajol) Tasodifan Kajolni uchratib qoldim, u loqayd va beetibor ko' rinardi;**

- 2107. Casualty (kejlti) – yarador, jabrlanuvchi: (kema jildli)** Halokatga uchragan kema jabrlanuvchilarga ko'p jildli kitoblar sovg'a qilish bilan kifoyalaniq qo'ya qoldi;
- 2108. Catchy (kechi) – jozibador, esda qoladigan: (kechki)** Kechki ziyofat bir umr esda qoladigan ajoyib bo'ldi;
- 2109. Catholic (kesolik) – katolik, umumiy, olamshumul: (katolik)** O'xshash so'zlar;
- 2110. Caustic (ko'stik) – kimyoviy zaharli, o'tkir: (ko'shk)** Saroy a'yonlari xoinlik qilib, qirolning ovqatiga o'tkir kimyoviy dori qo'shib uni zaxarlashdi;
- 2111. Cater (keter) – ta'minlamoq: (kater)** Ko'ngillilar jamoasi katerda harbiylarni oziq-ovqat bilan ta'minlab turibdi;
- 2112. Caution (koujn) – ogohlantirish, ehtiyotkorlik:** Texnik buyumlar qo'llanmasida bu so'zni ko'p uchratgansiz;
- 2113. Cavalry (kevelri) – otliq askarlar: (kavalyera)** O'xshash so'zlar;
- 2114. Cavern (kevern) – katta g'or: (kavak)** Ovchi quyon kirib ketgan kavakka qarasa ichi katta g'or ekan;
- 2115. Celestial (seletial) – samoviy, ilohiy: (semestr)** G'irt ikkichi kursdoshim qandaydir samoviy kuch yordamida qishki semestrni a'lo baxolarga yakunladi;
- 2116. Cell (sel) – hujayra, element: (sel)** Qishloqqa sel kelib hamma kerakli hujayralarni ekin yerlaridan yuvib ketdi;
- 2117. Censorship (senseship) – nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qilish:(sensorli chip)** Tanqidchilar endi ishin yo'qotishi mumkin chunki avtomatik nazorat qiluvchi sensorli chip yangi texnologiyasi ixtiro qilindi;
- 2118. Censure (sensha) – tanqid qilish: senzura (matbuot ustidan davlat nazorati): o'xshash so'zlar;**

2119. **Census (sensus) – ro'yxatga olish: (sen sust)** Ish boshqaruvchi imillab ishlaydigan hodimga qarab sen sustkashlik qilib ishlayabsan bu safar mukofot pullari oluvchilar ro'yxatiga kiritilmaysan deb uni ranjitdi;
2120. **Cereal (siriye) – don- boshqoli ekin: (serial)** Jo'xori donidan qilingan pop-korni yeb serial ko'rib o'tirgan uy bekalarini tasavvur qiling;
2121. **Ceremonial (serimouniyel) – tantanali: (shirmoynon ye)** Tantanali bayramda hamma bir biriga shirmoynon ye deb ulashmoqda;
2122. **Certify (sertifay) – tasdiqlamoq, guvohlik bermoq: (sertifikat)** O'xshash so'zlar;
2123. **Chancellor (chanselo) – kansler, rais: O'xshash so'zlar;**
2124. **Chant (cha:nt) – qo'shiq, kuylamoq: (chant)** Italyan tilidan olingan. Toto Kutunyoning "La chante me countare" qo'shig'ini eslang
2125. **Chaos (keyos) – tartibsizlik: (kiyoska)** Gazeta sotuvchi kiyoska shahar tartibsizliklarida omon qolgan yagona bino bo'ldi;
2126. **Chap (chap) – yigit, kishi, darz ketmoq: (chap)** "Anavi bashang kiyingan kishi kompaniyamiz boshlig'i, chap tomonidagi yigit esa uning o'g'li" dedi kotiba yangi kelgan xodimga;
2127. **Chapter (chapte) – bo'lim, qism, jarayon: (chapda)** Said Ahmadning Tanlangan asarlar to'plami kitobining 2-bo'lim bosh sahifasining chapda uchinchi qismida juda ham ibratli gaplar yozilgan;
2128. **Char (cha:) –kuydirmoq, ko'mir qilmoq: (Charli)** Charli Chaplin telefon o'yiniga berilib ketganidan, kabobni kuydirib yubordi;
2129. **Charge (cha:j) – baholamoq, to'ldirmoq, ayblamoq, shogird: (Haj)** Shogird ustozining mehnatlarini yuqori baholab hajga obordi;
2130. **Charlatan (chaletn) – firibgar, qallob: (chol,yetim)** Bozorda oq soqolli chol bir yetim bolakayni qalloblikda ayblab hassasi bilan savaladi;

2131. **Chart (cha:t)** – jadval, grafik, dengiz xaritasi:(chat) Chatda do'stlaringiz bilan yozishib o'tirganingizda qaroqchilar hakkeri telefoningizni buzib kirib sizga Karib dengizi xaritasini jadvalli qilib tuzib berishingizni talab qilib yozdi;
2132. **Charter (cha:te)** – hujjat, imtiyoz, yollash: (shoti) Jarchi bozorda shoti ustiga chiqvolib ommaga Amirning soliq haqidagi hujjatlarini bayon qilmoqda;
2133. **Chase (cheys)** – quvmoq, ta'qib qilmoq: (choy sovub) Bir choy sovub ulgurmasdan politsachilar jinoyatchini taqib qilib ushlashga boshlig'i bilan garov o'ynadi;
2134. **Cherish (cherish)** – umid bilan o'stirmoq: (cherry-olcha) Ko'chamizdagi umid bilan o'stirayotgan olcha daraxtining shoxini bolalar sindirishibdi. Ko'rib rosa jaxlim chiqdi;
2135. **Chill (chil)** – shamolla(t)moq, sovuq: (chilla) Jazirama yozning chillasida shamollab qolgan edim, tuzalishim qiyin bo'ldi;
2136. **Chivalry (chivelri)** – mardlik, iltifotlilik: (chivin) Ikki chivin bir o'ljaning ustida uchrashib qolishib, "siz birinchi chaqa qoling sizdan bo'sin" deb bir-biriga iltifot ko'rsatayotgan edi birdan kelib tushgan tarsakidan ikkisi ham o'lib qoldi;
2137. **Chore (cho':)** – kunbay ish: (cho'l) Cho'lda suv chiqarish uchun kunbay ishga katta pul to'lanishi e'lon qilindi;
2138. **Choke (kok)** – nafasi qisilmoq, bo'g'ilmoq: (ko'kyo'tal) Ko'kyo'tal kasalligiga chalingan bemorning nafasi qisib, ko'p yo'taladi;
2139. **Chum (cham)** – oshna-og'ayni: (chumoli) Birdamlikda yaqin og'ayni bo'lib ishlashda chumolilarga yetadigani yo'q;
2140. **Chunk (chank)** – burda, bo'lak: (chunki) Chiqindi qutisini titayotgan bir ahvol kiyimdagi daydini tasavvur qiling: u bir bbo'lak non topib, shoshsha-pisha yeya boshladi. Chunki juda och qolgan;
2141. **Chute (kyut)** – qiyalik, jarlik: (kut) Inspektor jinoyatni fosh qilishda detektivdan yordam so'rab uni jarlik yonida kutayotganini aytdi;

2142. **Citadel (sitedel) – qal'a, qo'qg'on: (siltadi)** Dushman qal'ani ishg'ol qilish uchun zambarakdan o'q otib devorni buzib siltadi;

2143. **Cite (sayt) – sitata (dalil) keltirmoq, sudga bermoq:** Internet saytlarining birida artistlar xaqida yolg'on xabar tarqatgan fuqaroni sudga berishdi;

2144. **Citizen (sitizn) – fuqaro: (sirti zina)** Fransiya fuqarosi Eifel minorasi sirti zinasida turib selfi tushgani uchun jarimaga tortildi;

2145. **Civil (sivil) – oddiy fuqaro: (Sibir)** Sibirda yashab o'rgangan oddiy fuqaro Afrikaga borib qolsa qay holatga tusharkin;

2146. **Claim (kleym) – da'vo (talab) qilmoq: (kiyim)** Do'konida terminal yo'qligi sababli sotuvchi ayol haridordan kiyim haqini naqd pulda to'lashni talab qildi;

2147. **Clamour (klemua) – shovqin: (kema)** Kema ayvonida turib chag'alaklar va suvdagi baliqlarga ancha payt termulib qoldim. Dengiz shovqinidan sherigimning chaqirganini ham eshitmay qolibman;

2148. **Clamp (klemp) – qisqich, mahkamlamoq: (shlem)** Motosiklchi dan hodimini ko'rishi bilan shlemni kiyib mahkamlab oldi;

2149. **Clan (klen) – qabila, jamoa: (kelin)** Ingliz xonadonida to'y bolmoqda: kelin - hindular qabilasidan;

2150. **Clause (klouz) – qo'shma gapning bir qismi, bob: (Kluzo)** Detektiv Kulzo ingliz tilida qo'shma gaplar yasashda doim qiynalgan;

2151. **Claw (klou) – hayvon panjasi: (kilo)** Sher o'z o'ljasiga xamla qildi. Uning baquvvat panjasidan 200 kilolik buqa qochib qutula olmadi;

2152. **Clay (kley) – loy: (kley-yelim)** Bino qurilishida loy yelim vazifasini bajarib, g'ishtlarni bir-biriga mustahkamlaydi;

2153. **Clench (klinch) – siqmoq, qisib olmoq: (klinch)** Boksdagi klinch xolatidan chiqib ketish qiyinligini zarba yegan biladi;

2154. **Cliche (klaych) – qolip, tamg'a, siyqasi chiqqan gap: (qaychi)** Asabiy odam gazetadagi siyqasi chiqqan gaplarga chidolmay ularni qaychi bilan kesib tashlayabti;
2155. **Climax (klaymaks) – cho'qqi, eng yuqori nuqta: (kley maximal)** Tasavvur qiling ochligizdan kley ichib kayfiyatingizni maksimal darajada saqlamoqdasiz;
2156. **Cling (kling) – yopishib olmoq, (keling):** Kiyim tanlab,bozor aylanib yursam bir sotuvchi “keling mana bularni kiyib ko'ring” deb yelimdek yopishib oldi;
2157. **Clique (klayk) – to'da, jinoyatchilar guruhi: (laylak)** Bir to'da bezori bolalar laylakka tosh otib qanotini sindirishdi;
2158. **Clockwise (klokways) – soat srelkasi bo'ylab harakatlanish: (clock ways)** Zamonaviy elektron soat yo'lda yurgan qadamlarni hisoblab chiqadi;
2159. **Cloth (klos) – mato, dasturxon: (klass)** Samalyotda birinchi klass yo'lovchilari uchun alohida qimmat matoli dasturxon tuzab berishadi;
2160. **Clump (klamp) – daraxtzor: (qulupnay)** “Qizaloq va maymoq” multfilmini eslang: Masha va ayiq daraxtzorda qulupnay terib yuribdi;
2161. **Cluster (klaste) – guruh, bog'lam, dasta: (klaster)** Guruhlar bilan klaster uslubida konspekt tayyorlab o'tiribsiz;
2162. **Coarse (kors) – ishlov berilmagan, dag'al: (qo'rs)** Qo'pol, dag'al muomala qiluvchi insonlarni “qo'rs” deyishadi;
2163. **Coax (koks) – hushomad qilmoq, ko'ndirmoq: (kakos)** Uchrashuvga chiqqanyigit qizni ko'ndirish uchun unga kokosli shokolad va gul berdi;
2164. **Cobble (kobl) – toshli yo'l: (kobalt)** Tosh yo'lda uchirtirib kobalt xaydab ketayotganingizni tasavvur qiling;
2165. **Cockney (kokni) – londonlik, (fuqaro): (ko'hli-kelishgan,chiroyli)** Londonlik sayyoh ko'hlikkina o'zbek qizi bilan tanishib qoldi;

2166. **Cock-sure (kok-shua) – o'ziga ishongan: (ko'k shuba)** Yonimga kelib to'xtagan malibudan o'ziga ishongan, ko'k shubali yoshgina ayol tushib, salonga kirib ketdi;
2167. **Coddle (kodi) – boqmoq, qaramoq: (Qobil)** Qobil-yaxshi farzand ota-onasini boqadi, ularning ko'ngliga qarab, duosini oladi. (hikmatli so'z);
2168. **Coeducation (koedukeyshn) – aralash ta'lim (o'g'il va qiz bolalar):** Yurtimizdagi ta'lim tizimi shu turga mansub;
2169. **Cogitate (kojiteyt) – o'ylamoq, fikr yuritmoq: (colgate)** Tish pastasi olmoqchisiz; colgate boshqalariga qaraganda qimmatroq ammo sifatli. Yaxshilab o'ylab, fikr yuriting: arzoni kerakmi yoki sifatlisimi?...;
2170. **Cohesion (kohijn) – bog'lanish, birikish: (kohin)** Ibodatxona kohini “ruhlar bilan bog'lanib, muloqot qila olaman” deb hammani aldamoqda;
2171. **Coil (koyl) – g'altak, xalqa: (qoyil)** Sirk tomoshasini bolalar zavq bilan tomosha qilmoqda. Ayniqsa olovli xalqadan sakrab o'tgan yo'lbarsni ko'rib, hamma “qoyil” deb qarsak chalib yubordi;
2172. **Collide (kolid) – to'qnashmoq, olishmoq, urushmoq: (kollej)** Yaqinda bir kollej hududida bo'lgan bir necha o'smirning o'zaro olishuvi salbiy oqibatlarga olib keldi;
2173. **Collier (koliye) – ko'mir qazuvchi: (kol'ye-tilla zanjir)** Bir kuni ko'mir qazuvchi kondan kol'ye topib oldi va rafiqasiga sovg'a qildi;
2174. **Colloquial (kallokuel) – so'zlashuv: (kalla kuydirib)** Yig'inda kelinlar qo'y kallasini kuydirib so'zlashib o'tiribdi;
2175. **Column (kalumn) – ustun, vertikal to'g'ri chiziq: (kalamush)** Kalamush uy ayvoni ustunini kemirib qulatib yubordi;
2176. **Commandment (komendment) – buyruq, farmon: (komandir)** Komandir so'zi qaysi tildan olinganini bildingizmi;
2177. **Commemorate (kommemoreyt) – bayram qilmoq, nishonlamoq: (memory-xotira)** Yurtimizda “Xotira va qadrlash” kuni 9-mayda nishonlanadi;

2178. Commence (komens) – boshla(n)moq: (komissiya) Ta'lim maskanlarida komissiya tekshiruvi boshlandi;

2179. Commend (komend) – maqtamoq: Universitet rektori talabalar yotoqxonasida o'rnatilgan tartib-intizom uchun komendantni maqtadi;

2180. Comment (koment) – sharh(lamoq), izoh(lamoq): (komentariya) o'xshash so'zlar;

2181. Commit (komit) - jinoyat qilmoq, jo'natmoq: (Xomit) "O'tgan kunlar"dagi Xomit qilgan jinoyatlari uchun qamoqqa jo'natildi;

2182. Committee (kommiti) – qo'mita, komitet: o'xshash so'zlar;

2183. Commodity (komoditi) – iste'mol buyumlari, maxsulot: (kamomad) Tekshiruv natijasida iste'mol buyumlari do'konida kamomad aniqlandi, sababi yosh sotuvchi hisob-kitobni bilmas ekan;

2184. Common (komn) – ijtimoiy, oddiy, sheriklikda: Komil do'sti bilan sheriklikda ijtimoiy xizmatlar firmasini tashkil qildi;

2185. Commonsense (komnsens) – aqlirasolik, sog'lom fikrlash: (Komilni singlisi) Komilning aqliraso singlisi maktabni a'lo baxolarga bitirdi;

2186. Commonwealth (komnvels) – davlatlar hamdo'stligi: (bozorkomni veligi) Davlatlar hamdo'stligi azosi bozorkomni veligini olib qochdi;

2187. Commotion (komo'shn) – shovqin, tartibsizlik: (koma o'shani) Tartibsizliklarda jaroxatlangan harbiy bezorini ko'rsatib komada o'shani ko'rdim deb guvohlik bermoqda;

2188. Commune (kamyun) – jamoa, samimiy munosabatda bo'lmoq: (kommunal) Kommunal to'lovlarini yig'uvchi inspektorlar bilan samimiy munosabatda bo'ling;

2189. Communicative (kamyunikativ) – kirishimli, sergap: (kam yuvinar ekan chivin) Sergap odam gap qolmaganidan bo'lmag'ur gaplarini boshladi

“eshitdingizmi ko’p kasalliklar chivinlardan yuqadi chunki ular kam yuvinar ekan” deb hammani kuldirib yubordi;

2190. Communique (kamyunik) – rasmiy xabar: (kam yo’niq) Qadimda rasmiy habarlar taxtaga kam yo’niq hosil qilib yozilgan va ko’chalarga ilib qo’yilgan;

2191. Community (kamyuniti) – jamoa, jamiyat, umumiylik: (hakam yutindi) Futbolda hakam noto’g’ri qaror chiqarib jamoa etirozidan qo’rqib bir yutindi;

2192. Commute (komyut) – qatnamoq, yengillashtirmoq: (kompyuter) Kompyuter ko’p yengillashtiradi. Yaxshiroq o’rganish uchun “kompyuter savodxonligi” darslariga qatnayapman;

2193. Compact (kompekt) – zich, ixcham, lo’nda (kompakt) Disk sotuvchi kompakt disklarni paketga zich qilib taxlamoqda;

2194. Compassion (kompeshn) – rahmi kelish, achinish: (kompess) Shamollab qolgan o’g’liga achingan onasi bolaga dori berib, tomog’iga kompress bog’lab qo’ydi;

2195. Compatible (kompetibl) – uyg’un, munosib: (kompot) Turli mevalar ta’mi uyg’unlashgan muzdek kompot ichayotganingizni tasavvur qiling;

2196. Compile (kompayl) – to’plamoq, tuzmoq, yozmoq: (kombayn) Fermer kombaynda bug’doyni o’rib, xirmonga to’pladi;

2197. Complain (kompleyn) – norozilik, shikoyat, betoblik: (kam,plan) Kam plan bajarganidan norozi bo’lgan xirmonboshi fermerning ustidan hokimga shikoyat qildi;

2198. Complement (komplemen) – to’ldiruvchi, shaxsiy tarkib 2)yaxshiroq qilib ko’rsatmoq/yasamoq: (kompanya pelmen) Uddaburon hodim tekshiruvchilarga kompanyasi pelmenlari bilan siylab shaxsiy tarkibdagi ishchilarning vaziyatni ancha yaxshiroq qilib ko’rsatdi;

2199. Complexion (komplekshn) – rang, tus, qiyofa: (kompleks) Interiyer dizayner kompleksni rangiga mos tarzda jihozlab, ajoyib ko’rinishga keltirdi;

2200. Compliance (komplayns) – rozilik, ko'ngilchanlik: (pensiya) Kampir ko'ngilchanlik qilib pensiyasidan nabirasiga o'yinchoq olib berdi;

2201. Complicated (komplikeytd) – murakkab, chigal: (ko'ppak it) Mushuk sichqonning ortidan quvib endi tutay deganda ko'ppak it akillab, vaziyatni murakkablashtirdi;

2202. Compliment (komplimen) – maqtamoq, tabriklamoq: (kompliment) o'xshash so'zlar;

2203. Comply (komplay) – itoat etmoq, bajarmoq: (kompaniya) Kompaniya xodimlari boshliqning ko'rsatmalariga so'zsiz itoat qilmoqda;

2204. Composed (kampo'zd) – tinch, xotirjam, ...dan iborat: (kompot) Yana mevali muzdek kompotdan ichib xotirjam bo'ldingiz;

2205. Composure (kompo'je) – sukunat, jimjitlik: (composition-bayon) Xonada sukunat hukm surmoqda, chunki hamma jim o'tirib bayon yozmoqda;

2206. Comprise (komprayz) – o'z ichiga olmoq: (kompyuter rays) O'g'ri raysni ko'rib kompyuterni kiyimi ichiga yashirdi;

2207. Compromise (kompromis) – bitim tuzmoq, obro'sizlantirmoq: (kompromis) o'xshash so'zlar;

2208. Compulsory (kompalseri) – majburiy: (compulsory education) Maktablarda 11 yillik majburiy ta'lim tizimi yo'lga qoyildi;

2209. Compunction (kompankshn) – afsus, pushaymonlik: (kompus ekshn) Esi og'ib qolgan rejisor kompusga qarab menga ekshn rollar o'ynab berasan deb talab qo'ymoqda;

2210. Comrade (komreyd) – do'st, o'rtoq: (Konred) Doktor Konred doktor Haus bilan qalin do'st;

2211. Con (kon) – aldamoq, tovlamachilik qilmoq: (kon) Qaroqchilar oltin koniga bostirib kirib tovlamachilik qilishdi;

- 2212. Concede (kansid) – tan olmoq, yutqazmoq: (kamsit)** Sudda boshliq ishchilarini kamsitganini tan oldi;
- 2213. Conceit (konsiyt) – g’urur, kibr: (konsert)** Konsertda zalning birinchi qatoridagilar hammadan oldin o’tirganligidan g’ururlanib, boshqalarga kibr bilan qarashmoqda;
- 2214. Conceivable (konsivebl) – aqlga sig’adigan, tushunarli; (qon suyulib)** Qoni suyulib ketgan bemorning boshi aylanishini korgan shifokor tushunarli deb tashxis qo’ymoqda;
- 2215. Conceive (konsiv) – fikrlamoq, tushunmoq, homilador bo’lmoq: (konserva)** Bir homilador ayol o’ylab ko’rib, baliq konservasi yegisi kelayotganini tushundi;
- 2216. Concentrate (konsentreyt) – fikr(diqqat)ni jamlamoq: (konsentratsiya)** o’xshash so’zlar;
- 2217. Concept (konsept) – tushuncha, tasavvur: (konsepsiya)** o’xshash so’zlar;
- 2218. Conciliate (konsilieyt) – tinchlantirmoq, yarashtirmoq: (konsul)** Konsul o’zaro tortishib qolgan ikki davlat boshliqlarini yarashtirishga urinmoqda;
- 2219. Concise (konsayz) – qisqartma, aniq-ravon: (qoniqsayz)** ‘Borim shu qoniqsayiz ishga oling’ dedi ish beruvchiga qarab ishga kirmoqchi bo’lgan o’jar hodim;
- 2220. Concord (konko’rd) – moslashuv, kelishuv: (konkor-dori nomi)** Shifokor bilan maslahatlashgan bemor Konkord dorisini ichishga kelishib oldi;
- 2221. Condescend (kondisend) – iltifot ko’rsatmoq: (qandaysan)** Qirol xizmatkor ilk bora “qandaysan” deb iltifot ko’rsatdi. Bundan kekxa xizmatkorning boshi osmonga yetdi;
- 2222. Condemnation (kondemneyshn) – ayblash, qoralash: (qanday shim)** Ba’zilar har qanday shim kiygan ayollarni qoralashadi;
- 2223. Confederate (konfidereyt) – ittifoqchi, federativ: (konfederativ)** o’xshash so’zlar;

2224. Confess (konfes) – iqrор bo'lmoq, tavba qilmoq: (konfet) Otasidan kaltak yegan bolakay aybiga iqrор bo'lib boshqa konfet o'g'irlamasligini aytdi;

2225. Confide (konfayd) – ishonmoq, sirlashmoq: (koni foyda) Bozorda bodom sotayotga keb qoling koni foyda mag'izlardan oling deb baqiryabdi;

2226. Confine (konfayn) – qamab qo'ymoq, chegaralamoq: (kombayn) Sizni kombaynga qamab qo'yishdi, qo'l-oyog'ingiz bog'liq: harakatlaringiz chegaralangan bo'lsa nima qilardingiz?;

2227. Confiscate (konfiskeyt) – konfiskatsiya (musodara) qilmoq: (konfiskatsiya) o'xshash so'zlar;

2228. Conform (kanfo'm) – kelishib ishlamoq, mos kelmoq: (forma) Forma kiygan oshpazlar 7 tonnalik palov tayyorlash uchun katta qozon atrofida o'zaro kelishib ishlashmoqda;

2229. Confound (kanfaund) – chalkashmoq, chippakka chiqmoq, hayron qoldirmoq: (skafandr) Ko'chada skafandr kiyimida ketayotgan o'zga sayyoralikni ko'rganlar qilayotga ishidan chalkashib hayron bo'lib unga qarab turibdi;

2230. Confrontation (konfronteyshn) – ro'baro' kelish, yuzlash(tir)ish: (front) 9-may kuni frontda xizmat qilgan faxriylarimiz bilan ro'baro' kelamiz.

2231. Congeal (konjil) – quyulmoq, muzlamoq: (ko'ngil) Qiz bevafoqlik qilib bir necha oydan so'ng qayib uzr so'ragan yigitni kechirmadi. Chunki unga nisbatan ko'ngli muzlab bo'lgan edi;

2232. Congenital (konjenitl) – tug'ma, genetik: (qo'njini to'ldirib) Profesor qo'njini to'ldirib genetik yangiliklari tushirilgan hujjatlarini olib qochmoqda;

2233. Congession (konjeshn) – aholi zichligi, uyum: (ko'z yoshini) Aholigi zichligini bartaf qila olmagan hokim intervyu berayotganida kechiringlar deb ko'z yoshini tiya olmadi;

2234. Connoisseur (konoso':) – bilimdon, usta: (qanisan) Ishkal qilib berkinib o'tirgan shogirdini izlayotgan usta qanisan deb bo'kirib izlamoqda;

2235. Connotation (konnoteyshn) – qo'shimcha ma'no: (qanot) Qushlar ham o'zaro gaplashadi, qanot qoqishi es qoshimcha ma'no bildiradi;

2236. Conquer (konkue) – zabt etmoq, yengmoq: (kon, quvur) Qorovul kongra tushgan qaroqchilarni yengib, quvurga qamab qo'ydi;

2237. Conscience (konsayns) – insof, vijdon: (science) Ilmli insonlar vijdonan ish qilsa buyuk ishlarga qodir;

2238. Conscious (konshes) – ongli, idrokli: (qonsiz) Qonsiz jonzoqlar ongli bo'ladimi?

2239. Consecutive (konsikyutive) – izchil, muntazam: (konyuktivit) Bugungi kunda ko'z allergik kassalliklaridan konyuktivit muntazam uchrab turuvchi holat bo'lib qoldi;

2240. Consent (konsint) – izn, ruxsat: (konsert) Qiz dugonasi bilan konsertga tushishga otasidan ruxsat so'radi;

2241. Consequence (konsikuens) – oqibat, natija, ahamiyat: (qon siqib ensa) Sergap odam bilan bir kun o'tirsang qoningni siqib ensangni qotirishgacha olib boradi;

2242. Consequently (konsikuentli) – demak, binobarin, natijada: (sekundsoniya) Mayk Tayson raqibining yuziga kuchli zarba berdi, natijada raqibi bir necha soniyaga hushini yo'qotdi;

2243. Conservation (konseveyshn) – asrash, muhofaza: (konserva) Konserva maxsulotlarini salqin joyda saqlab, quyosh nuridan asrash kerak;

2244. Conservative (konserveyativ) – eskilik tarafdori, vazmin-bosiq: (konservativ) o'xshash so'zlar;

2245. Considerable (konsidrebl) – ko'pgina, katta, sezilarli: (konsert) Kecha konsertga tushdim. Konsertda ko'pgina mashxur katta-katta san'atkorlar ishtirok etdi;

2246. Considering (konsidring) – nisbatan, ...ga qaraganda: (konditsioner) Konditsioner ventilyatorga nisbatan xonani yaxshiroq sovuqadi;

2247. Consign (konsayn) – topshirmoq, sotishga jo'natmoq: (kun sayin)
Tadbirkorlarimiz chet elda sotishga kun sayin ko'proq maxsulot jo'natishmoqda;

2248. Consistent (konsisten) – doimiy, o'zgarmas, munosib: (kon sisterna)
Ulkan kon sisterna to'la benzin kelishi bilan yana doimiy ishini davom ettirdi;

2249. Console (kanso'l) – ovutmoq, yupatmoq: (konsul) Konsul pasportini yo'qotib qo'ygan chet eldagi fuqaroga yordam berishini aytib, uni yupatmoqda;

2250. Consolidate (kansolideyt) – mustahkamlamoq, birlashtirmoq: (soldat)
Xizmatdan qaytgan soldat unashtirilgan qizi bilan aloqalarini mustahkamladi;

2251. Consortium (kanso'rtium) – banklar birlashmasi: (ulkan sortli uyum)
Shveysariya huddi ulkan sortli banklar birlashmasi uyumiga o'xshaydi;

2252. Conspicuous (kanspishes) – mashhur: (konspekt) Tasavvur qilingmashxur yozuvchilar xayoti va ijodi xaqida konspekt yozmoqdasiz;

2253. Conspire (konspaye) – fitna (suiqasd) qilmoq: (fire-olov) Bir mashxur qo'shiqchiga suiqasd qilib, konsertida sahnaga o't qo'ymoqchi bo'lishdi, shukrki ularning fitnasi amalga oshmadi;

2254. Consternation (konsteneyshn) – qo'rquv, hayajon: (Konstantinni eshitdingmi) Hammayoqda shovshuvli gap Konstantinni eshitdingmi lotoreyadan katta pul yutib hayajondan yuragi yorilib o'libdi;

2255. Constituent (konstituent) – ishtirokchi, saylovchi: (konstitutsiyani)
Saylovchilar konstitutsiyani o'zgartirilishini talab qilishdi;

2256. Constitute (konstityut) – tashkil etmoq, qabul qilmoq, kuchga kiritmoq: (konstitutsiya) 8-dekabr konstitutsiyamiz qabul qilingan kun;

2257. Constrain (konstreyn) – majbur qilmoq, to'xtatmoq: (konteyner) Patrul xodimlari konteyner ortilgan yuk mashinasini to'xtatib hujjatlarni tekshirdmoqda;

2258. Constructive (konstraktiv) – ijobiy, foydali: (konstruktiv) o'xshash sozlar;

2259. Construe (konstru) – soʻzma-soʻz tarjima qilmoq, tushunmoq: “true” soʻzini eslab qoling. Rostini aytganda, boshqa tildagi maʼlumotlarni soʻzma-soʻz tarjima qilsangiz maʼnosiga toʻliq tushunmay qolishingiz mumkin;

2260. Consume (kansyum) – isteʼmol (xarajat) qilmoq: (kostyum) Kiyim doʻkonida chet elda ishlab chiqarilgan birgina kostyum uchun hamma pulni xarajat qilib yubordingiz, taksiga ham qolmadi: endi uyga qanday ketasiz...;

2261. Consummate (kansyumeyt) – mukammal, tugatmoq: (kostyum ayt) Oʻzini chiroyli va mukammal deb biladigan olifta kostyumiga qarab qani aytchi dunyoda men eng chiroylimanmi deb gapini tugatdi;

2262. Consumption (konsampshn) – isteʼmol qilish, sil kasalligi: (koʻnsa hamshirani) Sil kasalligiga chalingan boy yugurdaklariga koʻnsa hamshirani shu yerga olib kelling deb buyurdi;

2263. Contaminate (kantemineyt) – ifloslantirmoq, zararlamoq: (taʼminot) Kuchli chang-toʻzonda taʼminot boʻlimidagi barcha maxsulotlar zararlandi;

2264. Contemplate (kontempleyt) – fikr yuritmoq, tomosha qilmoq: (temple-ibodatxona) Hind filmlaridan birida shohruhxon va Kajol katta ibodatxonani tomosha qilib, poyezddan qolib ketgan edi;

2265. Contemplation (kontempleyshn) – tafakkur, fikr-mulohaza: (konterpleysteyn) Mashhur oʻyinlardan boʻlmish konter pleysteynda oʻynalsa tafakkurni oshirishi isbotlandi;

2266. Contemporary (kontempreri) – zamonaviy, zamondosh: (qon temperaturasi) – Soʻngi zamonaviy meditsina texnologiyalari qon temperaturasini meʼyorga keltirish bilan kassallikga qarshi kurashmoqda;

2267. Contemptible (kontemptibl) – razil, pastkash: (konfetni tutishi bilan) Toʻyda bir pastkash odam tepaga otilgan konfetlarni tutishi bilan oʻsha zahotiyoyoq yeb yubormoqda;

2268. Contract (kontrakt) – shartnoma, qisqartirmoq: (kontrakt) oʻxshash soʻzlar;

2269. Contradict (kontredikt) – qarshilik ko'rsatmoq, ziddiyatga uchramoq: (ko'ndirardik) Banditlar politsachilarga bunchalik qattiq qarshilik ko'rsatmaganimizda ularni pul berib ko'ndirardik deb xayol surishyapti;

2270. Contradictory (kontredikteri) – teskari, zid: o'xshash so'zlar;

2271. Contrary (kontreri) – aksincha, qarama-qarshilik: (konter ari) Konter o'yinida arri simulyatori qurol sifatida qo'llaniladigan bo'ldi, u raqibni emas aksincha ishlatgan odamni chaqib o'ldiradi;

2272. Contributor (kontribyutr) – xizmatchi-xodim, ehson qiluvchi: (country-bu yurt) Yurtimizda oddiy xizmatchilar ham ro'za va hayit kunlari ko'p ehson qiladi;

2273. Contrive (kontrayv) – loyihalashtirmoq, erishmoq, kashf etmoq: (kontur, ayvon) Ayvonda o'tirib kontur o'yinining yangi turini kashf qilishga erishdingiz: endi boyib ketasiz;

2274. Controversial (kontravershl) – bahs-munozarali: “kontraversiya” o'xshash so'zlar;

2275. Convalesce (konvelis) – shifo topmoq, sog'aymoq: (kon, vals) Hozirda tuz bilan davolovchi shifo turi mavjudligini bilsangiz kerak. Tuz g'orida davolanib shifo topganlar xursandchilikdan konda vals tushmoqda;

2276. Convenient (kanvinyent) – qulay, yaqin: (kombinat) Shahar metalurgiya kombinati aholi ishlashiga qulay joyda joylashgan;

2277. Convention (konvinshn) – an'ana, odat, syezd, shartnoma: (konvensiya) o'xshash so'zlar;

2278. Conversion (konvershn) – o'zgar(tir)ish: (konvert) Tamg'alangan konvertni ochdingiz, ichidan ko'p variantli test savollari chiqdi;

2279. Convict (konvikt) – maxbus, aybdor deb topmoq: (konflikt) O'zaro konfliktida sherigini jarohatlaganlikda ayblab bir o'spirin yigitni hibsga olishdi;

2280. Convince (konvins) – ishon(tir)moq: (kon vinosi) Barda sotuvchi bu kon vinosi ancha vaqt saqlangan deb hammani ishontirmoqda;

2281. **Convulsion (konvalshn) – ruhiy iztirob: (Kovalski) Kovalski** laqabli pingvin orolda do'stlarini yo'qotib qo'yganidan ruhiy iztirobga tushdi;
2282. **Cope (ko'up) – uddalamoq, qiyinchilikni yengmoq: (ko'p) Ulkan maqsad** yo'lida ko'p qiyinchiliklarni yengish kerak bo'ladi;
2283. **Copious (ko'pio's) – ko'p miqdorda, keragidan ortiq: (ko'p yozsa) Adib** ko'p miqdorda kitob yozsa qadri qolmaydi;
2284. **Copyright (kopirayt) – mualliflik huquqi: “kopiya, right-huquq” so'zlarini** eslab qolsangiz bas;
2285. **Cordial (kodiyl) – samimiy, sidqidildan, yurakdan: (kordial-yurak)** “Kardiologiya” so'zini bilsangiz kerak;
2286. **Corporal (koporel) – moddiy, jismoniy: “Corpus-tana, jasad” so'zini oldin** o'rgangansiz;
2287. **Correlate (korrileyt) – bir-biriga aloqador bo'lmoq: “relate” so'zidan** olingan;
2288. **Correspondence (korspondens) – o'xshashlik, xat yozish: (korespondent)** Muxbir maqolasi o'xshashligidan shikoyat qilib hamkasbi ustidan shikoyat xati yozmoqda;
2289. **Corrode (korroud) – zanglamoq: (korroziya) Suvda korroziyaga uchrab** zanglab, yemirilgan temirni tasavvur qiling;
2290. **Corrupt (korrapt) – yo'ldan urmoq, pora bermoq: (korrupsiya) o'xshash** so'zlar;
2291. **Cosmopolition (kosmopolishn) – ko'p millatli, dunyoqarashi keng: (kosmopolitan)** Kosmopolitan jurnali har bir mamlakatda chiqishi va ko'p millatli ma'lumotlar berilsa ham uni faqat dunyoqarashi keng odamlar o'qiydi;
2292. **Cosy (ko'zi) – qulay, shinam: (qo'zi) Qulay va shinam qo'yxonada qo'zilar** chopqillab yuribdi;

- 2293. Counsel (konsl) – maslahat, advokat: (konslager)** Ikkinchi jahon urushida yaxudiyarlarni konslagerda himoya qiladigan advokatlari bo'lmagan;
- 2294. Council (ko'nsil) – tashkilot, kengash: (kosullik)** Mamlakatimizda BAA konsullik tashkiloti o'z ishini boshladi;
- 2295. Courage (korij) – jasorat, mardlik: (ko'rish)** Kelin bilan birichi uchrashuvdagi ko'rishishda jasorat ko'rsatib maqtanish shart emas;
- 2296. Court (ko'rt) – sud, saroy, ko'rt, ko'nglini olmoq: (ko'rt)** o'xshash so'zlar;
- 2297. Covet (kovit) – orzu qilmoq, qattiq istamoq: (sovet)** Ota-bobolarimiz Sovet tuzumi zulmidan ozod bo'lishni orzu qilishgan;
- 2298. Coward (kouverd) – qo'rqoq, nomard: (cow)** Bir kuni nomard shoqol sigirga hujum qilgan ekan sigir uni chunonan suzibdiki, shu-shu shoqol sigirdan qo'rqib qolibdi;
- 2299. Coy (ko'y) – uyatchan, tortinchoq: (qo'y)** Soy bo'yida qo'y boqib yurgan bolakay juda tortinchoqligidan chaqirsam uyalib qochib ketdi;
- 2300. Cradle (kredl) – beshik, asli kelib chiqishi: (Kreml)** Beshikning asl kelib chiqqan joyi Kreml emas, o'zimizning yurt hisoblanadi;
- 2301. Craft (kreft) – kasb-hunar, kema, samolyot: (kaft)** Yo'lingizni to'sgan folbin kaftingizga qarab qaysi kasb egasi bo'lishingizni bashorat qilmoqda: "siz oddiy hunarmand emas, kema yoki samolyot boshqaruvchisi bo'lasiz";
- 2302. Crag (kreg) – qoya: (keragi)** Balan qoyalarga ismingizni bo'yoq bilan yozib ularni bulg'ashni keragi yo'q;
- 2303. Cram (krem) – yuzaki tayyorlanmoq, to'ldirmoq: (krem)** Shoshganingizdan bayramga yuzaki tayyorlandingiz. To'rtni krem bilan bezash o'rniga mevalar bilan to'ldirdingiz;
- 2304. Cramp (kremp) – talvasa, tomir tortishishi: (krem)** Agar tomingiz tortishib qolsa talvasaga tushmay krem surtib massaj qiling;

- 2305. Cranium (krenium) – bosh suyagi: (kran uyum)** Kran bosh suyaklari uyumi bilan to'la tobutni tepaga olib chiqdi;
- 2306. Crave (kreyv) – o'tinmoq, yalinmoq: (kiraver)** O'qituvchi talabaga kiraver darsga deb yalinmoqda;
- 2307. Creator (krieyte) – yaratuvchi, ijodkor: (krater)** Ijodkor rassom Marsdagi kraterlarni suratini chizmoqda;
- 2308. Creature (krieyche) – jonzot : (kecha)** Kecha uyga juda kech qaytdim: ko'chalar zim-ziyo, atrofda hech qanday jonzot yo'q edi;
- 2309. Credentials (kredenshils) – ishonch yorliqlari: (kishmish)** Bir bog'bonga katta bog'da kishmish yetishtirish uchun ishonch yorlig'i topshirildi;
- 2310. Credulous (kredyules) – ishonuvchan, laqma: (kredit yo'li)** Laqma tadbirkor faqat kredit olish yo'li bilan boyib ketish mumkin deb qarzga botdi;
- 2311. Creed (krid) – ishonch, e'tiqod: (kredit)** Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchisiz, loyihangiz tasdiqlangach bank sizga ishonch bildirib katta kredit ajratdi. Omadingizni bersin!;
- 2312. Crescent (kreshn) – yarim oy shakli: (crescent moon- yarim oy)** Qizil yarim oy jamiyati belgisini ko'z oldingizga keltiring;
- 2313. Crest fallen (krest fo'llen) – xafa, g'amgin: (kreslo, folbin)** Kresloda bir folbin g'amgin o'tiribdi. Sababi klient yo'q: hech kim unga ishonmay qo'yg'an;
- 2314. Crest (krest) – qush toji, tepa-cho'qqi: (krest-xoch)** Tasavvur qiling: tog'ning tepasida bir qushning tojidan mixlab, krestga qoqib qo'yishibdi...bu qanday bedodlik!;
- 2315. Crevice (krevays) – tog' oralig'i-dara: (Kir, vals)** Tog'lar orasida kir ko'ylaklar bilan odamlar valsga tushishmoqda;
- 2316. Crew (kryu) – ekipaj, guruh: (kir yuv)** Kema kapitani ekipaj azolari o'zlari qo'lida kir yuvishini buyurdi;

- 2317. Crib (krib) – shpargalka, izohli lug'at: (karib)** Tasavvur qiling: karib dengizi qaroqchilari imtihon topshirmoqda. Jek Vorobey esa ayyorlik qilib lug'at va boshqa shpargalkalardan foydalanmoqda;
- 2318. Cripple (kripl) – mayib-majruh {qilmoq}: (kripto)** Kripto valyuta odatdagi pul birliklarini yo'q qilib barcha boylarni majruh holga keltirib qo'ydi;
- 2319. Crisp (krisp) – mo'rt, salqin havo: (qirsillab)** Salqin havoda uy derazasi mo'rtlashib qarsillab sindi;
- 2320. Crony (kroni) – qadrdon do'st: (korona-toj)** Faraz qiling ikki qadrdon do'stlar bitta tojni talashib urishmoqda;
- 2321. Crucial (kryushel) – muhim, jiddiy: (krisha-tom)** Uy qurilishidagi eng muhim va jiddiy bosqichlaridan biri tomni mustahkam shifer bilan yopishdir;
- 2322. Cruise (kryuiz) – kemada sayohat qilmoq: (T. Kruz)** Mashhur aktyor Tom Kruz kemada sayohat qilmoqda;
- 2323. Crusade (kryuseyd) – salb yurishi, jang: (kursant)** Xarbiy bilim yurti kursantlari jang san'ati sirlari bo'yicha imtihon topshirmoqda;
- 2324. Crust (krast) – sirt, yuza, qobiq: (kraska)** Boyagi uy tomining sirti kraskalangan bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi;
- 2325. Crutch (krach) – qo'ltiq tayoq: (sakragich)** Qo'ltiq tayoqda yurishdan zerikkan bemor yosh bolalar bilan sakragichda o'ynab ketdi;
- 2326. Cumbersome (kambesem) – beso'naqay, qo'pol: (kolbasa)** Bir kuni do'kondan qaytayotsam yo'limdan beso'naqay katta it chiqib qo'pol ovozda vovulladi. Qo'rqib ketganimdan sumkamdagi kolbasani bergan edim jim bo'lib yeya boshladi;
- 2327. Cunning (kanning) – makkor, yoqimtoy: (tekkaning)** Makkor ayol jahlimga tekkaning o'zingdan ko'r deb hammani qo'rqitib qo'ydi;
- 2328. Curb (karb) – jilovlam, bo'ysundirmoq: (g'arb)** Karib dengizi qaroqchilari butun g'arb davlatlarini bo'ysundirmoqchi bo'lgan;

- 2329. Cure (kyue) – dori-darmon, davolamoq: (pyure)** Bir tabib be'morlarni dori emas faqat kartoshka pyure berib davolar ekan;
- 2330. Curious (kyurius) – noyob buyum, qiziquvchanlik: (Sirius)** Garri Potterning tutingan otasi Sirius Blek noyob buyumlarga qiziquvchan bo'lgan;
- 2331. Current (karent) – bugungi, joriy, keng tarqalgan, oqim: (karomat)** Joriy yilda internetda karomat ko'rsatmoqchi bo'lib baxtsiz hodisaga uchragan haydovchilar soni ancha ortgan;
- 2332. Curriculum vitae (kurikyulum vitay) – tarjimai hol (ko'rib turganizday bittayam)** Hafsalasi pir bo'lgan ish boshqaruvchi boshliqqa ko'rib turganizday bittayam ishchining tarjimai holi bizga to'g'ri kelmaydi ekan deb habar bermoqda;
- 2333. Dagger (dejje) – xanjar: (dajjol)** Qo'lida xanjar tutgan dajjolni faraz qiling;
- 2334. Dapper (deppe) – bashang kiyingan: (do'ppi)** London ko'chalarida sayr qilib yursam, bashang kiyingan odam boshimdagi do'ppini ko'rib "o'zbekmisiz" deb so'radi;
- 2335. Dart (da:t) – ildamlamoq, intilmoq: (dard)** "Bemorning o'zi dardni yengishga astoydil intilsagina tuzalishi tezlashadi" dedi shifokor bemorning yaqinlariga;
- 2336. Dawn (daun) - tong, sahar: (daun)** Daun kasalligiga chalingan bir kishi har tong saharda turib badantarbiya qilishga odatlandi;
- 2337. Dazzle (dezl) – ko'zni qamashtirmoq: (deraza)** Deraza pardasini ochishim bilan quyosh nuri ko'zimni qamashtirdi;
- 2338. Dead-line (ded-layn) – belgilangan muddat, muhlat: (dodlayin)** To'lov vaqti o'tib ketib qarzga botgan er hotiniga qarab endi qayga borib dodlayin baribir foydasi yo'q deb qo'ya qoldi;
- 2339. Deadlock (dedlok) – mushkul ahvol, chorasizlik: (Sherlok)** Sherlock Holmsning yoniga bir ayol kelib "mushkul ahvolda qoldim yordam bering" dedi;

2340. Deadly (dedli) - juda, xatarli, shafqatsiz: (Jet Li) Yaqinda bir zo'r film ko'rdim. Unda Jet Li juda xatarli voqealarni boshdan kechiradi;

2341. Deal (dil) – kelishuv, anchagina, tarqamoq, shug'ullanmoq: (diller) Hozirda dillerlik bilan shug'ullanish ancha keng tarqalgan;

2342. Dealing (diling) – sotish usuli: (keling) Bozorda maxsulotni tez sotish usuli: “kelin-keling” deb haridorlarga shirin muomalada bo'lishdir;

2343. Debauchery (dibochoeri) – axloqsizlik, ochko'zlik: (debocha-boshlang'ich, bir qismi) Ziyofatda mast bo'lib janjal ko'tarish axloqsizlikning bir debochasidir;

2344. Debris (dibris) – xaroba, vayrona: (ins-jins) Eski xaroba joylarda ins-jinslar ko'p bo'ladi deyishadi;

2345. Deceit (disit) – hiyla, nayrang: (desit-10) Bosit ismli o'quvchi hiyla-nayrang bilan 10ta testning javobini sinfdoshidan ko'chirib oldi;

2346. Decent (disent) – odobli, namunali: (desant) Ertagaxarbiy bilim yurtida “Eng namunali desant” ko'rik tanlovi bo'lib o'tadi;

2347. Decline (diklayn) – kamaymoq, zaiflashmoq, voz kechmoq: (dikkaymoq) Ozodlikka chiqqan eshak dumini dikaytirib ho'jayinidan voz kechib qochib qoldi;

2348. Decree (dikri) – qaror, farmon, dekret: o'xshash so'zlar;

2349. Dedication (dedikeyshn) – bag'ishlov: (dedi eshon) Ruslarga qarshi Andijon isyoniga rahbarlik qilgan Dukchi eshon men o'zimni ozodlik urushiga bag'ishladim dedi;

2350. Define (difayn) – aniqlamoq, o'rnatmoq: “definite” so'zini eslang;

2351. Deft (deft) – epchil, usta, mohir: (daftar) Mohir rassom epchillik bilan rasm daftariga rasm chizmoqda;

2352. Defy (difay) – chorlamoq, rad etmoq: (tefal) Oyim tefalda suv qaynatib, qahva damlab meni ham chaqirdilar men esa rad etdim;

- 2353. Deign (dein) – ravo ko’rmoq, lozim topmoq: (keyin) Imtihonga tayyorlanish uchun darsdan boshqa hamma ishlarni keyinga qoldirishni lozim topdim;**
- 2354. Deity (deyti) – tangri: (deyladi) Muqaddas kitoblarda tangri bu olamni 4 unsurdan yaratganligi deyiladi;**
- 2355. Delicatessen (delikatesn) - kamyob oziq-ovqatlar sotiladigan do’kon: (delikates) o’xshash so’zlar;**
- 2356. Delirium (delirium) – alahsirash: (dili rom) Majnun tunda alahsirab dilini rom etgan dushmanining qizi Layliligini aytib qo’ydi;**
- 2357. Deliver (dilayve) – yetkazmoq, eltib bermoq: (Dilobar) Dilobar maktabdan kelgach har doim dalada mollarni boqib yurgan dadasiga suv-non olib boradi;**
- 2358. Deluge (dilyuj) – sel: (dilijon) Toxir Zuxroni dilijonim deb erkalayotganda sel kelib uni oqizib ketdi;**
- 2359. De luxe (di lyuks) – hashamat, lyuks: o’xshash so’zlar;**
- 2360. Demeanor (demino’) – xulq-atvor: (damino) Har xil xulq-atvorli bolalar damino o’ynashmoqda;**
- 2361. Demise (dimayz) – o’lim: (Denis) Denis o’lim bilan olishmoqda: u og’ir betob;**
- 2362. Deniel (deniyel) – rad(inkor) etish: (Daniel) Daniella Daniyelning taklifini rad etdi;**
- 2363. Denote (dino’ut) – ifodalamoq, anglatmoq: (do nota) “Do” notasi yo’g’on tovushni ifodalaydi;**
- 2364. Department (depatmen) – bo’lim, qism, departament: o’xshash so’zlar;**
- 2365. Department store (depatmen sto’) – universal magazin: (departament, stol) Departament stoli universal magazindan olingan oziq-ovqatlar bilan bezildi;**
- 2366. Dependable (dependibl) – bog’liq, ishonchli: “depend” so’zidan olingan;**

2367. **Depict (depikt) – tasvirlamoq:** “picture” so’zidan olingan;
2368. **Deploy (diplo’y) – qurollarni(zobitlarni) joylashtirmoq: (loy)** Zobitlar qurollarni loy ostiga joylashtirmoqda;
2369. **Deportation (deporteyshn) – surgun, haydab yuborish: (deport)** o’xshash so’zlar;
2370. **Depose (dipouz) – mansabdan tushirmoq, yo’q qilmoq: (deport)**Amerika qonunlariga buysunmagani uchun xitoyliklar deport qilinib, ularning texnikalari yoqib yo’q qilindi;
2371. **Deposit (dipozit) – bankka pul qo’ymoq, garov: (depozit)** o’xshash so’zlar;
2726. **Frank (frenk) – samimiy, sofdil : (Frenk)** Frenk ismining ma'nosini bilib oldingizmi?;

2727. **Fraternity (freteniti) – qardoshlik, ittifoq: (felyeton)** Qardoshlik hamda ittifoq kuchli bo'lishi uchun turli xil felyetonlar yoza boshlashdi;

2728. **Freight (freyt) – yuk(tashish) : (Fred)** Fred ismli yigit qo'shimcha ravishda supermarketda yuk tashish bilan shug'ullanmoqda;

2729. **Fret (fret) – tashvishlanmoq: (fat-semiz)** Juda ko'p Amerikaliklar semirib ketayotganidan tashvishlanmoqda;

2730. **Fright (frayt) – qo'rquv, qo'rqmoq: (sprayt)** Katta kuchukdan qo'rqib yig'layotgan bolakayga onasi sprayt berib ovutmoqda;

2731. **Froth (fros) – ko'pirmoq, safsata sotmoq: (frog)** Ikki qurbaqa bir-biriga maqtanib safsata sotmoqda;

2732. **Frugal (frugl) – tejamkor, arzon: (fartukli)** Fartukli oshxona kiyimlari uncha arzon turmaydi;

2733. **Frustrate (frastreyt) – barbod qilmoq, behuda urinmoq: (asteroid)** Osmondan asteroidlar yog'ilib, hammayoqni barbod qilmoqda;

2734. **Fuel (fyul) – yoqilg'i: (afyun)** Afg'onlar afyun qora dorisini yoqilg'iga ayirboshlayapti;

2735. **Fumble (fambl) – paypaslamoq, noto'g'ri muomala qilmoq: (familiya)** Bir kekxa o'qituvchi familiyangizni paypaslab-bo'g'inlab o'qidi, buni noto'g'ri tushunib unga qo'pol muomala qildingiz...(tezda uzr so'rang);

2736. **Furnish (fo'nish) – jihozlamoq, taminlamoq: “furniture” so'zini eslang;**

2737. **Furrow (farrou) – egat, chuqur, ajin: (farrosh)** Farroshning yuzida ajin borligi uchun ishdan haydashdi;

2738. **Furthemore (fuzemo') – bundan tashqari, uning ustiga: (tuzum)** SSSRdagi KPSning boshqaruv tuzumi zo'rlikka asoslangani uchun uzoq yashamadi;

2739. **Fuss (fas) – hovliqmoq, shovqin solmoq: (gaz)** Yosh bolakaylar shovqin solib gaz suvni talashib ichishmoqda;

2740. **Fussy (fassi) – noziktabiat, hovliqma, serhasham: (fasl)** Serhasham uyda bir bolakay noziktabiat onasiga faslar haqida yodlagan she'rini hovliqib onasiga aytib bermoqda;

2741. **Futile (fyutayl) – befoyda, yuzaki: (four, taym)** Futbolchilar yuzaki o'ynab, 4-taymni befoyda yugurishlar bilan o'tkazishdi;

2742. **Gab (geb) – bekorchi gap, safsata: (gap)** Bir gala bekorchilar o'zaro gap sotib o'tirishibdi;

2743. **Gadget (gajet) – moslama, asbob-uskuna: (gajet)** o'xshash so'zlar;

2744. **Gale (geyl) – kuchli shamol, bo'ron: (gala)** Kuchli shamol esib, osmonda bir gala qushlar uchib ketmoqda;

2745. **Gallop (gellop) – ot choptirish: (qallob)** Ot choptirish musobaqasida bir ishtirokchi qalloblikqilib raqibining yo'lini to'sib qo'ydi;

2746. **Gamble (gembl) – qimor o'ynamoq: (Gendelf)** "Uzuklar hukmdori" filmidagi Gendelf hobibtlar bilan qimor o'ynab o'tirganini tasavvur qiling;

2747. **Gaol (geol) – qamoqxona: (gol)** Tasavvur qiling: qamoqxonadagi maxbuslar futbol o'ynashmoqda. Bir payt uzun bo'yi kal kishi darvozaga to'pni tepib, "gol" deb baqirdi;

2748. **Gang (geng) – o'g'rilar (kishilar) guruhi: "gangster"** so'zi shu so'zdan olingan;

2749. **Gape (geyp)** – hayratlanmoq, katta ochilmoq: **(gey parad)** Yevropada gey paradlar o'tkazilishi hech kimni hayratlantirmaydi;
2750. **Garbage (gabeyj)** – chiqindi, axlat: **(cabbage-karam)** Kimdir bir qop karamni chiqindi qutisiga tashlab ketibdi;
2751. **Garment (gament)** – libos, ust-bosh: **(kartmon)** Ust boshingiz yaxshi bo'lib kartmoningiz bo'sh bo'lsa bemalol yura olmaysiz;
2752. **Gaudy (gaudi)** – ko'rkam, savlatli: **(gavdali)** O'zingiz bilgan gavdali, ko'rkam sportchini ko'z oldingizga keltiring;
2753. **Gauge (gauj)** – o'lchov asbobi, o'lchamoq: **(go'ja)** Katta bochka to'la go'jani tasavvur qiling: uning necha litrligini o'lchab ko'rmoqdasiz;
2754. **Gem (jem)** – qimmatbaxo tosh: **(jem)** Supermarketdan bir bonka jem sotib olgan edingiz, ichidan qimmatbaxo tosh chiqdi;
2755. **Generalization (jeneralizeyshn)** – umumlashtirish, xulosa qilish: “general-umumiy” so'zidan olingan;
2756. **Generation (jenereyshn)** – ishlab chiqarish, nasl, avlod: **(generator)** GM kompaniyasi yangi avlod generatorlarini ishlab chiqarmoqda;
2757. **Generous (jenero's)** – saxiy, ko'p miqdorda: **(Rio de-Jenero)** Brazilyani Rio de-Janerosida ko'p miqdorda kontrabanda mollari ushlendi;
2758. **Genuine (jenyuin)** – asl, chin, xaqiqiy: **(geniy)** Juda ko'p o'qisangiz xaqiqiy geniy bo'lasiz;
2759. **Gesture (jesche)** – imo-ishora: **(gazchi)** Eshigingiz taqilladi, ochgan edingiz gazchi pul yig'ib yurgan ekan, imo-ishora bilan “uyda hech kim yo'q” deb ketkizib yubordingiz;
2760. **Glare (gleyr)** – jaxl bilan qaramoq, porlamoq, ko'zni qamashtirmoq: **(Gleyr)** Shvedsaryalik rassom Mark Gleyr ko'zni qamashtiradigan suratlar chizish ustasi edi;

2761. **Glib (glib)** – ravon gapirmoq: (**klipl**) Bizning qo'shiqchilarimiz kliplarida ravon gapirish yo'qolib bormoqda;
2762. **Glisten (glisn)** – porlamoq, yaltiramoq: (**Guliston**) Gulistonning go'zal bog'larini ko'rib ko'zlarim quvonchdan porlab ketdi;
2763. **Glossary (glosseri)** – izohli lug'at: (**giloslari**) Izohli lug'atdan "giloslari" so'zining ma'nosini qidirayapsiz;
2764. **Glow (glou)** – qizimoq, olov, alanga: (**globus**) Globus ichiga gaz to'ldirgan edik qizib alanganib yonib ketdi;
2765. **Glum (glam)** – xafa, umidsiz: (**gilam**) Gilamingiz uchmayotganiga xafa bo'lib o'tiribsiz;
2766. **Gnaw (gnou)** – g'ajimoq, kemirmoq: (**gnom**) Gnomlar katta suyakni g'ajib o'tirishibdi;
2767. **Gorge (go'j)** – dara, tez yemoq: (**Jo'rij**) Jo'rij ismli yigit kimsasiz daraning o'rtasiga yetganda qorni ochganidan, sumkasidagi nonni olib hammasini tezda yeb qo'ydi;
2768. **Grab (greb)** – tutib olmoq, chang solmoq: (**girdob**) Katta tarnado girdobi hamma yoqqa chang solib, o'z yo'lida uchragan narsani tutib olib yakson qilmoqda;
2769. **Grace (greys)** – go'zallik, nazokat, lutf: (**Greys**) Greys ismining ma'nosini bilib oldingizmi?;
2770. **Grade (greyd)** – daraja, baxo, xil, sinf: "gradus" so'zini eslang;
2771. **Gradual (greduel)** – bosqichma-bosqich, izchil: (**global**) Global muammolar bosqichma-bosqich, izchillik bilan hal etilmoqda;
2772. **Grand (gren)** – muhtasham, katta, buyuk: bu so'zni bilasiz;
2773. **Grant (grent)** – ehson qilmoq, qabul qilmoq, grant: o'xshash so'zlar;
2774. **Grasp (gresp)** – tutmoq, tushunmoq: (**kasb**) "O'zingiz qiziqqan kasbni yaxshilab o'rganib, tushunib etagidan maxkam tutinglar"-dedi ustoz o'quvchilarga;

2775. **Gretify (gretifay) – xursand qilmoq: (grek tib faylasufi)** Grek tib faylasufi hozirgi zamondoshlarini yozib qoldirgan kitoblari bilan hursan qilmoqda;
2776. **Gravel (grevl) – shag'al: (yugurvol)** Shag'al ustida yugurvolsangiz oyoqlar chigali yoziladi;
2777. **Gravity (greviti) – tortishish kuchi, jiddiylik:** Fizika darsligida "gravitatsiya qonuni" mavzusi o'tilgan bo'lsa kerak;
2778. **Graze (greyz) – o'tlamoq, tirnamoq: (gilza)** Katta o'q gilzasi qurolni ichini tirnab o'tadi;
2779. **Grease (gris) – yog'(lamoq): (priz)** Paxtani ko'p teruvchilarga priz bor: 5 litrdan yog' beriladi;
2780. **Greedy (gridi) – ochko'z, qizg'anchiq: (o'girdi)** Qizg'anchiq do'stdan hamma yuz ogirdi;
2781. **Grief (grif) – qayg'u, hasrat: (graf)** Graf Monte Kristo do'stlarining xoinligidan qayg'u – xasratga cho'mdi;
2782. **Grieve (griyv) - ranji(t)moq: (grivna)** Ukraina pul birligi grivnani yo'qotishimiz kerak deb ularni ranjitgan deputat jazolandi;
2783. **Grim (grim) - jiddiy, sovuq, yoqimsiz: (grim)** Sovuq-yoqimsiz grimdagi biror artistni ko'z oldingizga keltiring;
2784. **Grime (graym) – dog', kir: (grim)** Sevimli aktyoringizni daydi rolidagi grim va dog'-kir kiyimda tasavvur qiling;
2785. **Grin (grin) – tirjaymoq, jilmaymoq: (Green Card)** Do'stim menga jilmayib "Green Card yutib oldim" dedi;
2786. **Grind (grind) – maydalamoq, o'tkirlamoq: (g'ring desang)** Qaroqchilar harbiyga qarab g'ring desang maydalab nahanglarga taslayman deb qo'rqitdi;

2787. **Grip (grip) – siqmoq, diqqatni tortmoq, nazorat: (Gripp)** Grippga chalinganlar aksirib-yo'talib hammaning diqqatini tortadi. Unday Gripp bo'lganlar alohida nazoratga olinishi kerak;
2788. **Groove (gruv) – tarnov: (guv)** Tomda yig'ilib qolgan qor guv etib tarnovdan yerga tushdi;
2789. **Grope (gro'p) – paypaslamoq-ushlamoq: (group-guruh)** Guruhingiz bilan bir o'yin o'ynamoqdasiz: ko'zi bog'langan ishtirokchi boshqalarni paypaslab-ushlab ko'rib kimligini aytish...;
2790. **Gross (gros) - keng, semiz, qo'pol, jami, dona: (gilos)** Tasavvur qiling: ziyofat bo'lmoqda. Mehmonlarning jami chiroyli bayram libosida, faqat bir dona semiz ayol gilos sur'ati tushirilgan keng, qo'pol ko'ylakda...;
2791. **Grove (gro'v) – daraxtzor, chakalakzor: (birov)** Yo'ldan adashib daraxtzor o'rmonga borib qoldim. Yon-atrofga qarasam, chakalakzordan birov kuzatib turgandek tuyuldi;
2792. **Grudge (graj) – baxillik, xasad qilmoq: (guruch)** Guruchga xasad qilgan kurmak u o'sgan yerga suqulib yonidan chiqaverar ekan. Saxiy guruch suvdan kurmakka ham berar ekan. Shu sabab beg'ubor guruchni hamma yaxshi ko'rar, baxil kurmakning esa hech kimga keragi yo'q ekan;
2793. **Gruelling (gryuiling) – mushkul, sermashaqqat: (Kruella)** Zolim Kruella sabab dalmatin itlar mushkul vaziyatda qolib, mashaqqatli sarguzashtlarni boshdan kechiradi;
2794. **Grumble (grambl) – nolimoq, ming'irlamoq: (gramm)** Qimmat noligancha sehrigar kampirga: "bu sandiq Zumradnikidan kichkina ekan, grami ham kam" deb ming'irlabdi...;
2795. **Guardian (gadien) – qorovul, shaxs, homiy: (garden)** Homiyingiz sizdan bog' qorovulligiga biror shaxs topib berishingizni so'radi;
2796. **Guess (ges) – gumon,taxmin qilmoq, fahmlamoq: (GES)** Yurtimizda nechta GES borligini taxmin qilib ko'ring;

2797. **Guise (guis) – tashqi ko'rinish, qiyofa: (goose)** Suvda suzib yurgan g'ozning qiyofasini ko'z oldingizga keltiring;

2798. **Gulf (galf) – ko'rfaz, fikrlar tafovuti: (golf)** Dengiz ko'rfazida golf o'ynayotganingizni tasavvur qiling;

2799. **Guillible (guillibl) – sodda, go'l: (Gulliver)** Sodda Gulliver bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechirgan;

2800. **Gush (gash) – kuchli sel, oqim, jo'shmoq: (qush)** Kuchli sel oqimida yovvoyi qushlar jo'shib suzmoqda;

2801. **Gust (gast) – qattiq shamol: (gaz)** Qattiq shamol esib, gaz o'chib qoldi;

2802. **Guy (gay) – bola, yigit, kishi: (o'gay)** O'gay bola otasini gaplaridan charchab ketib qoldi;

2803. **Haggard (heggad) – sillasi qurigan: (Hagrid)** Bahaybat Hagrid sillasi qurigan G. Potterni ko'tarib honasiga olib bordi;

2804. **Haggle (hegl) – savdolashmoq, bahslashmoq: (negr)** Kiyim bozorida bir negr sotuvchi bilan rosa bahslashib savdolashmoqda;

2805. **Halt (holt) – to'xtamoq: (hot)** Faraz qiling cho'lda piyoda ketyapsiz: kun issiq, yo'l esa uzoq. Yo'lingizdan bitta daraxt chiqdi: soyasida dam olish uchun daraxt tagida to'xtadingiz;

2806. **Hamlet (hemlet) – kichik qishloq: (Gamlet)** Gamlet kichik qishloqqa tashrif buyurdi;

2807. **Hamper (hampa) – xalaqit bermoq (hamda)** Remont qilayotgan qo'shni hammayoqni changitib yubordi hamda bizga xalaqit bermoqda deb qo'shnilari ustidan yozib berishdi;

2808. **Handful (hendful) – bir siqim, hovuch, bir guruh: "hand" so'zini eslab qoling;**

2809. **Handicap (hendikep) – nogironlik, to'smoq: (hindu, kepka)** Bir hindu kepka kiyib, nogironlik aravachasida o'tiribdi;

- 2810. Handy (hendi) – qulay, oson, mohir: “hand” soʻzini eslang;**
- 2811. Haphazard (haphazed) – bexosdan, tasodifiy: (xafa, zarda)** Yoʻlda ketayotib kimdir sizni bexosdan turtib yubordi: xafa boʻlib unga zarda qilib baqirdingiz;
- 2812. Harass (hares) – bezdirmoq, charchatmoq: (Xorazm)** Avtobusda uzoq safarga ketyapsiz: yoningizdagi odam esa tushunarsiz xorazm shevasida gapiraverib sizni charchatib yubordi...;
- 2813. Harbour (harboʻu) – port, qarorgoh, behavotir joy: (xarbiy)** Xarbiylardan qochayotgan bir jinoyatchi portdagi behavotir joyga yashirindi...;
- 2814. Harmful (hamful) – xavfli, zararli: Bu soʻzni bilasiz;**
- 2815. Harmless (hamles) – zararsiz, xavfsiz: Antonim soʻzlar;**
- 2816. Harmonious (hamoʻnioʻs) – ahil, doʻstona, mos: (hamyoniz)** Oʻgʻri doʻstona munosabatda hamyonizni olsam maylimi deb soʻradi, tentak ekan;
- 2817. Hassle (hesl) – qiyin vaziyat, gʻavgʻo-tashvish: (hassa)** Tashvishda qolgan otaxon hassaga suyangancha qiyin vaziyatdan chiqish yoʻllarini oʻylamoqda;
- 2818. Haste (heyst) – shoshma-shosharlik, tezlashtirmoq: (hasta)** Keksa buvining hastaligi sababli shoshma-shosharlik bilan nabirasinig toʻyini tezlashtirib yuborishdi;
- 2819. Hatch (hech) – tuxum qoʻymoq, bolalamoq: (hech)** Yaqinda olgan tovugʻim hech tuxum qoʻymayapdi;
- 2820. Haul (haul) – tashimoq, sudramoq: (xayol)** Xayolimda bir qop tilloni uyimga emas bankga tashiyotganimni tassavur qildim;
- 2821. Havoc (hevok) – talofat, zarar: (havo)** Turli transport va fabrikalardan chiqayotgan gaz tutunidan havo zaharlanib, sogʻliqqa zarar keltirmoqda;
- 2822. Hawk (houk) – uyma-uy yurib narsa sotmoq: (Huk)** Faraz qiling: kapitan Huk uyma-uy yurib narsa sotmoqda;

2823. Hazard (hezad) – xavfga qo'ymoq, jur'at qilmoq: (hazar) Kapitan Hukdan hazar qilgan Piter Pen hayotini xavfga qo'yib, u bilan kurashishga jur'at qildi;

2824. Heal (hil) – davolamoq, tuzalmoq: (hil-hil) Holsizlanib tobim qochgan edi, hil-hil pishgan go'shtdan yeb tezda tuzalib ketdim;

2825. Heap (hip) – to'da, to'plamoq, to'ldirmoq: (hip-hop) Diskotekada bir to'da yoshlar davrani to'ldirib hip-hopga raqsga tushishmoqda;

2826. Heave (hiv) – ko'tarmoq, uloqtirmoq: (hivich) Shum bolaga qo'l ko'tarib savalayotgan boy quvib yeta olmay hivichni uloqtirdi;

2827. Heed (hid) – e'tibor bermoq: (hid) Uyga kirishim bilan qandaydir yomon hidni sezdim. Yaxshilab e'tibor bersam gaz hidi ekan: tezda eshik-derazalarni ochib tashladim;

2828. Helmet (helmit) – himoya shlemi, kaska: (Holmat) Uzun bo'yli ozg'in Holmat kaska kiyib skutterda ketmoqda;

2829. Helpless (helples) – yordamga muhtoj: "help" so'zini bilasiz;

2830. Hemisphere (hemisfiye) – yarimshar: (ham sfera) Mars ham o'z sferasiga ega;

2831. Hence (hens) – binobarin, shu sababdan, bundan buyon: (hens-tovuqlar) Quyonni izlab tovuq katagiga kirib qolgan bo'rini xo'roz chunonan adabini beribdiki, shundan buyon bo'ri tovuqlarga yaqinlashmaydigan bo'libdi;

2832. Henceforth (hensfo's) – bundan buyon (so'ng): sinonim so'zlar;

2833. Herald (herold) – jarchi, xabar bermoq: (Garold) Garold ismli jarchi otda aylanib yurib, qirol farmoni haqida xaloyiqqa xabar bermoqda;

2834. Herd (hyo'rd) – to'da(lashmoq), poda (boqmoq): (xor) To'dalashib kuylayotgan xor jamoasini ko'z oldingizga keltiring;

- 2835. Heredity (heredti) – irsiyat: (har odatiy)** Har insonda odatiy irsiyat tuyg'usi bo'ladi;
- 2836. Hesitant (hezitent) – qat'iyatsiz, ikkilanuvchi:** "Hesitate" so'zidan olingan;
- 2837. Hide (hayd) – berkin(t)moq, hayvon terisi: (haydamoq)** Bir ko'zli dev g'ordagi qo'ylarini tashqariga haydamoqda: ularning orasida hayvon terisitagiga berkingan odam ham o'tib ketdi;
- 2838. Hideous (haydo'us) – qo'rqinchli, jirkanch: (haydovchi)** Qorong'u o'rmon yo'lida ketayotgan mashina haydovchisiga qo'rqinchli maxluq xujum qildi;
- 2839. Highbrow (haybrou) – ziyoli, ma'rifatparvar: (eyebrow - qosh)** Ziyoli, marifatparvar odamlarni qoshidan ham bilib olish mumkin ekan;
- 2840. Hijack (hayjek) – havodan hujum qilmoq, o'g'irlab qochmoq, talamoq: (hayajondek)** Havodan hujum qilishmoqda, xuddi hayajon bosgandek hamma yoqa ushlay boshladi;
- 2841. Hike (hayk) – piyoda sayr qilmoq: (haykal)** Bog'dagi haykal atrofida piyoda sayr qilib yurganingizni eslang;
- 2842. Hinder (hinde) – to'sqinlik qilmoq: (kinder)** Do'kondan kinder olmoqchi bo'lgan bolakayga onasi to'sqinlik qilib, keyinroq o'zi olib berishini aytdi;
- 2843. Hinge (binj) – ilmoq, osmoq: (hindcha)** Hindcha filmlarda sevgilisiga erisholmagan oshiqlar yo o'zini osadi, yoki suvga tashlaydi;
- 2844. Hint (hint) – sha'ma, ishora qilmoq: (hint)** Turli hintlar qilib salto otgan akrobatga treneri zo'r degan ishorani ko'rsatmoqda;
- 2845. Hinterland (hintelend) – suvdan yiroqda joylashgan hudud: (kinderland)** Suvdan yiroqda joylashgan hududda "Kinderland" bolalar saroyi qurilmoqda;
- 2846. Hiss (his) – hushtak chalmoq, pishillamoq: (his)** Sezgir odam mushukni narigi xonada pishillab uxlashini eshitib uyg'onib ketdi;
- 2847. Hitch (hich) – mushkul, bog'lab qo'ymoq: (Hitch uslubi)** "Hitch uslubi" filmi qahramoni mushkul vaziyatlardan ustalik bilan chiqib ketadi;

2848. **Hitch – hike (hich-hayk) – yo'lovchi mashinada tekinga ketmoq: (hech ham)** Shu paytgacha hali hech ham yo'lovchi mashinada tekinga ketmaganman. Sizchi?..
2849. **Hoard (hoad) – saqlamoq, g'amlamoq: (xoda)** Omborda bir uyum xoda g'amlab qo'yilganini tasavvur qiling;
2850. **Hoarse (hoas) - bo'g'iq ovoz: (horse)** Bo'g'iq ovozda kishnayotgan otni tasavvur qiling;
2851. **Hoe (hoy) – ketmon, yerni chopmoq; (loy)** Faraz qiling: ketmonda loy yerni chopypasiz;
2852. **Hoist (hoist) – ko'tarmoq: (xolis)** Bozorkom narxlar ko'tarilishiga xolis yondoshdi;
2853. **Holocaust (holokaust) – yer bilan yakson qilish: (halokat)** Po'latni yer bilan yakson qilish uchun dushmanlari halokat uyushtirdi;
2854. **Homely (ho'umli) – oddiy, oson: (home)** Oddiy uyni ko'z oldingizga keltiring;
2855. **Homesick (ho'umsik) – sog'ingan: (xom sut)** Sigirningxom sutidan olingan qaymoqqa issiq non botirib yeyishni judayam sog'inganingizni xis qiling;
2856. **Homicide (ho'misayd) – jinoyatchi, qotil: (hamma sayt)** Hamma saytda jinoyatchi qotillar haqida xabar tarqalmoqda;
2857. **Honourable (o'no'rebl) – vijdonli, xurmatli: (gonorar bilan)** Vijdonli rejisor muhtojlarni gonorar puli bilan siyladi;
2858. **Hoop (hup) – xalqa, gardish: (xo'p)** “Xo'p” deb ovoz chiqarib sakrab turni xalqasiga osilib, turnida tortinganingizni tasavvur qiling;
2859. **Hoover (huve) – changyutgich: (huv ana)** Ikki uy bekasi hu anavi musorni changyutgich bilan torta olasanmi deb garov o'ynashmoqda;

2860. **Horticulture (hotikalche) – bog'dorchilik: (xotinigachi)** Bir bog'bon barchaga bog'dorchilikni o'rgatadi, lekin xotiniga o'rgatmasdi;
2861. **Hospitable (hospitebl) – mehmondo'st: "hospital"sozi bilan adashtirmang;**
2862. **Host (host) – mezbon, diktor, ko'p: (hoz tovar)** Hoz tovar do'konida ko'plab qurilishda ishlatiladigan narsalar olish mumkin;
2863. **Hostile (hostayl) – g'arazli, dushmanlarcha: (hosil)** Qandaydir g'arazli kimsalar dushmanlarcha daladagi barcha hosilni chopib tashlamoqda
2864. **Hound (hound) – tozi it: (honada)** Honada tozi it yotganini tasavvur qiling;
2865. **Hover (ho've) – parvoz qilmoq, yaqinda bo'lmoq: (hovli)** Hovlingiz yaqinida parvoz qilayotgan laylaklarni ko'z oldingizga keltiring;
2866. **Hubbub (habbab) – shovqin, to'polon: (ABBA)** ABBA guruhining konsertiga kassada chiptalarni shovqin-to'polon qilib talashib olishmoqda;
2867. **Huff (haf) – qaxr, g'azab: (haf)** G'azablangan it haf-haf deb qop'ishdan nariga o'tmayabdi;
2868. **Huge (hyuj) – ulkan, buyuk, katta: (hovuch)** Ekskavator ulkan hovuchi bilan yer kovlamoqda;
2869. **Hull (hal) – kema korpusi, meva po'sti: (ho'l)** Titanik kemasining yuqori korpusida mevani po'stidan tozalab yeb o'tibsiz, bir mahal kema poli ho'l bo'lib suv chiqayotganini ko'rib qoldingiz...
2870. **Humane (hyumeyn) – insonparvar, gumanitar: o'xshash so'zlar:**
2871. **Humiliate (hyumilieyt) – kamsitmoq, xo'rlamoq: (yumilayotib)** Gitler o'layotganida ko'zi yumilayotib ham urushda yutqazgan generalini kamsitib o'tdi;
2872. **Humility (hyumiliti) – itoatkorlik, bo'ysunish: (yumilibdi)** It ho'jayinining uxla degan buyrug'iga itoatkorlik qilib ko'zi yumilibdi;
2873. **Humour (hyumo') – hazil, kulgi : (yumor)** bu so'zni bilasiz;

2874. **Hurdle (hadl) – to'siq, qiyinchilik:** “hardly” so'ziga o'xshatsa ham bo'ladi;
2875. **Hurl (harl) – otib yubormoq: (hurlik)** Hurlik-ozodlik uchun kurashda dushmanga asir tushgan jangchi o'zini jarlikka otib yubordi;
2876. **Hurricane (harrikeyn) – dovul, bo'ron: (Garry keyin)** Angliyada dovul ko'tarildi shaxzoda Garri keyin hammani uyidan chiqmaslikka chaqirdi;
2877. **Hush (hash) – tinchlik, tinchlanmoq: (hush kayfiyat)** Sizga hush kayfiyat, tinchlik-omonlik tilayman;
2878. **Hustle (hasl) – turtmoq, qistamoq: (hazil)** Betayin bola do'stim hazilimdan hafa bo'lma deb o'rtog'ini yelkasiga turtib qo'ydi;
2879. **Hysteria (histeriya) – talvasa, jazavaga tushish: (history)** Tarixda o'ta jazavaga tushganlar zindonban qilingan;
2880. **Ideal (aydiyel) – benuqson, yuksak g'oya: (ideal)** o'xshash so'zlar;
2881. **Identical (aydentikl) – bir xil, o'xshash, mos:** “ aynan bir xil” desak ham bo'ladi;
2882. **Identification (aydentifikeyshn) – o'xshatish, shaxsiy guvohnoma: (identifikatsiya)** bu so'zni bilasiz;
2883. **Identify (aydentifay) – shaxsini aniqlamoq, tenglashtirish: (aytganimday)** Tergovchi hamkasbiga aytganimday bu qotilliklarni hammasini bir kishi qilgan ekan uni shaxsini aniqladim demoqda;
2884. **Idiom (idiom) – idioma, ibora:** o'xshash so'zlar;
2885. **Ignoble (ignoubl) – razil, ablah: (igna, Nobel)** Bir razil, ablah ignani Nobelga sanchib oldi;
2886. **Illicit (ilisit) – norasmiy, taqiqlangan: (50 cent)** 50 cent taqiqlangan hududda norasmiy konsert bermoqda;
2887. **Illiterate (illitireyt) – savodsiz: (literature)** so'zining antonimi;

- 2888. Illustrate (ilyustreyt) – bezamoq, tuhuntirmoq, izohlamoq: (lyustra)** Uyni qanday lyustra bilan beztayotganingizni izohlab bering;
- 2889. Illustrious (ilyustrous) – taniqli, mashhur: (iltifotlisiz)** Taniqli qo'shiqchi Justin Timberlayk Chorsu bozorida unga iltifotsizlik qilinganidan yig'lab yubordi;
- 2890. Image (imeyj) – xayol, tasavvur, kadr, tasvir: (imij)** Modelyerlar yangi imijlarni avvaliga tassavurda yaratib oladi;
- 2891. Imitation (imiteyshn) – taqlid, nusxa: (imtihon)** Insho yozish bo'yicha imtixon bo'lmoqda: siz esa partadoshingizdan nusxa ko'chiryapsiz...;
- 2892. Immediate (immediyet) – bevosita, eng yaqin: (madaniyat)** Konsertlarni uyingiz yaqinidagi madaniyat saroyida tomosha qilsangiz ham bo'ladi, toshkentga kelib pul va vaqt sarflamang;
- 2893. Immediately (imediyetli) – darxol, zudlik bilan: (imi-dimida)** Deputat pora olganligi haqida ma'lumotlarni imi-dimida darxol yo'q qildi;
- 2894. Immence (imens) – bepayon, keng: (ie mensiz)** Cho'pon qo'radan chiqib ketayotgan qo'ylariga qarab ie mensiz keng dashtga chiqib ketyapsizlarmi deb kulib qo'ydi;
- 2895. Immerse (imers) – bot(ir)moq, qamramoq: (i mers)** Yangi yo'ltanlamas I Mers modeli moshinasi hech qayerda botib qolmaydi;
- 2896. Immigrant (imigrant) – muhojir (imigrant)** o'xshash so'zlar;
- 2897. Imminent (iminent) – yaqinlashayotgan {sana, xatar haqida}: (Eminem)** Repper Eminem qo'shig'ida yaqinlashayotgan to'fon haqida Amerika ahlini ogohlantirgan edi;
- 2898. Immoral (immo'rl) – beodob, axloqsiz: (itim mo'ralab)** Beodob itim mo'ralab oynadan qarayverib jonga tegdi;
- 2899. Immortal (immo'tl) – umrboqiy, abadiy, o'lmas: (qalbim mo'rtlashib)** O'zimni umrboqiy deb yurar edim shifokor sen bedavo dardga yoliqqansan degan gaplaridan keyin qalbim mo'rtlashib qoldi;

2900. Impact (impekt) - to'qnashuv, zarba, ta'sir: (impra paketi) Bokschi zarba yegan qoshiga impra paketchasini qo'yib og'riqni kamaytirdi;

2901. Impart (impa:t) – xabar {ma'lum} qilmoq: (import) Uznews import hajmi sezilarli darajada kamayganligini xabar qildi;

2902. Impartial (impashl) – xolis, odil: (partiya) Partiyada odil va xolis odamlar ishlaydi;

2903. Impassive (impessiv) – beparvo, loqayd: (eng passiv) Eng passiv odamlar hamma narsaga beparvo bo'ladi;

2904. Implement (impliment) – qurol, jihoz, bajarmoq, ta'minlamoq: (imillamoq) Urushda sekin immillab qurol bilan taminlab berayotgan soldatni komandiri koyib berdi;

2905. Implicate (implikeyt) – jalb qilmoq, qatnashmoq, nazarda tutmoq: (imzo plitka) Akfa imzo romlari kompanyasi haridor jalb qilishda imzo plitka shokoladlarini taqdim etdi;

2906. Implore (implo') – yalinmoq: (imonli) Imonli qiz yoriga buzuq ayollar bilan yurmasligini iltimos qilib yalindi;

2907. Imply (implay) – ifodalamoq, nazarda tutmoq: (imillay) Imillayverma deb sekin ish qilmaslikka undash nazarda tutiladi

2908. Impose (impouz) – soliq solmoq, yuklamoq: (pauza) O'qishingizdan ikki kun pauza qilganingiz (dars qoldirganingiz) uchun sizga soliq solishdi;

2909. Impostor (imposte) – firibgar: (post) Postda bir firibgarni qo'lga olishdi;

2910. Impractical (impraktikl) – mantiqsiz, besabab: (praktika) Praktikaga besabab bormaganingiz g'irt mantiqsizlikdir;

2911. Impressive (impressiv) – ta'sirli: (imzosiz) Sudya ta'sirli qarorni imzosiz qoldirib bekor qildi;

2912. Inability (inebiliti) – qobiliyatsizlik, imkonsizlik: “Ability” so'zining antonimi;

- 2913. Inaccessible (ineksessibl) – erishib bo'lmaydigan, qiyin: (inkassatsiya)** Inkassatsiya xodimlari erishib bo'lmaydigan xazinani qo'lga kiritishdi;
- 2914. Inadequate (inadikuət) – kam, yetarli emas: (endi ko'rsat)** Futbolda erishayotgan yutuqlarimiz yetarli emas endi boks bilan o'zimizni ko'rsatamiz;
- 2915. Inaugurate (ino'gyureyt) – ish bilan tanishib chiqmoq, tadbirni ochib bermoq: (inauguratsiya)** Patriarx prezident inauguratsiya tadbirini ochib berish uchun chaqirtirildi;
- 2916. Incense (insens) – xushbo'y tutatqi tayoqcha, g'azablantirmoq: (endi sensiz)** Sotuvchini xushbo'y tutatqi tayoqcha tutatgani yonidagilarni g'azablantirdi, ular unga endi sensiz ishlaymiz yo'qol deb haydashdi;
- 2917. Incentive (insentiv) – tilak, istak: (intensiv)** Sizning intensiv harakatingizga tilakdoshman;
- 2918. Incident (inciden) – voqea-hodisa, to'qnashuv: (instinkt)** Bazida instinktiv tuyg'ular baxtsiz hodisani oldindan sezishga yordam beradi;
- 2919. Incidentally (insidentelli) – ahamiyatsiz, tasodifan: (inersiyali)** Aniq fanlarda inersiyali qoidalar ahamiyatsiz deganlar adashishadi;
- 2920. Inclination (inklineyshn) – egilish, qiyalik, ishtiyoq: (inqillashini)** Qari odam egilayotganda qiynalib inqillashini eshitib achinasan kishi;
- 2921. Inclusive (inkluziv) – daxldor, o'z ichiga olgan: (ekskluziv)** Sayohat ekskluziv tomoshalarni o'z ichiga olgan;
- 2922. Incognito (inkogni:tou) – qiyofasini o'zgartirgan, kimligini yashirgan: (inkognito)** Anonim hakerlar google dan inkognito kirib kimligini yashirinishga urinadilar;
- 2923. Income (inkam) – foyda, kirim, daromad: (eng kam)** Faraz qiling juda millionersiz: oylik daromadingiz eng kamida \$10mln;
- 2924. Incompatible (inkompetibl) – mos kelmaydigan, zid: (inqilobiy)** Odatda inqilobiy namoyishlar qonunga mos kelmaydigan holatda o'tadi;

2925. **Inconsistency (inkonsistensi)** – nomunosib, zid: sinonim soʻzlar;
2926. **Inconvenient (inkonvinyent)** – noqulay: “convenient” soʻzining antonimi;
2927. **Incorporate (inkorporeyt)** – birlashtirmoq, oʻz ichiga olmoq: (korporatsiya) Korporatsiya koʻp korxonalarini oʻz ichiga oladi;
2928. **Incredible (inkredibl)** – haqiqatdan yiroq: (endokrinolog) Endokrinolog shifokorlar haqiqatdan yiroq tashxislar qoʻymaydi;
2929. **Increment (inkriment)** – oʻsish, yuksalish: (ichiga kiraymi) Yuksalayotgan davlatni barbod qilish uchun ichiga kiraymi yo tashqaridan havf solamizmi demoqda igʻvogarlar;
2930. **Incumbent (inkambent)** – ayni paytdagi, zaruriy: (pulini kabinet) Pulini kabinetda olib zaruriy hujjatlar imzolashga odatlangan ishyoqmaslarni haydash kerak;
2931. **Indebted (indeptid)** – minnatdor, qarzdor: (indaptur) Qarzdor odamga indamay yuraversangiz pulingizni ololmaysiz har zamonda indab turish kerak
2932. **Indeed (indid)** – xaqiqiy, darxaqiqat: (indin) Darxaqiqat indin qanday quvonchli kunligini bilasizmi;
2933. **Indent (indent)** – rasmiy ravishda soʻrov yuborish, chekka joyda oʻrin yaratish: (ipdan oʻt) Dorbozga arqon ipdan oʻtishga soʻrov yuborildi;
2934. **Index (indeks)** – koʻrsatkich, roʻyxat, indeks: oʻxshash soʻzlar;
2935. **Indicate (indikeyt)** – koʻrsatmoq, ifodalamoq: (endi ket) Tergovchi guvohga qarab hammasini koʻrsatib berding endi ket deb buyurdi;
2936. **Indication (indikeyshn)** – koʻrsatkich, belgi, xabar: (imtihon ishi) Tasavvur qiling sizning imtihon ishi natijalaringiz muvofaqiyatli oʻtgani haqidan xabar keldi;
2937. **Indignant (indignant)** – gʻazabli, nafratlangan: (indinga) Yigit indinga armiya ketasan degan xabarga sal gʻazabli qarash qilib qoʻydi;

2938. **Indispensable (indispensebl)** – muhim, zarur {qonunga oid}: (dispanser) Narkologik dispanser bemorlari zarur sharoitlar bilan ta'minlansin degan qonun qabul qilindi;

2939. **Indisputable (indispyutebl)** – aniq-ravshan, shubhasiz: (infratuzilma) Infratuzilmalar aniq-ravshan rejalashtirilsa mashaqat oz bo'lardi;

2940. **Individual (individuel)** – yakka, alohida, shaxsiy: (individual) o'xshash so'zlar;

2941. **Induce (indyus)** – ishontirmoq, sababchi bo'lmoq: (indyuk) Indyuk hamma jonzotlarni nimagadir ishontirishga urinmoqda;

2942. **Indulge (indalj)** – zavq olmoq, rohatlanmoq: (indallo) Gapimning indallosi shuki yoshlikdan zavq oling;

2943. **Industrial (indastriel)** – sanoatlashgan: (industriya) bu so'zni bilasiz;

2944. **Industrious (indastrio's)** – mehnatsevar, tirishqoq: (dasturchi) Mehnatsevar, tirishqoq dasturchilar yangi kompyuter dasturini yaratishmoqda;

2945. **Inertia (inesha)** – sustlik, harakatsizlik: fizikadagi "inersiya qonuni"ni eslang;

2946. **Inevitable (inevitebl)** – muqarrar, aniq sodir bo'ladigan: (ena vitamin bilan) Tog'lik kuyov aniq narsa bo'lgan narsani ham ena vitamin bilan suv ichsam bo'ladimi deb so'ramoqda;

2947. **Infant (infan)** – go'dak, boshlang'ich davr: (ilm-fan) Daho bo'lib tug'ilgan g'odak bola uch yoshida Garvard universitetida ilm-fan rivoji to'g'risida ma'ruza o'qiyapti;

2948. **Infantry (infentray)** – yosh bola, piyoda askarlar: (ilm-fan taraqiyoti) Hozirda hatto yosh bola ham mamlakat rivoji ilm-fan taraqiyotiga tayanadi deb biladi;

2949. **Infection (infekshn)** – yuq(tir)ish, infeksiya: o'xshash so'zlar;

2950. Infer (infe) – xulosa chiqarmoq: (infarkt) Birinchi marta infarkt bo'lib xulosa chiqarmagan bemor kasali yana qaytaladi;

2951. Inferior (inferiyo'r) – past mavqeli, sifatsiz, itoatgo'y: (imperiya) Qadimda yaponlarda past mavqeli xalqlar bilan imperiya qurib bo'lmaydi degan tushuncha bo'lgan;

2952. Infinite (infit) – cheksiz, bepoyon, hisobsiz: (inchunin) Tilimizda yo'q bo'lib ketayotgan so'zlar hisobsizdir masalan inchunin so'zi;

2953. Infinity (infiniti) – xotima, cheksizlik: (Infiniti) Infiniti avtomobillari quyosh batareyalari bilan cheksiz yura oladigan mashina yaratdi;

2954. Inflect (inflekt) – turlamoq, tuslamoq, ovozni o'zgartirmoq: (intelekt) Intelekti yaxshi rivojlangan odam hayoti davomida bemalol turlanib bir xillikdan chiqa oladi;

2955. Influence (influyens) – ta'sir qilmoq: (Italyanes) Har bir Italyanes san'at rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi;

2956. Inform (info'm) – xabar bermoq, ma'lum qilmoq: “informatsiya” so'zini eslang;

2957. Informal (info'ml) – norasmiy: (info mol) Qadimda Amerika hindulari norasmiy habarlarni mollar terisiga yozishi urf bo'lga va ularni info mol deb atashgan;

2958. Informative (info'metiv) – xabar beradigan: (informativ) o'xshash so'xlar;

2959. Infringe (infrinj) – qonunni buzmoq, suiqasd qilmoq, kamsitmoq: (ixtilofchi) Mahallamizdagi ig'vogar kampirlarni ixtilofchiga o'xshataman, ular ham odamni kamsitishga urinadi;

2960. Ingenious (injenius) – mohir, usta{lik bilan qilingan}: (injiqlanish) Tilla buyum obering deb eriga injiqlanishi ayol kishining mohirlik bilan ro'la o'ynay olishidan dalolat;

2961. **Inhabit (inhebit) – yashamoq: (Inha bitta)** Inha universiteti yotoqxonasi qimmatligidanmi bilmadi bor yo'g'i bitta talaba yashaydi;
2962. **Inherent (inherint) – o'ziga xos, tug'ma, tabiiy: (ixtiyoring)** Puling bo'lsa ixtiyoringda katta kuch qudrat bordek bo'lishi tabiiy holat;
2963. **Initial (inishl) – boshlang'ich, dastlabki: (endi ishla)** Boshlag'ich to'lovini oldindan olgan ishchiga endi tez ishla deb buyurildi;
2964. **Initiate (inishieyt) – boshlamoq, kirishmoq: (inshoot)** Bu yil toshkentda yangi turdagi inshootlar qurilishi boshlandi;
2965. **Initiative (inishietiv) – ilk qadam, tashabbuskorlik: (engashayotib)** Tor ko'ylak kiygan qiz restoranga kirib ilk qadamlaridayoq engashayotib tor yubkasini yirtib olib hammaga kulgi bo'ldi;
2966. **Inject (injekt) – kiritmoq, ukol qilmoq, {inyeksiya}: (inyeksiya)** o'xshash so'zlar;
2967. **Injury (injury) – jarohat, haqorat, xafalik: (inda jury)** Hayvonlar sport musobaqasida qush inida jury bir-birini boksga tushib jarohatlayotgan qarg'alarni baholamoqda;
2968. **Innocent (inosen) – sofdil, beg'ubor: (insonsan)** Kattalaming sen yaxshi insonsan sofdil va beg'ubor degan gaplaridan erib ketasan kishi;
2969. **Injustice (injastis) – nohaqlik, adolatsizlik: (ingichka)** Nimjon va ingichka bola bilan polvonni kurashtirish nohaqlik bo'lardi;
2970. **Innovation (innoveyshn) – yangilik {kiritish}: (inovatsion)** o'xshash so'zlar;
2971. **Innumerable (innyumerebl) – behisob, son-sanoqsiz: (immilab yuradigan)** Yiliga son-sanoqsiz imillab yuradigan jonivorla qirilib ketadi, shuning uchun bu hayotdan behisob zavq olish uchun tezlashing;
2972. **Inquire (inkuaye) – so'ramoq, ma'lumot olmoq: (inkvizitsiya)** O'qituvchini inkvizitsion savolar bilan ko'mib tashlash yaxshimas;

- 2973. Inquiry (inkuayri) – so’rov, tergov, tekshiruv, tadqiqot: (inkvizitor)**
Inkvizitorlar yig’ilishi haddan ziyod ortiqcha va bema’ni tekshiruvlar bilan o’tadi;
- 2974. Insane (inseyn) – tentak, jinni: (aytganing sayin)** Jinniga sen jinnisan deb aytganing sayin jahlgga minib boraveradi;
- 2975. Insert (inset) – qo’shmoq, joylashtirmoq: (isqirt)** Tassavur qiling pullaringizni isqirt yerto’laga joylayapsiz;
- 2976. Insight (insayt) – ziyraklik (ingilizcha sayt)** Doim inglizcha saytlar ziyraklikni oshiruvchi boshqotirmalar joylashadi, ular uncha ziyrak emas shekilli;
- 2977. Insignificant (insignifikent) – ahamiyatsiz, arzimagan: (insofga kirgan)**
Ashaddiy o’g’ri va jinoyatchilar arzimagan narsalarni deb insofga kirganligini eshitib ishongin kelmaydi;
- 2978. Insist (insist) – qat’iy talab qilmoq, buyruq bermoq: (qalin sisterna)**
Faraon qullarga qalin sisterna bilan suv tashishni buyurdi;
- 2979. Insolvent (insolven) – faqir, kambag’al (inson, ventilyator)** Faqir insonlar ventilyator ostida o’tirganini tasavvur qiling;
- 2980. Inspect (inspekt) – tekshirmoq, nazorat qilmoq: “Inspektor” so’zi qaysi**
so’zdan olinganini bilib oldingizmi;
- 2981. Inspire (inspaye) – ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq: (inoyat)** Bazilarda kichik inoyat ham ruhlanib ishini sidqidildan davom ettirishiga sabab bo’ladi;
- 2982. Install (instol) – o’rnatmoq, barpo qilmoq: (insof)** Bozorda tarozi ushlab turgan odam haykali o’rnatildi unga insof deb nom berildi;
- 2983. Installment (instolment) – nasiya, qism, bo’lib to’lash: (insonman)**
Foizchi kazzof men ham insonman pratsenti oshib ketgan qarzdorlarga bo’lib to’lashiga ruhsat beraman deb o’zini oqlayapti;
- 2984. Instance (instens) – misol, namuna: (ins-jins)** Ins-jins bilan shug’ullanadigan folbin yolg’on fokuslaridan namuna ko’rsatmoqda;

2985. **Instant (instent) – on, darxol, bir zumda: (institut) Xorijiy tilni mukammal o'rgansangiz, darxol institutga o'qishga kirasiz;**
2986. **Instinctive (instinktiv) – beixtiyor: “instinkt” so'zidan olingan;**
2987. **Instruct (instrakt) – o'rgatmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq: “instruksiya” so'zini eslang;**
2988. **Insubordinate (insabo'dineyt) – bo'ysunmas, qaysar, takabbur: (subordinatsiya) Qo'mondon askarlari bo'ysunmas bo'lib ketmasin deb doim subordinatsiya qoidalarini saqlashga majburlaydi;**
2989. **Insufficient (insaffishin) – qusur, nuqson: (insof ishini) E'tiborli inson ishini nuqson bilan qilmaydi;**
2990. **Insult (insalt) – haqorat, xafa qilmoq (insult) o'xshash so'zlar;**
2991. **Insurance (inshurens) – sug'urta: (instruktaj) Sug'urta kompanyasi avtomobil instruktaji bilan tanishmasdan turib halokatga uchragan jabrlanuvchiga tovon puli to'lamadi;**
2992. **Integral (integrel) – yaxlit, butun: (integral) o'xshash so'xlar;**
2993. **Integrity (integriti) – halollik, vijdonlilik: (integratsiya) Faqat halollikda yashovchilar uchun o'zgacha qarashli kishining integratsiyasi g'alati tuyuladi;**
2994. **Intellect (intelekt) – aql-idrok, bilim: (intellekt) o'xshash so'zlar;**
2995. **Intelligent (inteligent) – aqli, zehqli: (intelligent) o'xshash so'zlar;**
2996. **Intend (intend) – niyat (ahd) qilmoq: (insonda) Har bir insonda yaxshi niyat qilib farog'atda yashas orzusi bo'lsa kerak;**
2997. **Intensive (intensiv) – kuchli, qizg'in, jiddiy, jadal (intensiv) – o'xshash so'zlar;**
2998. **Intensify (intensifay) – g'ayratlan(tir)moq, jadallashtirmoq: (intensively) Biron yangi ma'lumot o'rganishda intensivly o'qish ishni ancha jadallashtiradi;**

2999. Intent (intent) – maqsad, dovyurak, shijoatli: (intiq) Qiroldan norozi xalq o'z dovyurak halaskori kelishini intiq bo'lib kutmoqda;

16.12.2017
3000. Intention (intenshn) – reja, maqsad, intilish: (intilishini) Maktab o'quvchisi milliarder bo'lishni maqsad qilib intilishini kitob o'qishdan boshladi;

3001. Interact (interakt) – birga harakat qilmoq, bir-biriga ta'sir qilmoq: (interaktiv) Television aloqalar butun jahon interaktiv setiga ulanib bir-birining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

3002. Interfere (intefe) – aralashmoq, xalaqit bermoq, duch kelmoq: (interfaol) Bazida jamoada judayam interfaollik ko'rsatadiganlar g'olib bo'lishga xalaqit berib qo'yadi;

3003. Interior (interio') - ichki qism: (Inter Rio) Inter futbol jamoasi Rioda eng samaraliy o'yin ko'rsatdi;

3004. Intermediate (intemidiyet) - o'rtacha, oraliqdagi: buni bilasiz, ingliz tili darajalarini eslang;

3005. Interpret (inteprit) – tushuntirmoq, izohlamoq, tarjima qilmoq: (intilib) Boylikka intilib kitobi mu'allifi kitob yozilishidan maqsadini tushuntirdi;

3006. Interrupt (interapt) – gapni bo'lmoq, aralashmoq: (internat) Internat direktori gapni bo'layotgan bolaga xonadan chiqib ketishini buyurdi;

3007. Intervene (inteven) – aralashmoq, vositachilik qilmoq, sodir bo'lmoq: (interval) O'zga dunyoga ochiladigan portal yo'li ochilish intervali ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi;

3008. Intimate (intimeyt) – yaqin, samimiy, ogohlantirmoq: (intim) o'xshash so'zlar;

3009. Introvert (introvet) – uyatchan, tortinchoq, odamovi: (intizor) Ozodbek Nazarbekov o'zini uyatchangligidan intizorim qo'shigini yozgan;

3010. Intrude (intrud) – bostirib kirmoq: (intiluv) Makedonskiy dunyodagi so'ngi yurtga bostirib kirganidan keyin urush qilishga intiluvi sondi;

- 3011. Inundate (inandeyt) – suv bosmoq {toshmoq}: (inondi ayt)** Ota-onamiz shaharni suv bosganini televizorda ko'rib inondi ayt endi biz tirikmiz deb dedi havotirda aka ukasiga qarab;
- 3012. Invade (inveyd) – hujum qilmoq, egallab olmoq: (keyin va'da)** Podshox o'zga yurtni egallab olganidan keyin va'dasini bajardi;
- 3013. Invalidate (invelideyt) – nogiron qilmoq, vayron qilmoq: (invalid qilmoq)** o'xshash so'zlar desak ham bo'ladi;
- 3014. Invaluable (inveluyabl) – bebaho, qimmatli: (invalid yubileyi)** urush vahriylari o'zining invalid do'sti yubileyiga qimmatli sovg'alar berishdi;
- 3015. Invarieble (inverayabl) – o'zgarmas: (ildirayotib)** Baliqchi qarmog'iga o'lja ildirayotib suvda og'ir narsa o'zgarmasdan turganini ko'rib o'takasi yorildi;
- 3016. Invasion (inveyjn) – hujum qilish, bosib olish: (insulin)** Bemor dorixonaga hujum qilib faqat insulinlarni olib ketdi;
- 3017. Inverse (invers) – qarama-qarshi, aksincha: (ilvirs)** Qarshingizda yovvoyi emas, aksincha, qo'lga o'rgatilgan ilvir turganini tasavvur qiling;
- 3018. Inversion (inverjn) – o'rnini almashtirish: (inversiya)** o'xshash so'zlar;
- 3019. Invest (invest) – pulni joylashtirmoq: “investitsiya”** so'zini eslang;
- 3020. Investigate (investigeyt) – tekshirmoq, aniqlamoq: (investitsiya Geytsni)** Microsoft investitsiyasi Bill Geytsni boyishiga sabab bo'lgan;
- 3021. Inviolable (invayolebl) – buzilmas, ajralmas, muqaddas: (sokin voleybol)** Sokin plyajda voleybol o'ynash ajralmas do'stlar ortirishga yordam bermasa kerak;
- 3022. Invisible (invizibl) – ko'rinmas: “visible”** so'zining antonimi;
- 3023. Invoice (invoys) – faktura {jo'natilgan molning narxi va ro'yxati}: (kelishini boisi)** Ilon Mask suniy ong insonyatning dushmaniga aylanadi degan fikrga kelishini boisi u jo'natgan faktura hujjatlari elektron nusxasi o'zgarib qolganidan taajubga tushgan edi;

- 3024. Involuntary (involyunteri) – bexosdan: (kiyinvol yunglary)** Labarant yangi hodimga hafsizlik qoidasidek kiyinvol it yunglari allergiya tarqatadi deb tushuntirdi;
- 3025. Inward (inuad) – ichki, aqliy, ruhiy: (invalid)** Nik Vuychich jismonan invalid bo'lishiga qaramay, aqliy va ruhiy jihatdan kuchli shaxs;
- 3026. Irascible (ayreskiabl) – jahldor, jizzaki: (rezkiy-tez)** Jaxldor, jizzaki odamlarning tez jaxli chiqadi;
- 3027. Irony (ayreni) – kinoya, kesatiq: (ayron)** Ayron sotuvchiga kinoya bilan gapirganingizni faraz qiling;
- 3028. Irresistible (irrezistibl) – yengib bo'lmas, behisob, jozibador: (krizisda bo'lib)** Nokia kompaniyasi krizisda bo'lib, uning hozirgi holati yaqin orada yengib bo'lmas ahvolligi aytilmoqda;
- 3029. Irrespective (irrespektiv) - ...ga qaramasdan: (inspektor)** Inspektor ogohlantirganiga qaramasdan jinoyatchi qochib ketishga urindi;
- 3030. Irrevocable (irrevokeabl) – qat'iy, o'zgarmas; (vocabulary)** Ushbu lug'atni qat'iy, o'zgarmas mukammal qo'llanma sifatida qabul qilishingiz mumkin;
- 3031. Irritation (iriteyshn) – g'azablanish, jahl: (kiritay shuni)** Sovuqda turgan itni ko'rgan qorovul g'azabidan tushib ichkarga kiritay shuni dedi;
- 3032. Issue (ishshyu) – muammo, nashr (qilmoq), avlod: (ish)** Akam taxririyaatda noshir bo'lib ishlaydi. U turli xil global muammoli, siyosiy-ishtimoiy mavzudagi maqolalarni nashr qiladi: uning ishi shu;
- 3033. Item (aytim) – paragraf, masala: (aytdim)** Ikkichi bolaning ustoziga senga hamma masalani ishlab kel deb aytdim tushundingmi deb do'q urdi;
- 3034. Itinerant (itinerent) – darbadar, sayyor: (vegetarian)** Darbadar kezib yurgan vegetarian daydini atasavvur qiling;
- 3035. Itinerary (itinerari) – marshrut, yo'lbo'shchi: (italiyalik)** Italiyalik yo'lbo'shlovchi gid turistlarga kulgili talaffuzda gapirib hayron qoldirdi;

- 3036. Janitor (jenite) – tamirlovchi, farrosh: (Janet) Janet Jekson** qo'shiqchilikdan bo'sh paytlarida vokzalda farrosh bo'lib ishlar ekan;
- 3037. Jaundice (jo:n.dis) – sariq kasalligi, hasad: (jon desa)** shuncha boyligingiz bor, sog'logingiz joyida jesanigz-chi, ha deb birovga hasad qilavermasdan;
- 3038. Jeopardise (jeapadayz) – xavf solmoq: (gopard) Faraz qiling:** o'rmondasiz. Qarshingizdan chiqqan yirtqich gepard sizga xavf solmoqda;
- 3039. Jerk (jek) – faqir-notavon, silkinish, siltamoq (jerkimoq)** qo'lni siltab jerkib gapirish odobdan emas;
- 3040. Jewel (juil) – qimmatbaho tosh: (iyul) tog'larda iyul oyida qorlar erigani** uchun hamma joy ochilib qolgan odamlar esa tog'ga chiqib terishga tushib ketdi;
- 3041. Jinks (jinks) – o'yin-kulgi, shodlik: (jin kosa)** Chiroqda yashaydigan jin endi kosada yashayman deb shodligidan kosa ichida raqsga tushmoqda;
- 3042. Jitters (jittes) – jahl, g'azab: (jildsiz)** G'azablangan ustoz o'quvchisining jildsiz kitobini yirtib tashladi;
- 3043. Jockey (jokiy) – chavandoz: (yoki)** Qadimda shaxzodalar merganlik yoki chavandozlikni bilishlari shart bo'lgan;
- 3044. Jot down (jot daun) – qisqa qilib yozmoq: (ijodda u)** Do'stlari roman yozib o'tirgan yozuvchiga qarab birisi shuni qisqa qilib yozib qo'ya qolmaydimi desa boshqasi jim hozir ijodda u xalaqit bermaylik dedi;
- 3045. Jovial (joviyel) – dilkash, xushchaqchaq: (Javlon)** Javlon ismli do'stim juda dilkash va xushchaqchaq;
- 3046. Judgement (jajment) – sud qarori, fikr, muhokama: (jaji ment)** Sud qarori bilan jajji ment quyon hammadek maosh oladigan bo'ldi;
- 3047. Judicious (judishes) – dono, mulohazali: (juda)** Arastu juda dono va muloxazaliy bo'lgan;
- 3048. Juicy (jyusi) – shirali, sersuv: “juice”** so'zidan olingan;

- 3049. Jumble (jambI) – qorishtirmoq, aralashtirmoq: (jambil)** Sho’rva qaynab chiqqach jambil solib aralashtiring;
- 3050. Junction (jankshn) – birlashish nuqtasi, ittifoq: (jang kirishing)** Gitler o’z qoshini jangga kirishib italyanlar bilan birlashish nuqtasini xaritadan ko’rsatdi;
- 3051. Jury (jyuri) – sud maslahatchisi, hakam: (juri)** O’xshash so’zlar;
- 3052. Justice (jastis) – adolatli hukm chiqarish, sud: (ja siz):** Adolatli hukm chiqargan sudyaga jabirlanuvchi ja siz qonuniy ish qilar ekansiz deb qarsak chaldi;
- 3053. Justify (jastifay) – oqlamoq, kechirmoq: (Jasur)** Rost gapirgani uchun sudya Jasurni kechirdi;
- 3054. Kernel (kenI) – don, mag’iz, mohiyat, asos: (kanal)** Yo’lda ketayotib bir kishining kanalga bir qop donni tashlab yuborganini ko’rib, nega unday qilganining mohiyati va sababini so’radim;
- 3055. Key-note (kiy-nout) – asosiy ma’no, tushuncha: (kino)** Hozirgi filmlarning ko’pchiligi o’xshashligidan kinoning boshidanoq asosiy ma’nosini tushunib olish mumkin;
- 3056. Kidnap (kidnep) – bola o’g’irlamoq: (kids, napitka)** O’g’rilar yosh bolalarni “napitka va shokolad beraman” deb aldab o’g’irlab ketadi;
- 3057. Kindle (kindI) – hayajonga solmoq, uyg’otmoq: (kinder)** Bir yosh ona uyquchi o’g’lini “kinder beraman” deb uyg’otmoqda;
- 3058. Knack (nek) – mahorat, ustalik: (kek)** Ayyor tulki kek saqlab yurkan bo’rini yana ustalik bilan aldab ketdi
- 3059. Knob (nob) – shish, g’urra, dasta, sop: (knopka)** Bir semiz kishi dastasi knopkali ketmonda uchib ketayotganda devorga urilib peshonasi g’urra bo’ldi;
- 3060. Knoll (nol) – tepalik: (nol)** Tog’ning baland tepaligida ko’pincha harorat nol darajada bo’ladi;
- 3061. Knot (not) – tugun, bog’ich, guruh: (nota)** Musiqa darsida bolalar guruh bo’lib notalarni aytmoqda;

3062. Lad (led) – o'spirin yigit: (led) O'spirin yigit led chiroqlaridan ham tejamkor lampochka ixtiro qildi;

3063. Lack (lek) – yetishmovchilik, muhtoj bo'lmoq: (lak) Tirnoqlarimga lak qo'yayotgan edim tugab qolib, oxirgi barmog'imga yetmay qoldi;

3064. Lag (leg) – ortda (kech) qolmoq: (legioner) Bunyodkor legionerlarni kech olib kelgani uchun chempionatda ancha ortda qolib ketdi;

3065. Lament (leymint) – yig'i, hasrat, motam tutmoq: (limon) "Chippolino" filmi eslang: poliz ekinlari limonning qilmishlaridan dod solib yig'lashmoqda;

3066. Landmark (lendmak) – muhim davr(bosqich), chegara chizig'i: (endi maktab) Yaponiyadek bizda ham endi maktab muhim davr hisoblanadigan bo'ldi;

3067. Landscape (lenskeyp) – manzara, landshaft: Telefon yoki kompyuter foniga qo'yish uchun manzarali rasmlardan foydalanganingizda shu so'zga duch kelasiz;

3068. Lane (leyn) – so'qmoq, tor yo'lak: (kuylayin) Qizil qalpoqcha so'qmoq bo'ylab ashula aytib ketayotib endi nima haqida kuylayin deb o'ylanib qoldi;

3069. Languid (lenguid) – bo'shashgan, lanj: o'xshash so'zlar;

3070. Lanky (lenki) – novcha, oriq: (lanka) Oriq va novcha bola lanka o'ynamoqda;

3071. Lap (lep) – tizza, tur, rekorddan oshirmoq, yalab yemoq: (lab) itlar hamma ovqatni tili va labi bilan yalab yeydi;

3072. Lapse (leps) – xato, vaqt, egalik huquqini yo'qotish: (G. Leps) Honanda G. Leps bir qo'shiqni xato kuylagani uchun egalik xuquqini yo'qotishi mumkin.

3073. Larceny (lasini) – o'g'irlik: (lasina) o'g'irlikda gumon qilinayotgan jinoyatchi ko'plab qizlarning lasinasini o'margani ham ma'lum bo'ldi;

3074. Lark (lak) – quvnoqlik, so'fito'rg'ay: (laylak) Bir laylak quvnoq so'fito'rg'ay bilan do'st tutindi;

- 3075. Lass (les) – qiz bola: (bliss)** odatda chempion qizlar blissni ichishni yoqtiradi;
- 3076. Lasting (lasing) – davomli, doimiy: (lasina)** Hozirda qizlar doim qora lasina kiyishmoqda;
- 3077. Lately (leytli) – yaqinda, yaqin kunlarda: (kliyentli)** Yaqin kunlarda kliyentli savdogarlar davlatimiz iqsodida ijobiy o'zgarishlar qilishmoqchi;
- 3078. Latent (leytin) – maxfiy, yashirin: (zaytun)** Zaytun mevasi ichida yashirin bo'lgan zararli elementlar aniqlandi;
- 3079. Lateral (leytirel) – yon tarafdagi, chetdagi: (sulaytiril)** Ukol qilib sulaytirilgan fil o'zini chetdagi daraxtga borib suyadi;
- 3080. Latitude (letityud) – kenglik, keng dunyoqarash: (etyud)** San'atning tanqidiy etyud janrida ishlash uchun keng zal kerak bo'ladi;
- 3081. Launch (launch) – uchirmoq, ish boshlamoq: (hot lanch)** Hafta boshi Dushanbada ish boshlashdan oldin hotlan yeb olsangiz charchab qolmaysiz;
- 3082. Lavish (levish) – behuda sarf qilmoq, isrofgar: (klavish)** Kompyuter klavishlarida Xitoy ierogliflarini joylab chiqaman deb behuda urinmang ularni sanog'i yo'q;
- 3083. Lax (leks) – beparvo: (leksiya)** Ko'pincha leksiya paytida o'quvchilar beparvo o'tirishadi;
- 3084. Lay (ley) – qo'ymoq, yozmoq, tayyorlamoq, tuxum qo'ymoq: (laylak)** Laylak faqat stolbani ustidagi iniga tuxum qo'yadi;
